

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Ai-Xorazmiy nomli Urganch davlat universiteti

M.A. Nurmatova
MUSIQA O'QITISH METODIKASI
Ma'ruzalar matni

Urganch 2008

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi

Al Xorazmiy nomli
Urganch davlat universiteti
«Musiqiy» ta'lim yo'nalishi uchun

MUSIQA O'QITISH METODIKASI
fanidan
Ma'ruzalar matni

Urganch 200

Tuzuvchi:

M. Nurmatova - UrDU Musiqa kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchllar:

A.Masharipov - 24-son sanat gimnaziyasi o'qituvchisi

B. Raxiniov- UrDU Musiqa kafedrası mudiri

Ma'ruza matnlari UrDUning ilmiy-uslubiy Kengashi qaroriga muvofiq
nashrga tavsiya etilgan

So'z boshi

Ma'ruzalar matnining asosiy maqsadi, oliy o'quv yurtlari talabalarini musiqa darsi va sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi ishlarini, metodik jihatdan tashqari musiqa tarbiyasi ishlarini, metodik jihatdan tog'ri tashkil etib, davlat ta'lim standartlari asosida mazmunli qilib olib borishga qaratilgan. «Ma'ruzalar matni» da mavzy rejasi, foydalanilgan adabiyotlar, tayanch tushunchalar, mavzuni mustahkamlashga doir mustaqil ish namynalar va tekshirish uchun savollar berilgan.

«Ma'ruzalar matni» universitetlar musiqa ta'limi bakalavriat yonalishi, maxsus sirtqi talabalari uchun tavsiya etilgan.

I. BOB. MUSIQA TARBIYASI USLUBIYOTI
FANINING MOHIYATI
1-Mavzu: Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa
tarbiyasining ahamiyati

REJA:

1. Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish - bu insonning , jismoniy, aqliy va manaviy kamolga yetish jarayonidir.
2. Musiqiy fazilatlar va qobiliyatlarni shakllantirishda irsiyatning, muhim tasiri va tarbiyaning roli.
3. Shaxsning musiqiy rivojlanishi, kamolga yetishishning yoshga doir tavsiflari
4. Musiqa talimining an'anaviy shakllari «Ustoz-shogird»

K i r i sh

Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish - bu insonning jismonan, aqlan mamaviy tomondan kamolga yetish jarayonidir. Bu jarayonning o'ziga xos obektiv va sub'ektiv tomonlari mavjud.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o'ynaydigan san'at turidir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: «Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san'atda emasmikan, zeroqi, ritm va garmoniya hammadan ko'proq shu vaqtda qalbgacha chuqur yo'l topadi va salobat baxsh etib, uni ko'rkam qiladiki, agar tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, aks xolda uning teskarisi bo'lib chiqadi.

Uning shogirdi Aristotel (Aflotun) komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi. «Musiqa kishi ruxining ahloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga, ta'sir etadi.» Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr Al-Farobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga aniq ta'sirini quyidagicha bayon etadi: «Bu fan (ya'ni musiqa D.O) shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir.»

Musiqa inson ruxi va aqliy rivojiga bebaho ta'sir o'tkazadi. Ch.Darvin umrining oxirlarida quvvati xofizasi (xotirasi) va fikrlash qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilib yozadi: «Agar menga ikkinchi bor dunyoga kelish nasib bo'lganda edi, endigi hayotimda loaqal xaftada bir marta bo'lsa ham, bir necha she'r o'qishni o'zimga qoida qilib olardim.» Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo'shilishiga ahloqiy soflik, san'atga va hayotga estetik munosabat - shaxsning to'laqonli kamolga yetishida muhim shartlardir. Bu olijanob maqsadga erishishda to'g'ri yo'lga qo'yilgan bolalar musiqa tarbiyasi katta ahamiyatga egadir.

Bolalar qobiliyati aktiv musiqa faoliyati davomida rivojlanib boradi. Qobiliyatlar deganda insonning kerakli ko'nikma, malaka, ilmlarni olishi va uni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olishga qaratilgan psixologik xususiyatlari tushuniladi.

Ma'lum bir faoliyat turiga bo'lgan qobiliyat. Nerv sistemasining (tizim)analizatorlari sezgirligi, kuchi,nerv jarayonlarining harakatlanganligi, muvozanatlashganligi kabi omillar asosida rivojlanadi. Masalan: bir sinfda o'qiyotgan ikkita o'quvchiga o'qituvchi bir xil asar sh'erni etyudini beradi. Lekin o'quvchilardan biri etyudni bir xaftadan keyinroq, yana biri darhol chaqqon, tez o'lashtira boshlaydi. Boshqa o'quvchi esa bu ishni bir oy o'tganda ham bajara olmaydi va ko'p xatolar qiladi. Muvaffaqiyatga erishishdagi bu farqni xoxlagan bir pedagog ana shunday holatlarda o'quvchilardagi qobiliyatlar darajasiga bog'laydi.

Tug'ma qobiliyatlarning irsiy berilishi, masalan: tibbiyot ilmida va unga muvofiq pedagogikada ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ichkilikbozlikka berilgan ayrim oilalardagi bolalarda ba'zi bir irsiy ko'chib o'tadigan ruxiy kasalliklarga chalinish xollari uchraydi. Sog'lom kishilar farzandlarida aqliy faoliyat darajasi va sifati yuqori bo'lishi kuzatiladi. Jismoniy va ruxiy sog'lom bo'lgan kishilarda ma'lumotlilik hamda bilish jarayonlarining rivojlanishi ko'p jihatdan ular qanday sharoitda o'qitilayotganligi yoki qanday sharoitga qo'yilganligi bilan belgilanadi.

Bizning talim-tarbiya tizimimiz hamma o'quvchilar uchun bir xil imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga har bir kishida mavjud bo'lgan iqtidor, qobiliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratiladi, o'quvchilarga ularning individual o'ziga xosliklarini hisobga olgan xolda tabaqalashtirilgan xolda yondashuvni inkor etmaydi. Qobiliyatlar namoyon b'lishi uchun esa uning egasi ko'p mehnat qilishiga to'g'ri keladi .

Xalqimizda «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqol bor. Har bir bola birinchi tarbiyani o'z ota-onasidan, oila a'zolaridan, o'z atrofidagi yaqin kishilardan oladi. Oiladagi ijobiy muhit, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, bir-biriga bo'lgan hurmat va e'tibor, mehribonlik, o'zaro yordam va ularning musiqaga bo'lgan munosabatlarini bolalarda dastlabki tushuncha va ko'nikmalarining rivojlanib borishida asosiy o'rin tutadi. Bolalar shaxsi uning faoliyati jarayonida tarkib topdi. Zotan, o'quvchining faoliyati juda maroqii, o'ziga xos go'zal va shakl jihatidan rang-barangdir. Bu xil fazilatlar bolalarga xos bo'lgan doimiy extiyojga aylangandagina ulardagi faollik yanada ortadi. Maroqli va ma'naviy zavq beruvchi ana shu go'zal tuyg'u bolalar va o'quvchilarning ayniqsa, nafosat tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, bolada namoyon bo'ladigan ilmiy badiiy-estetik tarbiya muhim ma'naviy go'zallikka puxta, zamin hozirlaydi.

Bolalar yoshlik xususiyatlarini e'tiborga olib uni ilk yoshidan tashkil qilish va yo'naltirish - pedagog vazifasidir. Aks xolda bola rivojlanishida orqada qolish seziladi. Misol uchun bolalarni ilk yoshida musiqaviy tovushlarning balandligi bo'yicha ajratib borishga o'rgatilmasa u yetti yoshida bu vazifa-larni uddalay olmaydi.

Musiqaviy rivojlanishning muhim xususiyatlari quyidagilardir:

-eshitish sezgisi, musiqaviy eshitish qobiliyati;

-har xil xarakterdagi musiqalarga emotsional munosabatning sifati va darajasi;

Qo'shiq kuylashda, musiqaviy ritmik harakatlar bajarishda oddiy ko'nikmalar hosil qilish.

Bolalar hayotining 1-yili

Ruxshunoslar (psixologlar) bolalarda eshitish-sezish erta uyg'onishini ta'kidlaydilar. A.A.Lyublinsqaya malumotlariga ko'ra bola hayotining 10-12 kunida tovushlarga munosabat seziladi.

2 oylik bola ovozga, skripka tovushlariga quloq solib tinchib qoladi.

4-5 oylik bolalar ovoz kelayotgan manbani izlaydilar. Qo'shiq kuylayotgan ovozga quloq tutadilar. To'g'ri rivojlanayotgan bola birinchi oylardan boshlab musiqa xarakteriga kompleks jonlanish munosabatida bo'ladilar, ya'ni ular quvonadilar yoki tinchib qoladilar. Bola hayotining birinchi yili oxiriga borib kattalar qo'shig'iga g'uvillash bilan jo'r bo'lishga harakat qiladilar.

Bola hayotining 2-yili

Bolalar musika tinglashda yorqin emotsional munosabat quvnoq jonlanish yoki muloyim kayfiyat bildiradilar. Bola baland va past tovushlarni, qattiq va sekin yangrash, xatto tembr ishlarini ham ajratadi. (Metallofon yoki barabanda ijro qilinayotir) Birinchi marta ongli ravishda qo'shiqchilik intonatsiyalari hosil bo'ladi. U kattalar qo'shig'iga jo'r bo'lib qo'shiqning oxirgi jumllarini takrorlaydi, u oddiy harakatlar chapak, oyoq taqillatishi, musiqa ostida aylanishlarini bajarishi mumkin.

Bola hayotining 3va 4 yili

Bolalarda sezgirlik, jismlarning har xil xususiyatlarini ajratish, shu jumladan musiqaviy kabi xususiyatlar ham rivojlanadi. Shuningdek, musiqaviy sezgirlikning individual rivojlanishi kuzatiladi. Misol uchun bolalar oddiy qo'shiqlarni aniq kuylashlari mumkin. Bu davr yana bolalarning mustaqil harakat qilishga intilishi bilan xarakterlanadi. Bolalarda aktiv harakat qilishga intilish, musiqa bilan shugullanishga qiziqishi ortadi. 4 yoshli bolalar kattalarning ozroq yordami bilan kichik ashulalarni mustaqil kuylashlari mumkin, ular har xil harakatlarni biladilar va uni ma'lum darajada mustaqil ishlata oladilar.

Bola hayotining 5 yili

Bu davr ularning aktiv qiziqqonligi bilan xarakterlanadi. Bu davr nimaga? Nima uchun? - degan savollar davridir.

Ular kuzatuvchan bo'lib musiqaning quvnoq, shodiyona, tinch xarakterini, tovushlar baland-pastligini, p'esalarning birinchi qismi tez ikkinchi qismi sekin ekanligini, kuy qaysi asbobda ijro qilinayotganligini (royal, skripka, bayan) aniqlay oladi.

Bola oldiga qo'yilayotgan talablarni to'g'ri tushunish. Tovush bu davrda jarangdor, harakatchan xususiyatga ega bo'ladi. Ovoz intonatsiyasi ancha

turg'unlasnadi, lekin doimo kattalar yordamiga muxtoj bo'ladi. Harakatning asosiy turlari - yurish, chopish, sakrashlarni egallash bolalarga bu harakat turlarini o'yin, raqslarda qo'llash imkonini beradi.

Bola hayotining 6-7 yillari

Bu davr bolalarni maktabga tayyorlash davridir. Bog'chada olingan musiqaviy ta'asurotlar, bilimlar ta'sirida bolalar musiqa asarlariga xarakteristika berish uning ifoda vositalarini tahlil qilishlari musiqada ifodalangan har xil kayfiyatlarni sezishlari mumkin. Bola musiqaviy obrazlarni butunligicha qabul qilish qobiliyatiga ega b'ladi. Bu esa tevarak-atrofga estetik munosabatni tarbiyalashga katta yordam beradi. 6-7 yoshli bolalarda ovoz apparati yanada rivojlanadi. Ovozda kuychanlik, jarangdorlik paydo bo'ladi. Qo'shiq, raqs va o'yinlar mustaqil ravishda ijro qilinadi. Musiqaviy qiziqish va qobiliyatlar yorqinroq namoyon bo'ladi.

Birinchi sinf

Birinchi sinfda musiqa darslarining maqsadi va vazifalari bolalarning psixologik-fiziologik xususiyatlari va musiqaviy - o'quv xususiyatlarining darajasiga asoslanib belgilanadi. Notagacha bo'lgan davr, bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lish, musiqali ritmik harakatlar bajarish, bu sinfda amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha maqsadlar musiqa tarbiyasining bosh mezonini o'quvchilar ma'naviy boyligining tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Birinchi sinfda musiqa ta'limotining poydevori ko'riladi. Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarning ovoz diapazonini aniqlash va uni kengaytirib borishga alohida e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinflarda ko'pgina o'quvchilarning ovoz diapazoni, birinchi oktava «lya» dan yuqoriga o'tmaydi. Zero, dasturdagi qo'shiqlarning diapazoni birinchi oktava «do» dan uchinchi oktava «do» gacha ko'tariladi. Natijada, o'quvchilar qo'shiqni bu pardalarda mutlaqo noto'g'ri ijro etadilar yoki umuman ayta olmaydilar. Shu tufayli o'quvchilarni ikki ovozga ajratish ya'ni ovozi yuqori pardalarga ko'tarilmaydigan o'quvchilar jim eshitishlari qolganlari kuylashi talab qilinadi. Shuningdek, ovozga ajratish o'quvchilarga qo'shiq o'rgatishda qo'l keladi. Har bir ovoz guruhining alohida kuylanishi o'quvchilarni ko'p ovozlikka tayyorlab boradi va ularda mustaqillik xissini tarbiyalaydi.

Ikkinchi sinf

Ikkinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra: birinchi sinf o'quvchilariga o'xshash bo'ladi. Qo'shiq, raqs, marsh janrlarining musiqiy xususiyatlariga qarab farqlash kabi birinchi sinfda olingan tushunchalar bilimlarga aylanadi. Vokal-xor ishga e'tibor kuchayadi, o'qituvchi ovoziga va cholg'uiga tayanib o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, kuyning bir jumlasini ketma-ket ijro etishdan ikki ovozlik hosil qilib qo'shiqlar o'rgatadi.

Do¹-Re² diapazonidagi bir va ikki ovozli qo'shiqlar kuylatiladi. Musiqa xarakteri va janr ifodalarini anglash va tasvirlashda musiqali-ritmik harakatlardan va bolalar cholg'u asboblari keng foydalaniladi, shuningdek, o'zbek xalq ashulalari va cholg'u asboblari, kompozitorlar ijodi bilan tanishtiriladi.

Uchinchi sinf

Uchinchi sinf o'quvchilari o'ziining psixologik xarakteriga ko'ra 1-2 sinflardan ancha farq qiladi. Ikkinchi sinfda olingan bilim va malakalar musiqa qonuniyatlariga doir yanada konkret nazariy bilimga aylanadi. Ularning diqqat-e'tiborlari turg'un, nutqi ravon bo'ladi, ovoz apparatlari shakllangan ikki ovozli asarlarni (o'quvchilar do^1-re^2 (mi^2) diapazonidagi bir ovozli va ikki ovozli qo'shiq elementlari bo'lgan asarlarni kuylaydilar) kuylash malakasiga ega bo'ladilar. Musiqa darsiga qiziqishlari yanada ortib boradi.

To'rtinchi sinf

To'rtinchi sinfda o'quvchilar psixologik jihatdan hayotiy tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat e'tibori turg'un, jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, xajmi jihatidan kattaroq bo'lgan musiqani ham eshilishga qodir bo'ladilar. Taqqoslash, izlanish jarayonida ikki ovozli qo'shiqlardan jo'rsiz-a'capella asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Musiqa tinglash jarayonida o'zbek xalq musiqasi va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati, o'zbek xalq musiqasining qardosh xalqlar musiqasi bilan yaqinligi va o'xshashligi haqida ma'lumot berish lozim. Bundan tashqari to'garaklarga jalb etish, yakkaxon dastalar (ansambl) tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchi sinf

Beshinchi sinfda tayanch ta'lim bosqichi boshlanadi. Beshinchi sinfda o'quvchilar psixologik tomondan ancha o'zgargan bo'ladi. Ularning diqqat-e'tibori turg'un, fanlarga qiziqish, izlanish, o'zining sevgan mashg'uloti mavjudligi bilan farq qiladi. Fikrlash birmuncha rivojlanganligi sababli, ko'rgazmali idrokdan ko'ra, so'z orqali mantiqiy idrok qobiliyatlari rivojlana boshlaydi. Vokal-xor malakalari ovoz diapazonlari notekis bo'ladi. (D^1-mi^2 birinchi ovoz, Do^1 (si kich)- Do^2 (re^2) ikkinchi ovoz diapazonlarida bir va ikki ovozli ashulalar aytish). Shu sababli ularda sof unison ansambl ikki ovozda kuylash ishi murakkab amalga oshadi.

Oltinchi sinf

Oltinchi sinflarda o'quvchilarda o'spirinlik davri boshlanib, ular tabiat va hayot qonunlariga jiddiy qiziqadilar. Psixologik-fiziologik jihatdan organizmda aktiv o'zgarishlar ro'y beradi. Bo'yining o'sishi, ovozning o'zgara borishi, fanlarga qiziqishi va mustaqil fikr yurita olish, qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada bosh miya yetarli darajada ozuqa ololmay horg'inlik holatlari ro'y beradi. Bu davrda o'qituvchi ularga jiddiy va mehribon munosabatda bo'lishi, do'stona suhbatlashishi talab etiladi. Quyidagi diapazondagi bir va ikki ovozli ashulalarni ayta oladilar: birinchi ovoz do^1-mi^2 (fa^2), ikkinchi ovoz Si kich (Lya kich) $Do^2(re^2)$

Yettinchi sinf

Yettinchi sinf o'quvchilarida psixologik-fiziologik jihatdan ayrim o'zgarishlar paydo bo'ladi, emotsional holatlari, darsda nisbatan horg'inlik alomatlari paydo bo'ladi. Dars davomida o'quvchilarning kayfiyatlari o'zgarib turadi. Mazkur holatda dars maqsadlariga erishishning yagona sharti sinfdagi har bir bolani yaxshi o'rganib, dars mazmunini yuksak musiqaviy darajada olib borishdan iboratdir. Bu davrda ko'pchilik bolalarda mutatsiya davri avj oladi, shunga qaramasdan ovozlari xali jarangdor yangraydi. O'qituvchi ularning ishchi diapazonini toliqtirmasligi va qo'shiq kuylash miqdorini buzmasligi lozim.

Shaxsni musiqa yordamida tarbiyalashda asosiy vazifa, ularga o'zbek musiqasining butun rivojlanish tarixi davomida to'plangan barcha musiqa madaniyati boyliklarini yetkazish, ular ongiga singdirish lozim. Zotan, shu jarayonda milliy asoslar kichik yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlarini o'stirishda tabiiy va qulay zamin hisoblanadi.

Xalq musiqa san'atimiz o'zining tuzilishi va ijrochilik uslubi bilan ikki turga bo'linadi. Ommaviy xalq kuyi va qo'shiqlari birinchi turga moyil deb hisoblanadi. Bu janrlar shuning uchun ham ommaviy deb ataladiki, ular sodda va ijroda qulay bo'lganligi sababli, har bir xoxlovchi biror ustozidan maxsus ta'lim olmasa-da, ularni to'y-xasham, bayramlar va boshqa marosimlarda ijrochilarga qo'shib, o'rganib ketadi. Natijada ommaviy janrlarning ijrochilari xalq orasida ko'pchilikni tashkil etadi. Og'zaki an'anadagi ustozona musiqasi janrlarini esa osonlikcha o'rganib ijro etish qiyin. Chunki ularning tuzilishi murakkab bo'lib, katta avjlar va murakkab ritm-usullardan iboratdir. Shu bois professional musiqani ijro etish uchun boy tajriba, yuksak ijrochilik mahoratiga, jarangdor va keng diapazonli ovozga ega bo'lish lozim. Ayniqsa, ularni ijro etish jarayonida qochirim va nola kabi ijrochilik ifodalarni qo'llash lozim bo'ladiki, u yuksak mahorat talab etadi. Shuning uchun professional musiqa janrlariga oid bo'lgan ashula, katta ashula, epik dostonlar va maqomlarni ijro etish maktabini o'rganish uchun yetuk ustoz-san'atkorlardan yillar davomida saboq olish bo'ladi.

O'tgan asrlarda musiqa amaliyotimizda nota yozuvi deyarli qo'llanmaganligi sababli xalq musiqasi ogzaki tarzda avloddan avlodga o'tib keladi. Musiqa madaniyatimizni rivojlantirishda va uni avloddan-avlodga meros qoldirishda xalq musiqa san'ati ustalarining xizmatlari benihoya kattadir. Xalq musiqasini mukammal bilgan, ularni yuksak mahorat bilan ijro etgan va yangi kuy, qo'shiqlar yaratib musiqamizni yanada boyitgan har bir bastakor, mashshoq va honanda xalqimizning katta hurmatiga sazovor bo'lgan. Ularni xalq «Usta», «Xofiz», «Mehtar» kabi yuksak unvonlar bilan ardoqlagan.

Respublikamizda xalq hurmatiga sazovor bo'lgan ashulachilarga «O'zbekiston xalq hofizi» degan faxriy unvon berilishi ham shu boisdandir. Xalqimiz orasida mashhur bo'lgan atoqli san'atkorlarimiz juda ko'p. Ota G'iyos Abdugani, Ota Jalol Nosirov, Domla Xalim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy, Shoraxim Shoumarov, Leyi Bobojanov, Usta Shodi Azizov, Matpano Xudoyberganov, Madraxim Yoqubov (Sheroziy), Matyoqub Harratov shular jumlasidandir.

Mustaqil o'zbekistonda yangi jamiyat qurish ishi keng avj olgan hozirgi davrda yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularning Vatanga bo'lgan mehmuxabbatini oshirish, ma'naviy kamol toptirish, ularning Vatanga bo'lgan mehmuxabbatini oshirish, ma'naviy-siyosiy ongini o'stirish va estetik-ahloqiy larbiya borasida san'at, xususan musiqa san'ati o'zining ta'sir kuchi bilan nixoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero u eng qadimiy, ayni chog'da zamonaviy va xalqning sevimli san'ati hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar:

Shaxs - odamning jamiyat a'zosi sifatida, o'z-o'zini anglash va tafakkurni, faoliyatning ob'ektivligini, muloqot hamda biluvchanlikni tashuvchanligidir.

Insonning rivojlanishi - tashqi va ichki, boshqariluvchi va boshqarilishga berilmaydigan omillar tomonidan shaxsning shakllanish jarayonidir.

Qobiliyat - shaxsning individual - psixologik o'ziga hosligining psixologik tarkibiy tuzilishiga kiritilgan, qaysidir bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga taaluqli bo'lgan va bilimlar, malakalarni egallashning tezkorligini, yengilligini izohlab beradigan xususiyatdir.

Maqsad – bo'lg'usi natijalar haqida har doim aqlan uylab ko'rilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar.

Musiqa turli tuman tovushlar bilan obraz yaratib beruvchi, g'oyaviy emotsional mazmuniga ega bo'lgan san'atning bir turi hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Madaniy hayotimizda inson shaxsiyatining shakllanishida musiqa qanday ahamiyatga ega?
2. Musiqiy fazilatlar va qobiliyatlarni shakllantirishda irsiyatning muhim ta'siri va tarbiyasining roli qanday?
3. Shaxsning musiqiy rivojlanishi, kamolga yetishishning yoshga doir tavsiflari
4. Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa o'qitishning qanday maqsad va vazifalari mavjud?
5. Musiqa ta'limning an'anaviy shakllari.

Mavzuni mustahkamlashga doir mustaqil ish namunalari

1. Vetlugina N.A. «Музыкальное развитие ребёнка»
2. Shaxs kamolotini rivojlantirishda buyuk allomalarimiz fikrlarining mohiyati (Abu Nasr Muhammad Farobiy. Abu Abdullox Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoi, Mirzo Ulug'bek.)
3. V.I.Petrushin «Музыкальная психология»
4. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar kursi. 1990y. Omonullayev D.
5. Umumiy psixologiya prof.A.V.Petrovskiy taxriri ostida. T. 1975y. 4-5-6 boblar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Y.Tursunov.U.N.Nishonaliyev. «Pedagogika kursi»
2. D.Omonullayev, X.Nurmatov, Mamirov K. va boshq. «Umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi»
- 3.O.Fayziyev. «Maktabda musiqaviy tarbiya». T.1991
- 4.N.V.Savin «Pedagogika»
- 5.Davlat ta'lim standartiga Sharq «Musika madaniyati» Ta'limning maqsad va vazifalari. Mualliflar: D.Omonullayev. Y.Botirov.
- 6.Dmitriyeva G., Chernoyanova «Методика музыкального воспитания в школе»
7. Musika o'qitish metodikasi (ma'ruzalar matni) T-2000. Sharipova 4-6 bet.
8. Musika darsligi (1-7 sinflar uchun)
- 9.Musika lug'ati Akbarov I.A.
- 10.O'zbek entsiklopediyasi 7-tom

2. Mavzu: «Musika o'qituvchisining ma'naviy va ahloqiy qiyofasi. Unga qo'yilgan zamonaviy talablar»

REJA:

1. Ahloqiy tarbiya
2. O'quvchilarning ahloqiy tarbiyasining maqsadi, vazifasi va mazmuni
3. Ma'naviy tarbiya
4. Musika o'qituvchisi va unga qo'yilgan talablar.

Ahloqiy tarbiya - bu hayotning turli sohalarida va insonlar bilan munosabatda shaxsning xarakteri va hulq-atvoriga xalq ommasining munosabatlarini ifodalanishi. Insonning Vatanga, Mehnatga, moddiy ne'matlarga, oilaga boshqa kishilarga hamda o'ziga munosabati va mazkur o'ziga ahloqiy munosabatlarini tarbiyalash, ahloqiy tarbiya g'oyalarini tashkil qiladi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nasr Al-Farobiy musiqaning shaxs kamoloti shakllanishiga ijobiy ta'sirini quyidagicha bayon etadi: «Bu fan (ya'ni musika-D.O) shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol yetmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. ... Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir.» Atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy ham musika san'ati ulkan tafakkur manbai, usiz bolaning aqliy rivojlanishiga erishib bo'lmasligini e'tirof etgan. Zotan, har bir musika asarida ijodkorning ma'lum g'oyasi yoki biror badiiy mazmun bo'ladi. Musiqaning mazmuni o'quvchining g'oyaviy emotsional xissiyoti faol kechishi natijasida idrok etiladi. Shuning uchun to'g'ri tarbiyalangan musiqaviy-badiiy did musika asarining g'oyaviy va badiiy mazmunini chuqur anglashda katta rol o'ynaydi. Demak, ahloqiy va aqliy-g'oyaviy tarbiya badiiy tarbiyaning ichki mazmunidir. Bu vazifani amalga oshirishda xalq musiqasi va kompozitorlar asarlarining mohiyatini, ularning tuzilish jihatidan farqini, milliy xususiyatlarini hamda janr tuzilishlarini o'rganish zarur. Bunda atoqli san'atkorlar

ijodi bilan tanishish, ular yashagan davrni bilish, ular yaratgan asarlarni musiqiy-pedagogik jihatdan tahlil etib o'rganish, mashxur asarlar taqdiri va tarixi bilan tanishish muhim rol o'ynaydi.

O'rganiladigan asarlar badiiy va g'oyaviy jihatdan yaxlit ta'surot qoldirishi uchun ularni ma'lum mavzu asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday mavzular bir yoki bir necha dars asosida musiqa qonuniyatlari, ijrochilik turlari yoki uning ifoda vositasi bo'lgan ma'lum mazmun bilan bog'lanishi mumkin. Masalan «Lad nima?», «Xalq musiqa ijodi», «Bastakorlik va kompozitorlik ijodi», «Musiqiy-epik dostonlar». «Katta ashula janri», «Maqoinlar», «O'zbek musiqasida ijrochilik uslublari», «Musiqaning oddiy shakllari», «Qo'shiqlarda kuplet shakllari», «Syuita shakli», «Simfonik asarlar janrlari, «Musiqiy saxna asarlari» va boshqalar shular jumlasidandir.

Garchi mazkur mavzu tizimi uslubi yangi dastur tarkibida ishlab chiqilayotgan bo'lsa-da, ammo bu narsa keng o'qituvchilar tajribasiga ham tayangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Asarni badiiy yaxlit idrok qilish, ikkinchidan, dars tuzilishiga ham bog'liq. Darsda turli musiqiy faoliyat turlarini (musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa savodi) asarni musiqiy-pedagogik tahlil etish, musiqaning badiiy xususiyatini ayrim harakatlarda ifodalash va hokazo yagona maqsad sari yo'llash va bu bilan darsni mazmunan qiziqarli tashkil etish lozim. Shu boisdan musiqa darsi kompleks dars tipiga kiradi. Darsda faqatgina ashula aytib bolalarni zeriktirishga yo'l qo'ymaslik lozim. Bu ularning qiziqishini so'ndiradi va ovoz apparatlariga ziyon yetkazadi.

2. O'zbekiston mustaqil davlatga erishgan bir sharoitda ma'naviy va ahloqiy tarbiya qator omillar ta'sirida amalga oshiriladi. Bu eng avvalo shaxsni umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish maqsadida ish olib borishda ko'rinadi. Ahloqiy sifat shaxsning barcha muhim xususiyatlarini yaxit xolga keltiradi. O'zbek xalqining moddiy va madaniy darajasining ko'tarilishi yangi ahloqning kelajakdagi rivojlanishi va mustahkamlanishining sotsial bazasini kengaytiradi, shaxs extiyojlarini yangi darajasi va undan oqilona foydalanishni shakllantiradi. Ahloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsni ahloqiy shakllantirishdir. Ahloqiy tarbiyaning mazmuni avvalo o'quvchilarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Ahloqiy tarbiyaning mazmuni o'quv dasturlari va darsliklarga joylangan bo'lib, u o'quv jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, xor darsda kuylash uchun mo'ljallangan qo'shiqlar repertuaridan ona-Vatanga, boy tabiatimizga, xalqimiz mehnati va hayoti bilan bog'langan turli bayramlarga, ahloq-odobga keng o'rin berildi. Tanlangan qo'shiqlar xilma-xil janrda bo'lib, ular ko'proq milliy musiqamizdagi lirik qo'shiqlar, xazil-mutoiba tarzidagi qo'shiqlar, bolalar xalq qo'shiqlari, bolalar o'yinlarini o'ynash uchun mos keladigan kuy-qo'shiqlar, marsh va vals kuylarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, dasturga qardosh va chet el kompozitorlari asarlari chet el xalqlarining qo'shiqlari asarlari qo'shiqlaridan namunalar ham kiritildi. Bu qo'shiqlarning g'oyaviy, ahloqiy va estetik mazmunini o'quvchilarga yaxshiroq singdirish uchun mavzuga mos kirish, ahloqiy suhbatlar,

savol javoblar kabi usullardan ijodiy foydalaniladi. Berilgan mavzularni oson o'zlashtirish uchun ifodali o'qish, mavzu asosida rasmlar chizish, ularni tahlil qilish, eski ro'znoma va oynomalardan mavzuga doir rasmlarni kesib yopishtirish kabi usullardan ham keng foydalanish tavsiya qilinadi. Ahloqiy tarbiya yoshi va o'quvchining to'g'ri yo'nalish olishi uchun hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhitni ham hisobga olganda, shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Ahloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi:

Inson hayoti va madaniyatining ahloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur beradi. Ahloqiy bilim asosan ahloq to'g'risidagi suhbatlar, ma'ruzalar mavzuiy kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchrashuvlar, o'quvchilar konferentsiyasi va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

3. O'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avvalo insonparvarlik, kamtarinlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, do'stlik, birodarlik, poklik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan hozirda ma'naviy tarbiyani yoshlarda shakllantirish dolzarb vazifadir. O'zbek milliy qo'shiqlarini meromiga yetkazib kuylash, tinglovchilarning yuragiga ta'sir qildirish - bir san'at, u san'atdan bahra ola bilish ham katta iste'dod bo'lib qoldi. Shuning uchun kekxa san'at ustalarimizni tinglay olish, ularni ardoqlash, e'zozlash, oqibatli bo'lishni yosh avlodga o'rgatish, biz o'qituvchilarga katta vazifa yuklaydi. O'qituvchi-ustozning mahorati o'z o'quvchisini har bir ishni bajarishga majbur etishida emas, balki uni bu ishni o'z xoxishi-irodasi bilan, tushunib quvonch bilan bajarishga ragbatlantirishdadir.

Ma'naviy tarbiyaning bir nechta jihatlari mavjud. Shuning bir qirrasiga ya'ni musiqiy ta'sir orqali yuksak insoniy xis-tuyg'ularni shakllantirish masalalariga ozgina to'xtalamiz. Asrlar osha yetib kelgan xalq hayotini ko'rsatuvchi qo'shiq va kuylar juda ko'p. Ular xis-xayajon uyg'otuvchi, mazmuni jihatidan esda qoluvchi, ta'sirchan kuchga egadir. Ularni har bir inson uchun qimmatli ahamiyatga ega ekanligini allomalarimiz uqtirib kelganlar. (Yo alxazar, ey musiqa olami, yaxshiyam sen borsan, agar sen bo'lmaganingda insonlarning ahvoli nima kechardi, - deb xitob qilgan edi, - Farobiy)

Farobiyning fikricha musiqa kishini ruxlantirib umumiy ma'naviy kamolotga yetishishida ijobiy rol o'ynaydi. Shuningdek, uning salomatligiga foydasi boligini aytib o'tadi. Musiqa sadolar ta'sirida asab tartibga tushadi. Kuylarning harakatiga uning ritm holati bilan tomir urishi mos ravishda kelishini ham hisobga olgan Ibn Sino va ohangni bola qalbiga estetik ta'siri haqida qimmatli fikrlarini aytadi. «Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish bu insonning aqliy va ma'naviy kamolga yetkazish jarayonidir.» Ma'naviy tarbiyani yo'lga qo'yishda quyidagi talablarni hisobga olish zarur:

1. Sharq allomalarining musiqa va musiqiy tarbiyasiga bag'ishlangan asarlardan keng foydalanish;
2. Ijodkor kekxa avlodlarimizdan foydalanib qolish, tilarning ishini davom ettiruvchilarni tayyorlash kerak;
3. Pedagogik amaliyot davrida quyidagilarga ahamiyat berish lozim:
 - a) maktablardagi musiqa darslari va sinfdan tashqari ishlarni uzviy bog'lab olib borish;

- b) B.M.M. (DM.Sh) o'qiydigan bolalarni faol ishtirok etishlarini tashkil qilish;
- v) Radio, televideniyaning musiqiy eshittirishlari va ko'rsatuvlarlaridan unumli foydalanish;
- g) Ijodkor o'quvchilar bilan tanlovlar o'tkazib borish, saxna harakatini o'rgatish;
- d) Tarix, san'at muzeylariga sayohatlar uyushtirish;
- e) Milliy musiqa merosimizdan foydalanish milliy madaniyatga havasni shakllantirish;

Bu so'zlardan hozirgi yoshlarimiz ibrat olsalar, o'z ijodlariga tanqidiy ko'z bilan qarasalar, ustoz-o'qituvchilar orqasidan ergashsalar madaniyatimiz yangi pog'onaga ko'tarilar, jahon bo'ylab qo'shiqlarimiz, kuylarimiz taronalar, ma'naviyatimiz yanada boyib borardi.

4. Musiqa o'qituvchisi yuksak madaniyatli, o'z kasbiga cheksiz sadoqatli, ilg'or pedagogik tafakkur egasi bo'lmog'i lozim. U o'zi uzluksiz kasbiy va madaniy rivojlanish qobiliyatiga ega bo'lishi shart. U pedagogika, ruxshunoslik, musiqa o'qitish metodikasi, estetika nazariyasi fanlaridan xususan musiqa o'qitishni chuqur bilishi va malakalar egasi bo'lmog'i darkor. Ayniqsa, unda musiqa o'qituvchisi ixtisosi zarur me'yorida cholg'uchilik, honandalik va musiqa nazariyatchiligi sifatleri mujassam bo'lmog'i lozim.

Musiqa o'qituvchisi pedagog muloqot ustasi bo'lishi har qanday vaziyatda ham pedagogik ta'sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim. Hozirgi musiqa o'qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg'or tajribalar shaydosi izlanuvchan va ijodkor bo'lib musiqa o'qitishlar yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog'i lozim. U musiqa ta'lim tarbiyasi mazmunini boshqa fanlar mazmuni va kundalik hayot bilan bog'lab, boyitib olib borishi darkor. Izlanuvchan, ijodkor o'qituvchilar tajribasi va kashf etgan yangi usullari musiqa ta'lim-tarbiyalar doimiy ravishda rivojlanishlar asosiy tayanchi va ilxom manbaidir. Musiqa o'qituvchisi san'at ziyolisi sifatida maktabda musiqiy ma'rifiy ishlarning sardoridir.

Tayanch tushunchalar:

Ahloqiy tarbiya - o'quvchilarda umuminsoniy ahloqiy printsiplarga sodiq bo'lishdek, jamiyat ahloqiy talablari va me'yorlarini hisobga olgan xolda o'z xatti harakatlarini tanlay olish mahoratini, ahloqiy tafakkur va kundalik odatdagi ahloqiy xatti-harakatlarning mustahkam tizimini shakllantirish.

Ahloqiy tarhiyalanganlik - shaxsning asosiy fazilatlarining (mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik, jamoaviylik) yoki ahloqlikning asosiy belgilarining rivojlanishi darajasiga qarab aniqlanadi.

Estetik tarbiya - badiiy-estetik tafakkorlikni shakllantirish, real hayotda san'atdagi estetik xodisalar, ko'rinishlar holatlarni xis qila olish, qabul qila olish, baholay olish qobiliyatlarini shakllantirish shuningdek, ijodiyotda faol ishtirok etish.

Musiqa estetikasi - musiqa san'atining mohiyati, badiiy shakllari va uslublarini o'rganadigan fan.

Nazorat savollari:

1. Ahloqiy tarbiya haqida tushuncha bering

2. O'quvchilar ahloqiy tarbiyasining maqsadi, vazifasi va mazmuni qanday?
3. Ma'naviy tarbiyani yo'lga qo'yishda qanday talablarni hisobga olish zarur?
4. Musiqa o'qituvchisining oldiga qanday talablar qo'yilgan?

Mavzuni mustahkamlashga doir mustaqil ish namunalari

1. Azimov B. «Musiqa darslarida ma'naviy tarbiya»
2. Janaydarov Sh. «Musiqiy tadbirlar jarayonida yoshlarni estetik va ahloqiy tarbiyalash.»
3. Usmanov M. « XIX asr oxiri, XX asr boshlarida o'zbek mutafakkirlarining ahloqiy qarashlari.» T. 1968y.
4. S.Nishonova «Ma'naviyat darslari» T. «O'qituvchi» 1994y.
5. Safo Ochil «Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari» (O'zb.Respublikasi Prezidenti, akademik I.A.Karimov asarlari misolida) T. «O'qituvchi» 1997y.
6. O.Xasanbayeva., J.Xasanboyev, X.Xamidov «Pedagogika tarixi» «Farobiy ta'lim-tarbiya haqida» 41-45 betlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.V.Savm «Pedagogika»
2. V.A.Kan-Kalik «Учителю о педагогическом общении»
3. Dastur Toshkent-97 yil «Musiqa tarbiyasi metodikasi»
4. O.Xasanbayeva., T. Xasanboyev., X.Xamidov «Pedagogika tarixi»
5. Ibn Sino «Davolash kitobi»
6. Abu Nasr Muhammad Farobiy «Katta musiqa kitobi»
7. I.Y. Tursunov., U.N.Nishonaliyev «Pedagogika kursi»
8. D.Omonullayev., I.Botirov. Davlat ta'lim standartiga sharh. «Musiqa madaniyati» Ta'limning maqsad va vazifalari.

3-Mavzv: Musiqa darslarining xususiyati va strukturasi

R E J A :

1. Ta'limning sinf-dars tizimi
2. Musiqa darslarining maqsadi va ahamiyati
3. Musiqa darsining xususiyati
4. Musiqa darsining strukturasi

1. Dars o'quv tarbiya jarayonida tahsil maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ta'lim shakli hisoblanadi. O'tkizilgan dars o'quvchilarni ham, o'qituvchilarni ham qanoatlantirish uchun ma'lum darajada umumiy ba'zi bir talablarga javob berishi kerak. Dars predmet kalendar dasturidagi o'z o'rniga ega bo'lishi, maqsadi aniq belgilangan bo'lishi kerak. Dars o'tish jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim, iqtidor va ko'nikmalar alohida aniqlanishi darkor. Shu bilan birga mazkur dars davomida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning erishiladigan darajasi ham belgilanishi ma'qul bo'ladi. Darsda ishlatiladigan metodlar, vositalar turkumi aniq bo'lishi

oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Darsga qo'yiladigan didaktik talablardan yana biri shuki, beriladigan o'quv materiali sistemali ravishda osondan-qiyinga, oddiydan-murakkabga, o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda amalga oshirilishi kerak. Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar:

Mavzuni (kalendar) rejalashtirish asosida dars o'tkazishning ishlab chiqilgan aniq rejasi mavjud bo'lishi, dars o'z vaqtida boshlanib, o'z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o'quvchilar ongli intizomi ta'minlanmogi lozim. Dars tashkil etishda turli-tuman vositalardan, o'quv-texnik va ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'zda tutiladi. Darslar juda ham turli-tuman tarkibiy tuzilishlarga ega bo'lib, darslarni bir marta doimiy ravishda mavjud bo'ladigan ko'rinish tarzida rejalashtirish va o'zgarmaydigan qotib qolgan namuna asosida o'tkazaverish mumkin emas. Darsning tarkibiy tuzilishiga yuqorida qayd etib o'tilgan omillar qatorida mazkur sinfda ishlashning haqqoniy shart-sharoitlari. Shuningdek, o'qituvchi ish faoliyatining ijodiy xarakteri katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir dars boshqa darslardan xatto ular bitta fan, bitta mavzu yuzasidan teng, yonma-yon sinflarda o'tkazilganda ham o'zining o'ziga xos jihatlariga ko'ra farq qiladi. Darsda har doim o'qituvchining maxsus «Pedagogik yondashuv tarzi» ni ko'rish mumkin. Masalan: kombinatsiyalashgan dars quyidagi ko'rinishda tashkil etiladi: tashkiliy ish, o'quvchilarga berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish. O'rganilgan material yuzasidan o'quvchilardan so'rash, o'qituvchi tomonidan yangi materialning bayon etilishi, o'rganilgan materialni mustahkamlash, uyga topshiriqlar, vazifalar berish. Darsni yutug'i va uning natijalari nafaqat o'qituvchining tayyorligiga, balki o'quvchilarning tayyorgarliklariga ham bog'liq bo'ladi. Afsuski, ushbu masalaga ko'pgina o'qituvchilar o'zlarining amaliy ishlarida yetarli darajada e'tibor bermaydilar. O'qituvchi darslarda o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni bolalarga hurmat, ziyraklik, pedagogik mavqe, obro'sini saqlagan xolda yondashoshishni namoyon etish bilan muvofiqlashtirgan xolda olib borishi lozim. Darsda o'quvchilarga o'qituvchining murojaati shakli ham farqsiz emas. O'quvchilarni o'z ism-shariflari bilan atashi maqsadga muvofiqrokdir. Pedagog sifatida o'zligini namoyon etishni talab qilish zarur holatlarda o'qituvchi tomonidan o'z xisssiyotini aks yettirishni inkor etmaydi: u darslarda faqatgina ziyrak va mehribon, quvnoq, xushyor, ko'nglichan bo'libgina qolmasdan, balki jiddiy, xafa va noroziligi bilingan qiyofada bo'lishi ham kerak. O'qituvchining pedagogik optimizmi, uning o'quvchilarga munosabatidagi ishonch, o'quv faoliyatini tashkil etishning turli-tuman shakllaridagi darsda ularning hamjihatligidagi izlanuvchanligini tashkil etish, o'quvchilarning ishlariga haqqoniy baho berish, ularga doimiy zarur yordam ko'rsatishga tayyor turishlik-bularning barchasi juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi, o'quvchilarda jamoaviy mehnat malakalarini hamda ijobiy ahloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

II. Umumiy ta'lim maktablarida musiqa darsining asosiy maqsadi –o'qituvchilarga musiqa san'atini go'zallik qonunlari asosida o'rganish malakasini singdirish va ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdan iborat. Mazkur maqsad o'qituvchi oldiga o'quvchilarda musiqaviy - badiiy did ahloqiy-estetik xis-tuyg'ularni tarkib toptirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda musiqa san'atiga nisbatan

qiziqishni va musiqaviy faoliyatida badiiy extiyojni kuchaytirish, musiqa savodxonligi madaniyatini shakllantirish, musiqa-davr, hayot, inson xis-tuyg'ulari va orzu-umidlari ifodasi ekanligi haqida tushuncha hosil qilish kabi qator vazifalar qo'yadi. O'quvchilarda musiqa mehri va havasi uyg'otish, ularning musiqa saviyasini oshirish uchun ashula va musiqa sohasida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni har tomonlama kuchaytirish lozim. Boshlang'ich va 9-yillik maktablarning har birida xor to'garaklari, sharoit bo'lgan maktablarda cholg'u asboblari bo'lishi kerak. Ayni vaqtda o'quvchilarga yakka tartibda musiqa o'rgatish ishini uyushtirishga e'tibor berish, bu ishga ota-onalar jamoatchiligini jalb etish lozim. Maktabda egallangan musiqa bilimi va malakalaridan kundalik hayotda, maktabda ertalik va kechalar o'tkazishda mustaqillik, «Mehrjon», «yangi yil», «navro'z», onajonlar bayrami va musiqa-san'at bayramlarida hamda ekskursiya va sayrlarga chiqqanda foydalanish kerak. Shuningdek, o'rganilgan qo'shiqlar uyda oila a'zolari oldida, o'rtoqlar davrasida aytilishi mumkin. 7-yillik o'qish davrida musiqa sohasida muntazam sur'atda ish olib borilishi natijasida o'quvchilar musiqa savodiga ega bo'lib, musiqa sevadigan, yirik musiqa asarlarini, shuningdek, kontsertlarni, radio va televideniye orqali beriladigan musiqali eshittirishlarni mehr qo'yib tinglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida yetarli tayyorgarlik bilan faol katnashadigan kishilar bo'lib yetishishlari kerak. Bu tadbirlarni amalga oshirishda bosh tarbiyachilar, sinf raxbarlari va ota-onalar musiqa o'qituvchisiga yaqindan yordam berishlari zarur. Darsning har bir faoliyat turida doirachalar, shaqildoqlar, uchburchak, metallafon kabi turli bolalar musiqa asboblari chalish, kuy va qo'shiqlarga mos raqs elementlarini bajarish, musiqa asboblari chalinishini qo'l harakati bilan imitatsiya qilish, chapak chalish va dirijyorlik qilish kabi elementlardan keng foydalanish darslarni yanada qiziqarli va jozibali bo'lishini ta'minlaydi.

III. Musiqa darsi boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun musiqa darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi:

1. U musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal-xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir.
2. Musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'zi bilan, tasviriy san'at ranglar bilan, raqs san'ati harakat bilan ifodalansa, musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Yuqoridagi san'at turlarini ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz. Shuning uchun, ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqan.
3. Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. Shuning uchun, ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asarni qayta-qayta tinglaganda uning yangi-yangi badiiy qirralarini xis etamiz.

4. Musiqa bolalarga aktiv emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsidan bolalar xordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo'lib chiqadilar. Xullas, musiqa darsi o'zining aktiv psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Shuningdek, musiqa darsi boshqa fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Tasviriy san'at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musiqa darsini hayot bilan boglashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi. Musiqa darsi o'zining aralash dars tipi bilan ham, boshqa fanlardan farq qiladi.

IV. Musiqa darsining strukturasi 3 asosiy faoliyat turidan: musiqa tinglash, musiqa savodi va xor bo'lib qo'shiq kuylashdan iborat. O'rta sinflarda musiqa darsi 3 ta asosiy faoliyatlardan tuziladi:

1. Xor bo'lib kuylash
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglashdan iborat

Boshlang'ich sinflarda esa dars faoliyatlari 5 ta bo'ladi:

1. Xor bo'lib kuylash.
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglash
4. Musiqaga mos harakatlarni bajarish
5. Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lishdan iborat bo'ladi.

Xorda kuylash - musiqaviy tarbiyaning jamoa faoliyati sifatida o'qituvchining bevosita ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Xorda kuylash murakkab psixologik va fiziologik jarayondir. Bunda bosh miyadagi nerv xujayralari ham faol ishga tushadi. U qo'shiq kuylash davomida o'quvchilarda ijobiy xis tuyg'ularning faolligini ta'minlaydi hamda o'quvchilarning samarali ishlashiga sharoit yaratadi.

O'qituvchi sinf imkoniyatlarini hisobga olgan xolda yil davomida o'rgatish uchun 10-12 ta qo'shiq tanlaydi va ularning vokal-ijrochilik darajasi va badiiy mazmuni maktab hayotiga mosligini inobatga olib, ularning ma'lum tartibga soladi.

O'quvchilarning quyi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi, bu malakalar ashulaning to'g'ri va ta'sirli aytilishini taminlaydi, bolalar ovozinig yaxshilanishiga va parvarish qilinishiga yordam beradi. Bolalarning ovoz apparatlari, musiqa o'quvi yoshiga qarab o'sadi. Shuning uchun ashula aytish malakalari, ovozning asosiy elementlari: nafasni rejaga solish, tovush hosil qilish, diktsiya, soz, ansambl dasturda har qaysi o'quv yili uchun alohida-alohida beriladi. Ta'lim jarayonida bu elementlarning hammasi bir-biriga uzviy bog'lanib boradi.

Musiqa savodi – ma'lumki, umumiy ta'lim maktabi musiqa darslari tarkibidagi musiqa savodi o'zining musiqa haqidagi kompleks bilimlar doirasidan iboratligi bilan farq qiladi. Ashula aytish jarayonida o'rganiladigan nota savodi elementlari bilan birga musiqa savodi turkumiga musiqa janrlari, ularning shakl va tuzilishlari, ifoda vositalari, xalq va kompozitorlik musiqasining mohiyati haqidagi tushunchalar, ijrochilik turlari, cholg'u asboblari va ularning tovush temblari va boshqalar kiradi.

7-yillik musiqa ta'limi va tarbiyasi jarayonida mazkur bilimlar majmuasi asosida o'quvchilarning musiqa savodxonligi tarkib topishi lozim. Bu musiqa madaniyatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Musiqa tinglash – o'quvchilarning musiqiy ta'asurotni boyitish, tasavvurini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o'stirish va musiqiy didini tarbiyalashda darsning musiqa tinglash faoliyati katta rol o'ynaydi. Darsning bu faoliyat turida o'quvchilar musiqa o'qituvchisi ijrosida, elektrofon, magnitofon yordamida eng nodir musiqa asarlarining namunali ijrosini tinglaydilar. Xor, orkestr, ansambl va yakkanaovozlar ijrosida turli janrdagi klassik asarlar bilan tanishadilar, san'atning katta dargoxiga ilk bor qadam tashlaydilar. Musiqaning san'at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat va hayot go'zalligini voqelik va xatti-harakatlardagi qaytarilmas, ko'z ilgamas qirralarini musiqiy ohangdagi rang-barang bo'yoqlarda idrok etadilar, chuqurroq xis etadilar. Kuylar o'quvchilarning xotirasida chuqur o'rnashib qolishi uchun bu kuylarning ohanglarini o'quvchilar bilan kuylab ko'rish tavsiya etiladi. Ayniqsa, asar musiqa asbobi ijrosida tinglanib, so'ng kuylab ko'rish orqali qayta mustahkamlanadi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, asarlarni yaxshi esda qoldirish uchun kamida 2-3 marta eshittirish, har gal kuyning yangi-yangi dinamik qirralari bilan o'quvchilarni tanishtirib borish lozim. Kuylarni tinglash bilan o'quvchilar musiqaning turli janrlari - marsh, qo'shiq va raqs haqida batafsil tushunchaga ega bo'ladilar. Darsning har uch asosiy qismi alohida-alohida ajralib qolmasligi, aksincha ular bir-biri bilan uzviy bog'liq xolda darsning mazmuni bir butun bo'lishini ta'minlashi lozim. O'quvchilarning ijrochilik mahoratini takomillashtirish va ularning o'zaro uygun kuylashini mustahkamlashda ba'zan ularni (sinf saxnasi)ga chiqarib kuylatish samara beradi. Qo'shiq tugal o'rganib bo'linganch, xaftada yoki chorak oxirida o'quvchilar «Sinf kontserti» beradilar. Saxnaga chiqish, sinfdoshlari orasida o'z o'rnini topib turish, kuylaganda bir-birlarini xis qilish va o'z joyiga borib o'tirish kabi saxna madaniyatiga qat'iy amal qila borish o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga va xulqiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. «Saxnada» kuylash o'quvchilarning qo'shiqni qay darajada o'rganib olganligini aniqlash, asarning ayrim jumllarini «Pishitib» olish va qo'shiqni tantanali sharoitda namoyish qilish imkoniyatini beradi. «Sinf kontserti» o'quvchilar uchun cheksiz quvonch baxsh etuvchi mashg'ulotga aylanadi.

Tayanch tushunchalari:

Musiqa savoili - musiqa nazariyasi haqida boshlangich ta'limot.

Musiqa tinglash - maktabdagi musiqa darsining bulimlaridan biridir; hayotdagi va ayniqsa san'atdagi go'zallikni idrok etish asosida estetik xislarni tarbiyalashda zo'r ahamiyatga ega bo'lib estetik muxohama, tushuncha va did-zavq tarkib toptirishda xal qiluvchi.

Xor- (yun- choros) - vokal, xor musiqasini aytuvchi ijrochi jamoa.

Dars – o'quv tarbiya jarayonida tahsil maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ta'lim shakli

Nazorat savollari:

1.Musiqa darsining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

2. Musiqa darsi qanday xususiyatlarga ega va qanday fanlar bilan bog'liq?
3. Zamon talabi asosida musiqa darsi qanday bo'lmog'i kerak?
4. Musiqa darsining strukturasi qanday faoliyatlardan iborat?

Mavzuni mustahkamlashga doir mustaqil ish namunalari

1. Davlat ta'lim standartiga Sharq «Musiqa madaniyati» Ta'limning maqsad va vazifalari Mualliflar: D.Omonullayev, I.Botirov (Tayanch maktab)
2. «Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari» (Musiqa)
3. «O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiya kontsepsiyasi» (Musiqa 1995 yil 24 may)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.Omonullayev, Y.Botirov. Davlat ta'lim standartiga Sharh. «Musiqa madaniyati». Ta'limning maqsad va vazifalari
2. D.Omonullayev, X.Nurmatov, K.Mamirov va boshq. «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi»
3. Ye.A.Gudkova. A.B.Vasileva. Ashula darslari metodikasi
4. Dmitriyeva G. Chernoi vanova «Методика музыкального воспитания в школе»
5. Dastur T., 1997y. «Musiqa tarbiyasi metodikasi»
6. Apraksina «Методика музыкального воспитания в школе»
7. N.Y.Tursunov, U.N.Nishonaliyev. «Pedagogika kursi»
8. N.V.Savin «Pedagogika»

II-BOB. MUSIQA DARSLARINING UMUMDIDAKTIK PRINTSIPLARI VA METODLARI. MUSIQA DARSLARINI REJALASHTIRISH 1-MAVZU: Musiqa darslarida umumdidaktik printsiplari REJA:

- 1. Didaktika to'g'risida tushuncha**
- 2. Musiqa ta'lim-tarbiyasining maqsadi va vazifalari**
- 3. Musiqa ta'limining printsiplari**

1. Didaktika taiirn jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganiivchi qismidir. Didaktika grekcha so'z bo'lib, «didayko» - o'qitish. «didaskoya» - o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. «Didaktika» - ning so'zma-so'z tarjimasi ta'lim nazariyasini anglatadi. Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayonining tushunchasi va mohiyatini, ta'lim qoidalarini, uslublari hamda tashkiliy formalarini o'z ichiga oladi. Didaktika o'z oldiga o'qitishning o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarini bilib olish vazifasini qo'yadi. Ta'limning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Demak, didaktika «nimaga o'qitish». «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi. Umumiy didaktika esa o'z navbatida, ayrim o'quv fanlariga oid usullar bilan juda mustahkam bog'lanadi.

Shu usullar mo'lumotiga tayanib, o'qitishning umumiy qonuniyatlarini yechib boradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi. Musiqaviy didaktika, uning birlashtiruvchi vazifasi hamda uning xususiy didaktikalar va musiqiy ta'limning mavzuliyl metodikalari bilan bog'liqdir. Musiqaviy didaktikaning asosiy kategoriyalari: musiqiy ta'limning jarayoni, printsiplari, mazmuni, usullari, shakllari. Musiqiy ta'lim mazmuni umumiy madaniyatining rivojlanishiga va jamiyatning musiqa san'atiga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq. Shuning uchun musiqiy ta'lim mazmuniga kiruvchi musiqiy bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, musiqa materiallari, ta'lim usullari va shakllarini sistemalashtirish lozim. Musiqa sabog'i tarbiyalovchi shaxsning badiiy tafakkurini shakllantiruvchi ta'lim sifatida muhimdir. Uning vositasida nafosat tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga yosh avlodda oliy insoniy fazilatlar tarkib toptirish nazarda tutiladi. Bunda milliy va umumbashariy musiqa ta'limshunosligi hamda o'qitish uslubiyotiga tayanish lozim. Musiqa ta'lim tarbiyasi mazmunida esa milliy musiqa merosimiz asosiy o'rin tutadi. Milliy musiqasimiz qonuniyatlariga qiyoslab, o'zga xalqlar musiqa madaniyati bilan tanishishi, ya'ni «ta'limda umuminsoniy va milliy - madaniy qadriyatlarning ustuvorligi» ga amal qilish musiqa o'qitishning muhim didaktik yo'nalishi hisoblanadi.

2. Musiqa ta'lim-tarbiyasining maqsadi yosh avlodni milliy musiqa merosimizga qila oladigan hamda umumbashariy musiqiy qadriyatlarni idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir. Buning uchun har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr ishtiyoqini oshirish, musiqadan bilim va amaliy malakalar doiralarini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarni musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, maktab musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasidir. Mazkur oliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish-musiqa faniga jamiyatni madaniy - ahloqiy rivojlantiruvchi omil sifatida qarash, predmet muammolarini xalq etishda keng o'qituvchilar ijodkorligiga tayanish, musiqa o'qitish uslubiyotini ilgari tajribalar va kompleks ilmiy-metodik izlanishlar natijasi asosida takomillashtirish talab etiladi.

Ta'lim jarayoni ikkita shaklda, dars va sinfdan tashqari musiqiy mashg'ulotlar tarzida amalga oshiriladi. O'qitishning asosiy va barcha o'quvchilar uchun zaruriy shakli musiqa darslaridir. Shu bois dars tuzilishlari va o'qitish usullarining xilma-xil shakl va turlarini qo'llash hamda tajriba jarayonida darsning yangi usul va tuzilmalarini kashf etish dolzarb masala bo'lib turadi. Bundan ko'proq Sharq va milliy musiqa ta'limshunosligini o'rganishi va undan unumli foydalanish muhimdir.

3. Ta'lim printsiplari jamiyat ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib pedagogika nazariyasi va amaliyoti yutuqlariga ko'ra o'zgarib takomillashib boradi. Tarixda ta'lim printsiplarini aniqlash bo'yicha turlicha yondoshuvlar mavjud bo'lgan. Masalan: XVI asrda Ya. A. Komenskiy ta'lim printsiplarini tabiatga qiyoslab o'rganishni ya'ni o'quvchilarga tabiat kuynida bevosita ta'lim berishni, tabiatda qanday mutanosiblik bo'lsa, ta'limda ham xuddi shunday mutanosiblikka erishishni taqlif etadi. XVII-XVIII asrlarda madaniy jihatlardan mutanosiblikka erishish printsiplari ilgari suriladi. Hozirda ta'limning ilmiylik printsiplari, o'quvchilar imkoniyatlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish printsiplari, ko'rgazmalilik printsiplari,

ta'limda muntazamlilik va davomiylik printsiplari, ta'limning hayot bilan bog'liqligi, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi va ongliligi, ta'lim va tarbiyaning tarbiyaviy xarakteri kabi ko'pgina printsiplari mavjud. Musiqa darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va printsiplari, ta'lim amaliyotining umumlashma nazariyasi asosida tuziladi.

Mazkur printsiplar asosan, o'quv materiallarning qo'llash, musiqa darsini mazmunini va darsning tizimidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi va bir necha turga bo'linadi:

1. Musiqa darslarida bilim va malakalarining mustahkamligi
2. Musiqa ta'lim va tarbiyasida ilmiylik sistemalash va davomiylik
3. Darsda o'quvchilarning onglilik va faolliligi
4. Musiqa darslarida ko'rgazmalilik

O'quv materiallarining bolalar bilim - malakalariga va yosh xususiyatlariga mosligi, rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Ta'lim mazmunini o'quvchilarni haqqoniy ilmiy dalillar tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Buning uchun o'quv mazmuniga faqat ilmiy asoslangan, tajribada tasdiklangan, o'quv musiqa fani va musiqa fanining mazmuni orasidagi qonuniy aloqalarga asoslangan ilmiylik printsiplari qo'llash darkordir. Nazariy bilimlarning amaldagi qo'llanilishi, nazariy bilimlarning amaliy bilimlar bilan bog'liqligi har bir o'qituvchining axborotida sezilib turishi kerak. Musiqa fani bo'yicha yangiliklari doimo izohlanib borilishi darkor. Bevosita dars davomida ilmiylik printsiplari faqat ilmiy axborotni berish bilan chegaralanmaydi. Axborot, ilmiy qaydnomalarning qayerdan kelib chiqqanligi, sabab, natijalarning tahliliy, tarixiylik printsiplari qo'llash ham ilmiylik printsiplari ta'minlaydi. Dars jarayonida o'quv materiallarining bolalarni bilim tajribasiga mosligi, bolalar ovozinin rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asarlarni bolalarning fikriy qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish darsning ilmiylik printsiplarini tashkil etadi. Boshlang'ich sinflarda kichik bolalar tafakkorligiga xos va ko'proq o'yin bilan bog'liq bo'lgan kichik qo'shiqlar, kuy va p'esalar o'rgatadilar. O'rta sinflarda esa o'quvchilar hayotiy tajribalari boyigan, konkret fanlarni o'rganish jarayonida ilmiy dunyoqarashlari tarkib topayotgan davr bilan farq qiladi. Shunga muvofiq o'rganiladigan asarlar ham janr, xajm va badiiy mazmun jihatidan tobora jiddiylashib borishi sistemalilik printsiplari deyiladi.

Musiqa darslari xorda kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash kabi asosiy musiqiy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Darsning asosiy faoliyat turlarini darsning mantiqiy yaxlitligidan ajratmagan xolda quyidagilarga e'tibor beriladi. Bu esa darsdagi barcha musiqiy faoliyatlar jarayonida o'zluksiz amalga oshirib, darsning har bir faoliyati o'z navbatida borishi davomiylik printsiplari deyiladi.

Ta'limda onglilik va aktivlik printsiplari amalga oshirish ham bilish jarayonining psixologik asoslariga to'la tutashtiriladi. Tartib va qoidalar yaxshi o'zlashtirilsa-da, ayrim xollarda shu bilimlarni bevosita qo'llash jarayonida o'quvchilar kiynalishi mumkin. Ba'zan ular oddiy masalalarni yecha olmay qolishadi. Demak, o'quvchi materialni tushunib yetmasdan shunchaki, yodlab olgan. O'quvchilar olgan bilimlarini amaliy hayotda foydalana olishlari uchun ta'lim berish

jarayonini aktiv fikrlash jarayoniga aylantirish kerak. Buning uchun, bolaning o'quv materiallarini ongli ravishda bilib o'zlashtirishi bilish jarayonini aktivligini vujudga keltirishi lozim. Ma'lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy estetik, zavqlanib, idrok etishda, bolaning eng avvalo, diqqat-e'tiborini jalb eta bilish unda qiziqish uyg'ota bilish, onglilik va aktivlikni vujudga keltiradi. Musiqani ongli idrok etish o'z navbatida badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg'un saqlanishni talab etadi. Musiqa darsida onglilik va aktivlik ayniqsa, vokal-xor malakalarini shakllantirilishi uchun zarurdir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi faoliyatlarida ham onglilik va aktivlik musiqani nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri bilish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Ta'limda, ko'rgazmalilik printsiPGA amal qilish o'quv-tarbiya jarayonining asosini tashkil etadi. Ta'lim va tarbiyada ko'rgazmalilikdan foydalanish haqida Al Farobiy ko'pgina ibratli so'zlarni aytib qoldirgan. Farobiyning fikriga qaraganda o'quvchilarni, shogirdlarni uch toifaga bo'lish mumkin:

Birinchi toifasi – o'quv materialini o'zari mustaqil o'rgana olishadi. Uchinchi toifadagilarni majburlab, zo'rlab o'qitish kerak, deydi. Va nihoyat ikkinchi toifa talabalarga ta'lim berishda ko'rgazmalilikdan foydalanib o'quv mehnatini jadallashtirish va bir muncha osonlashtirish imkoniyati tug'iladi. Ko'rgazmalilik printsiPGA amal qilinganida eshitish organlari bilan bir qatorda ko'rish organlaridan ham foydalaniladi.

Musiqa tarbiyasida musiqaning o'zi-o'ziga ko'rgazmali vositadir. Chunki, u qo'li bilan emas balki quloq bilan idrok etiladi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham ohang ko'rgazma sifatida chalib ko'rsatiladi. O'qituvchining o'zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, texnik vositalar, ko'rgazmali kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari ham, musiqa darsida ko'rgazma sifatida muhim rol o'ynaydi. Mazkur printsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash musiqa darsini mazmunini va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi.

Xulosa, qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik printsiplari, musiqa madaniyati darslarida muhim ahamiyatga ega bo'lib musiqani hayot bilan bog'lashda katta ahamiyat kasb etadi.

Tayanch tushunchalar:

Didaktika - (grekcha «didaktikos» so'zidan olingan bo'lib, o'rnak, saboq,bo'lishlilik kabi mazmunlarni anglatadi) - pedagogikaning ta'lim jarayonida tarbiyalash nazariyasini ishlab chiqadigan qismi hisoblanadi.

O'rgatish - organizmning tug'ma reaksiyalariga to'g'ri kelmaydigan va undan oldingi faoliyatlar natijasida vujudga keladigan faoliyatlar hamda bilimlarni mustahkam holatda o'zgarishidir.

O'rganish – ta'lim jarayonining tarkibiy tuzilishlarida o'quvchining shaxsiy faoliyati.

Printsip - tamoyil.

Nazorat savollar:

1. Didaktika to'g'risida tushuncha bering.
2. Musiqa t'lim-tarbiyasining maqsadi va vazifalari qanday?
3. Umumdidaklik printsiplarining qanday turlari mavjud va ularning musiqa darsida qo'llanilishi?

Mavzuni mustahkamlashga doir mustaqil ish namunalari

1. A.Navoiyning «Mahbubul qulub» asrini o'qib undan maktab, muallim va o'qitish usullari haqidagi o'rinlarini biling.
2. «Boburnoma» asarini o'qish va tahlil qilish.
3. Yan Amos Komenskiy. «Buyuk didaktika». 1975 y.
4. Mirzo Ulug'bek. «To'rt ulus tarihi». T., 1994 y.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.Omonullayev. «Umumiy ta'lim maktablarida musiqa dasturlari» T.,1992y.
2. I.Y.Tursunov., U.N.Nishonaliyev. «Pedagogika kursi»
3. Majidov J., Rajabov R. «Maktabda musiqa ta'limi samaradorligini oshirishning didaktik asoslari» T., 1990 y.
4. Yo'ldoshev S. «O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limning rivojlanishi» T., 1985y.
5. Dastur T.,1997y.«Musiqa tarbiyasi metodikasi»
6. A.Xasanboyeva., J.Xasanboyev., X.Xamidov. «Pedagogika tarixi»

2-MAVZU: «Musiqa o'qitish metodlari»

REJA:

1. Ta'lim metodlari to'g'risida tushunchalar va ularning tasnifi
2. Musiqa o'qitish metodlari
3. Musiqa o'qitishning optimal metodlari va ularning turlari
4. O'quvchilarning o'quv faoliyatini aktivlashtirish metodlari

Ta'lim metodi bu o'qituvchi va o'quvchining tartibga solingan o'zaro aloqadagi usuli, o'qitish jarayonida ta'lim va rivojlanish masalalarini xal qilishga qaratilgan faoliyatdir. Metod (yunoncha atama-aynan nimagadir yo'l) maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Muayyan ma'noda tartibga solingan faoliyat. O'qitish metodlari o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Faoliyatning tegishli metodlarisiz ta'limning maqsad va vazifalarini o'quv materialining muayyan mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishga erishib bo'lmaydi. Usullar axborotni o'zlash va qabul qilish xarakter iga qarab so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyga bo'linadi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim faoliyatini xarakteriga munosib ravishda quyidagi usullar: tushuntirish - ilyustrativ (informatsion retseptiv) reproduktiv, muammoli bayon,

xususiy kidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot va tadqiqot usullari qo'llanishi mumkm.

Metodlar asosiy guruhlarining har biri o'z navbatida guruhchalar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv- bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o'zi o'zlashtirish, qabul qilish, anglash, o'quv informatsiyalarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga so'z orqali qabul qilish melodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va b.), o'quv informatsiyasini ko'rgazmali o'zlatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va b.) o'quv informatsiyasini berish va uni taktil, kinestezik qabul qilish (amaliy metodlari: mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va b.) kiradi. Ta'limning og'zaki metodlariga hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar kiradi. Bu metodlarning qo'llanishida o'qituvchi so'z vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o'quvchilar esa tinglash, eslab qolish va anglash orqali uni faol qabul qiladilar va o'zlashtiradilar.

Hikoya. Ushbu metodda, o'quvchilarga savol bilan bo'linmasdan, o'quv materialini mazmunini og'zaki bayon qilish ko'zda tutiladi. Hikoyaning bir necha turi bo'lishi mumkin - hikoya - muqaddima, hikoya-bayon, hikoya-xulosa.

Birinchisining maqsadi – o'quvchilarni boshqa metodlar bilan, masalan, suhbat orqali yangi o'quv materialini qabul qilishga tayyorlashdir. Hikoyaning bu turi nisbatan bayonning qisqalig, yorqinligi, qiziqarliligi va emotsionalligi bilan xarakterlanib yangi mavzuga qiziqish, uni faol o'zlashtirishga extiyoj uyg'otadi. Mana shunday hikoya vaqtida darsda o'quvchi faoliyatining vazifalari to'g'risida tushunarli shaklda xabar beriladi.

Hikoya - bayon davrida o'qituvchi yangi mavzuning mazmunini ochib beradi, muayyan rivojlanuvchi reja, asosiy, muhimlarini ajratib, ilyustratsiya va ishontirarli misollarni izchil bayon qilishni amalga oshiradi.

Hikoya - xulosa odatda mashg'ulotning oxirida keltiriladi. O'qituvchi unda asosiy fikrni yakunlaydi, xulosalaydi va umumlashtiradi, mazkur mavzu yuzasidan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi.

O'quv lektsiyasi (ma'ruza) ta'limning so'z bilan ifodalash metodlaridan biri sifatida o'quv ma'ruzasini o'quv materialini og'zaki bayon qilishini ko'zda tutib, hikoyadan o'zining xajmining kattaligi, mantiqiy ko'rilish, obraz isbotlash va umumlashtirishining murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma'ruza butun dars yoki mashg'ulotni band etadi, hikoya esa faqatgina uning bir qismini egallaydi.

Ma'ruza davomida informatsiyani og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarning fikrlashini faollashtirish usullari, argumentlashtirish, isbotlash-tisniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va x.k. usullardan foydalaniladi.

Ma'ruzalar asosan o'rta maktablarning yuqori sinflarida, shuningdek, texnikum va oliy o'quv yurtlarida o'qiladi. Ma'ruza rejasini aniq o'ylash va ma'lum qilish zarur. Reja bandlarining barchasida, ularning har birining yakun va xulosalarini izchil bayon qilishda mantiqiy uyg'unlik bo'lmog'i kerak. **Suxbat.** Suxbat metodi atroflicna uylangan savollar yordamida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi

suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchini faktlar tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi. Suxbat metodining qo'llanishida savollarning kuya olish usullari (asosiy, qo'shimcha, yo'llovchi va x.k.) o'quvchining javob va muloxazalarini muxokama, qilish usullari, suhbatdan xulosalarni shakllantirish usullari, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlarini shartli ravishda ikki katla guruhga bo'lish mumkin: ilyustratsiya va namoyish qilish metodlari. ilyustratsiya metodi, o'quvchilarga ilyustratsiya qo'llanmalar - plakat, harita, doskadagi rasm, kartina, olimlarning portretlari va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi. Namoyish qilish metodi odatda asboblari, tajribalar, texnik ko'rilmalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish metodiga shuningdek, kinofilm va diafilmlar ko'rsalishni ham kiritishadi. Ko'rgazmali vositalarning ilyustrativ va namoyish qilish bo'linmalari o'qitish amaliyotida tarixiy shakllangan.

Ta'limning amaliy metodlari o'quv faoliyatining xilma-xil turlarining keng doirasini kamrab oladi: amaliy metodlaridan foydalanishda quyidagi usullar qo'llaniladi: vazifani qo'yish, uni bajarilishni rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, jadal ragbatlantirish, tartibga solish va nazorat, amaliy ish natijasini tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga tulik erishish uchun ta'linga tuzatish kiritib borish.

Ta'limning muammoli - qidiruv metodlari amalda ta'limning so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyot metodlari yordamida qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda o'quv materialini mukammal bayon qilish metodlari, muammoli va evrestik suhbatlar, muammoli kidirish tipidagi ko'rgazmali metodlarni qo'llash, muammoli qidiruv amaliy ishlarni o'tkazish yoki xatto tadqiqot tipidagi ishlar to'g'risida gapirish mumkin. O'quv materialini muammoli va muammoli tuzilgan ma'ruza metodlari orqali bayon qilish o'qituvchining bayon davomida muloxaza yuritish, isbotlashi, umumlashtirishini, faktlarni tahlil qilish va tinglovchi fikrini o'z ortidan ergashtirishi, uni faolroq va ijodiyroq qilishni ko'zda tutadi.

Muammoli ta'lim metodlaridan biri evristik va muammoli qidiruv suhbatlari hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar oldiga qator izchil va o'zaro bog'langan savollarni qo'yadi. O'quvchilar ularga javob berganda qandaydir shakllarini aytadilar. Aytganlarining to'g'ri ekanligini mustaqil isbotlashga harakat qiladilar. Bu bilan birga yangi bilimni o'zlashtirishda mustaqil ravishda o'zlarining oldinga siljishini amalga oshiradilar.

Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi – o'qituvchining va ta'lim olayotgan o'quvchilarning faoliyatining yigindisidan iborat. Bu jarayon o'qituvchi tomonidan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, doimo dinamik tarzda o'zgarib boradi. Ta'lim davomida ta'lim olayotganlarning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Musiqasi darsida o'qituvchi o'quvchilarni musiqani idrok etish jarayonida, bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi uslublarni qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida vositachi hamdir. Chunki, aynan bir metod bilan o'qituvchi o'rgatadi, o'quvchilar o'rganadi.

Musiqaning o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarining bilim, mahorat va malakalarni egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'llagan ish usullari tushuntiriladi. Bu metodlar, bir necha turga bo'linadi:

1. Musiqa o'qitish og'zaki metodlari: a) hikoya, b) suhbat, v) tushuntirish
2. Ko'rgazma o'qitish metodlari. Bunda nota yozuvlari, plakatlar, dirijyorlik harakatlari, raqs, musiqani jonli va aniq ijro etilishi, ritmik sur'ati ko'rsatiladi.
3. Amaliy metodlar: Amaliy metodlar vositasida vokal-xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlili, musiqaga mos qadam tashlash, chapak chalish harakatlarini bajarishlar, qo'shiq kuylash jarayonida ifoda etiladi.
4. O'yin metodi: o'yin metodi asosan boshlang'ich sinflarda qo'llaniladi. O'yin metodi o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini, nutqini, xotirasini, qiziqishini psixologik-fiziologik xususiyatlarini rivojlantiradi.
5. Taqqoslash metodi: Bu metod vokal-xor ishlarida, musiqa asarlarining tahlil va janrlarni belgilash (qo'shiq, raqs, marsh) musiqa tinglash jarayonida qo'llaniladi.
6. Musiqiy o'quv bosh bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodi: Musiqiy o'quv bosh bo'lgan o'quvchilar bilan dars jarayonida differentsional guruhlariga bo'lib va darsdan tashqari vaqt ajratib, yakka tarzda ish olib boriladi. Darsdan tashqari jarayonida alohida qo'shiqlarni o'rganib, topshiriqlar beriladi.

III. Davlatimiz va Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan talab maktablarda o'qitish jarayonini jaxondagi rivojlangan buyuk davlatlardagidek har tomonlama jaxon talablariga javob beradigan tarzda darslarni tashkil qilish. Har bir darsda ta'limning optimal usullarini qo'llashga erishishdir. Musiqa tarbiyasi vazifalarini amalga oshirish, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini bir butun sistemasi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki, o'qitish jarayonida o'qituvchi ham, o'quvchi ham ma'lum bir funktsiyani bajaradi. Optimal (xususiy) metodlar o'qitish faoliyati va maqsadga qarab 4 ga bo'linadi:

1. Darsning musiqaviy umumlashtiruvchi metodi
2. Utilajak darslarga oldindan «yugurib», bog'lanib o'tish va ilgari utilganlarga qaytish metodi.
3. Dars mazmunini emotsional dramaturgiyasi metodi
4. Darsning pedagogik jihatdan ko'zatilishi va bilimlarni baholash metodi. O'qituvchidan o'qitishning optimal usullarini tanlash va o'quvchilar aktivligini oshirish uchun quyidagilarga amal qilish talab etiladi:

1. Musiqa o'qitishning umumiy maqsadi hamda har bir darsning konkret maqsad va vazifalarini belgilash. Yosh avlodning milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatni inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir. O'zbek musiqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega. Uning mazmuni xalqimizning milliy ruxiyati oliy insoniy fazilatlarini, badiiy ma'naviyati istiqloq va mustaqillik uchun kurashi hamda orzu-umidlari inkor etiladi. Bu buyuk manaviyatimiz yosh avlodning madaniyati va milliy tafakkurini shakllantirishda benazir vositadir. O'qituvchining darsi ma'lum maqsadlarga qaratiladi. Darsning to'limiy va tarbiyaviy maqsadini to'g'ri belgilash

o'quvchilar faoliyatini aktivlashtirishning muhim sharti sanaladi. Chunki, darsning maqsadidan o'quvchilar oldiga qo'yiladigan maqsad ham kelib chiqadi.

2. Ta'lim jarayonida o'quvchilar aktivligini oshirishning yaria bir muhim omili - dars strukturasini to'g'ri belgilashdir. Ko'p xollarda ba'zi o'qituvchilar darsning strukturasini to'g'ri belgilay olmaganliklari sababli qiyinchiliklarga duch kelayotirlar.

3. O'quv materialining xarakteri, o'quvchilarning yosh xususiyati va sinfning real o'quv imkoniyatlaridan kelib chiqib, ta'limning eng ma'qul metodi tanlanadi. Bunda o'quvchilardan mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyat ko'rsatish talab qilinadi.

4. O'qitish ishida ta'limning individual, grupp va kollektiv formalarini qushib olib boorish, o'quvchilarga differentsial munosabatda bo'lishning ahamiyati katta. Dars jarayonida biz ta'limning ana shu formalaridan unumli foydalanamiz. Chunki, ta'limning ana shu formalarini birga qushib olib borish orqali o'quvchilar faoliyatini aktivlashtirishga erishiladi. Individual ish formasida har bir o'quvchida mustaqil fikrlash, qo'yilgan problemani mustaqil hal qilish talab etiladi.

5. Muammoli o'qitishni tashkil qilish. – O'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yilgan muammoni ijodiy isbot qilishga harakat kilsinlar. 6. Dasturlashtirilgan o'qitish, ya'ni o'quvchilar qobiliyatiga qarab har bir o'quvchi uchun ma'lum dastur - vazifa tuzish, ularni asta - sekinlik bilan chuqurlashtirib, mustahkamlab borish. Nazariy masalalarni EXM orqali amalga oshirish. Shunday qilib, musiqa mashg'ulotlarida o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish, darsning maqsadi va strukturasini to'g'ri belgilash, diqqat va e'tiborni o'quv materiallarining asosiy qirralariga qaratish, tema xarakteriga muvofiq keladigan ta'lim metodi va metodik usullarni tanlash, o'qitishning individual, gruppali va kollektiv formalarini birga qushib olib borish, differentsial ta'lim imkoniyatlaridan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega. Darsda ta'limning ana shu vositalariga amal qilish orqali o'quvchilarning musiqada yuqori o'zlashtirishga erishib kelinmokda.

IV. Agar ta'lim jarayoni o'quvchida faol harakat, bilim va ko'nikmalar orttirish ishtiyoqini uyg'otsagina samarali kechadi va sifatli natijalar beradi. O'quv faoliyati bunday tashkil qilish uchun uning barcha usullari – og'zaki, ko'rgazmali va amaliy, reproduktiv, qidiruv, induktiv hamda didiktiv, shuningdek, mustaqil ish usullaridan foydalaniladi. Ta'lim jarayonida rag'batlantirishning asoslash vazifasini utaydigan bu usulni shartli ravishda ikki guruhga, o'quvchilarning bilish ishtiyoqini uyg'otuvchi hamda ta'limda burch va ma'suliyat tuyg'usini shakllantiruvchi usullardan iborat guruhga ajratish mumkin. Bu jarayonda o'quv faoliyati, uning mazmuni, shaklli va amalga oshirish usullariga munosabatda ijobiy usullariga munosabatda ijobiy xislatning yuzaga kelishini ta'minlash muhimdir. Xislat holat, doimo ruxiy to'liq iztirobi bilan hozirjavoblik, hamdardlik, quvonch, gazab, xayratlanish o'zaro bog'liqdir.

Shuning uchun ham diqqat, eslab qolish, anglash jarayonlariga bunday holatda o'quvchining chuqur ichki kechinmalari qushiladiki, bu jarayonni qizgin kechadigan qiladi va maqsadga erishish ma'nosida ancha samarali bo'ladi.

Ta'limni xissiy rag'batlantirish usullaridan biri, darsda qiziqarli vaziyatni yaratishdir. Bunda gap o'quv jarayoniga qiziqarli misollarni, tajribalarni, faktlarni kiritish ustida boradi.

O'quv faoliyatiga qiziqishning asosiy manbai, avvalo, uning mazmunidir. Bu mazmun kuchli rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish uchun ta'lim printsiplari qator talabalarga javob berish lozim. Bunda ta'lim mazmunining rag'batlantiruvchi ta'sirini oshiradigan ayrim maxsus usullari ham mayjuddir. Ularga birinchi navbatda yangilik va dolzarblik vaziyatlarini yaratuvchilik mazmunini, fan hamda texnikaning eng muhim kashfiyotlarini zamonaviy madaniyat, san'at, adabiyot yutuqlariga, ijtimoiy-siyosiy va xalqaro hayot xodisalariga yaqinlashtirishni kiritish mumkin. Ana shu maqsadda mamlakat jamoatchiligida alohida qiziqish uyg'otayotgan, vaqtli matbuotda e'lon qilinayotgan, televideniye va radio orqali berilayotgan faktlar, rasmlarni maxsus tanlaydi. Ana shundagina o'quvchilar darsda o'rganilayotgan masalalarning muhimligini yorqin va chuqur xis qiladilar va shunga asosan unga katta qiziqish bilan yondashadilar.

O'quvchilarni takdirlash ular xulqi va o'quv faoliyatidagi ijobiy jihatlarni qo'llab-quvvatlash doirasi nixoyatda xilma-xildir. O'quv jarayonida - bu o'qituvchining maqtovi, yuqori baho qo'yish va boshqalardir. Jazolashning tanbex va boshqa turlari ta'lim asoslarini shakllantirishda istisno etiladi, odatda bu usul faqat ilojisiz vaziyatlardagina qo'llaniladi. Rag'batlantirishning usullarini mohirona qo'llash ishigina o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlashi mumkin.

Ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini nazorat qilish alohida ahamiyatga ega. Shu xususda og'zaki savol-javob shakli an'anaviy usullardan biri hisoblanadi. Og'zaki savoldan javob o'quvchilarni hozirjavoblikka tayyorlaydi, mantiqiy javobni tezda fikran tayyorlab so'zlarda ifoda qilish ko'nikmasini hosil qiladi. Og'zaki savol-javob yakka-yakka va yoppasiga so'rash orqali amalga oshiriladi. Yakka o'quvchidan suralganida o'qituvchi o'quvchiga bir nechta-savol beradi. O'quvchining javoblaridan o'quv materialining qanchalik o'zlashtirilganligi ma'lum bo'ladi. Butunicha sinf yoppasiga suralganida o'qituvchi o'zaro mantiqiy bog'langan qator sinf oldiga qo'yadi, o'quvchilarni javob berishda aktivlikka chaqiradi. Og'zaki savol-javob o'quvchilar og'zaki nutq madaniyatini o'stiradi. Ularni so'zamollikka, ravon adabiy so'zlar ishlatib mantiqiy javob axtarishga, shakllangan bilimlarni so'zlarda ifodalashga o'rgatadi.

Ko'p xollarda nazoratning yozma shakli o'quvchilar ichki sir-asrorlarini, kechinmalarini, yashirinib yotgan iste'dodlarini ochish imkonini beradi. Bu usul yozma sinovni 15-20 minut yoki butun dars davomida o'tkazilishi mumkin. Keyingi yillarda yozma ishlarning dasturlashtiriladigan shakli o'quv tarbiya jarayonida keng qo'llanilayapti. Bunda o'qituvchi savollar ro'yxatini to'zadi, ularning har biriga mumkin bo'lgan javoblarni taqlif qiladi, bu javoblarda bittasi to'laroq bo'ladi. O'quvchilarning vazifasi javoblar ichidan nisbatan to'laroq va aniqrogini tanlashdir. Shu uslub bilan o'quvchilarni musiqiy o'quvini o'stirish mumkin. Ba'zi musiqiy o'quvi bush bo'lgan bolalar bilan darsdan keyin alohida yakka tartibda shugullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib, qo'shiqlar alohida o'rgatiladi. Shu tarika, hamma o'quvchilarni musiqaga

qiziqishi, qo'shiq kuylashi, musiqa tinglash ishtiyoqi, qobiliyati, musiqiy o'quvi, bir xilda oshib boradi va hamma bilan birgalikda qo'shiq kuylash ko'nikma va malakalari hosil bo'ladi.

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim metodlari (uslublari) - bolalarning bilimlarini, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishini, umumiy ma'lumot hamda umumiy ta'limning vositalarini egallash uchun aqliy kuchli, qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydigan, pedagog bilan o'quvchining o'quv o'rganish jarayonidagi o'zaro ta'sirlarining maxsus usullaridir.

Metodika- pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi va «bilish, o'rganish usuli» ma'nosini anglatadi.

Xususiy metodika - bitta fanning uslubi

Ta'lim (o'qitish) usullari – ta'limning uslubiy tarkibiy qismlarini tashkil etgan bulaqlaridan iborat. Masalan, og'zaki bayon etish davomida doskaga yozib borish, ko'rgazmali qurollar yoki ular bilan tanishtirish jarayonida qiyoslashlardan foydalanish kabi va boshqalar. Har bir uslub doirasida o'quv material mazmuniga, o'quvchilarning tayyorgarligiga, darsning jixozlanishiga, o'qitishning individual o'ziga xosliklariga bog'liq ravishda usullar almashinadi. Quntlik, tirishqoqlik-mehnat va o'rganishda sergayratlilik, quntlilik bo'lib, bolalarni yoshlik yillaridan boshlangan ishini oxiriga yetkazishga, uni vijdonan hamda puxta, tartibli qilib bajarishga o'rgatish, ongiga singdirishdir.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim metodlari to'g'risida tushuncha bering.
2. Musiqa o'qitish metodlarining turlari va ularning vazifalari
3. O'quvchilarning o'quv faoliyatini aktivlashtirish qanday metodlari mavjud?
4. «Metod» - so'zi nimani anglatadi?
5. Optimal metod nimani anglatadi va uning qanday turlari mavjud?

Mavzuni mustahkamlashga doir mustaqi ish namunalari

1. O.Rozikov. «Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении».
2. «Umumiy O'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari». (Musiqa).
3. D.Omanullaev. «Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan leksiylar kursi». 1990y.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Y. Tursunov, U.N. Nishonaliyev «Pedagogika kursi»
2. Dmitriyeva, G. Chernoyanova «Методика музыкального воспитания в школе»

- 3.N.V.Savin «Pedagogika»
- 4.V.A.Kan-Kalik «Учителю о педагогическом общении»
5. Dastur T.1997y.«Musiqqa tarbiyasi metodikasi»
6. Apraksina. «Методика музыкального воспитания»
- 7.O.Faziyev va boshqalar «O'zbekiston maktablarida musiqiy nafosat tarbiyasini tashkil etish bo'yicha metodik qo'llanma» 1992.
8. D.Kabalevskiy «Bolalarga musiqqa darsida qanday so'zlash kerak» 1977y.

3-MAVZU: «Umumiy ta'lim maktablarida qo'shiq o'rgatish metodlari»

REJA:

- 1.Musiqqa darslarida qo'shiq o'rgatish jarayonida musiqqa o'qituvchisi
- 2.Qo'shiq o'rgatish jarayoni:
 - a) O'qituvchining qo'shiqni ijro etishi;
 - b) Suhbat;
 - v) Qo'shiqning tekstini o'rgatish;
- 3.Qo'shiqning qo'yini o'rgatish metodlari
- 4.Ashulani badiiy ijro etish ishlash

I. Dasturga turli vokal va musiqiy xususiyatga ega bo'lgan qo'shiqlar kiritadi. Vokal-xor ishlari yuzasidan ularning har biri ma'lum malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.O'qituvchi sinf imkoniyatlarini hisobga olgan holda yil davomida o'rgatish uchlum 10-12 ta qo'shiq tanlaydi va ularning vokalning ijrochilik darajasi va badiiy mazmuni maktab hayotiga mosligini inobatga olib, ularni ma'lum tartibga soladi.

O'quvchilarga musiqiy tarbiya berishning negizi xorda ashula aytishdir, chunki musiqaga bo'lgan qobiliyatni o'stirish, musiqqa san'atiga bo'lgan mehr va qiziqishni oshira borish vazifasi o'quvchilarning o'z faoliyati jarayonida muvafaqiyatli bajariladi. O'quvchilarning quyi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi, bu malakalar ashulaning to'g'ri va ta'sirli aytilishini ta'minlaydi, bolalar ovozinig yaxshilanishiga va parvarish qilinishiga yordam beradi.

Diktsiyaning aniq va ravshanligi ashulaning tushunarli bo'lishiga yordam berib, uning badiiy obraz bilan aniq va mazmunli ijro etilishiga kumaqlashadi.

Bolalarning ovoz apparatlari, musiqqa o'quvi yoshga qarab o'sadi. Shuning uchun ashula aytish malakalari, ovozning asosiy elementlari: nafasni rejaga solish, tovush hosil qilish, diktsiya, so'z ansambl dasturda har qaysi o'quv yili uchun alohida-alohida beriladi. Ta'lim jarayonida bu elementlarning hammasi bir-biriga uzviy bog'lanib boradi.Yuqorida ko'rsatilgan elementlarning har biri hamma sinflardagi ashula aytish ishining mazmuniga kiradi va asta-sekin mustahkamlashib, sifati o'zgarib, murakkab ashula repertuarida rivojlanadi.

VII -sinf o'quvchilariga alohida e'tibor berilishi kerak, chunki bu yoshda ko'pchilik o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham mutatsiya davri avj oladi (ovozi o'zgaradi). Bu vaqtda 13-14 yoshdagi o'g'il bolalarning ovozi keskin o'zgaradi.

Ayniqsa, o'g'il bolalar ovozlari pasaya borib, ovoz diapazoni tushib qoladi. Xatto ovoz o'zgargandan keyin, ya'ni mutatsiyadan so'nggi dastlabki davrda ham (erkakcha ovoz deb 2-shartli aytiladigan) ovoz diapazoni ko'pincha cheklangan bo'ladi, bu ovozning tembr xususiyatlari noaniq bo'ladi. Bular repertuarni tegishli su'ratda cheklash va puxta tanlash zaruratini keltirib chiqaradi. Bu vaqtda ko'proq ikki ovozli repertuar tavsiya qilinadi. O'g'il bolalar soprano yoki alt ovozi bilan aytiladigan ashulani bir oktava past ohangda takrorlashi mumkin. Bu yoshdagi ba'zi o'g'il bolalar xali bolalar ovozi bilan, ya'ni soprano va alt ovozlari mos keladigan ovoz bilan ashula aytadilar. Birok bolalar ovozi bilan ashula aytuvchilarning diapazoni ham, erkakcha ovoz bilan ashula aytuvchilarning diapazoni ham cheklangan (ba'zi kvinta-seksta darajasida, Do¹-lya bemol ¹, - lya¹ oralig'ida) bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham o'g'il bolalar o'z diapazon doirasiga kirmaydigan ashula qismlarini aytmassliklari kerak. Ashula aytish murakkab psixofiziologik jarayondir. Ashula aytganda bola organizmining deyarli hamma a'zolari, ayniqsa, tovush hosil qiluvchi artiqulyatsiya, nafas organlari va nerv to'qimalari (nerv sistemasi) faol ishtirok etadi. Agar mazkur organlarning biri ashula aytish jarayonida noto'g'ri ishlasa, ovoz apparatiga va ovoz hosil bo'lishiga ziyon yetishi mumkin.

Shuning uchun vokal malakalarini hosil etishda bu organlarning bir vaqtda o'zaro aloqada va normal ishlashga erishishi zarur. Bu tadbirlar nafasning tekis, osoyishta, to'liqlik chiqishiga va nutq talaffo'zining yaxshi rivojlanishiga katta yordam beradi. Musiqa o'quvni o'stirish, ovozni parvarish qilish va vokal xor malakalari hosil etishda maxsus vokal mashqlari, ya'ni uch tovushli, past bosqich yoki yuqori bosqichdagi tovushlar orasida va uning kvinta yoki oktava miqyosidagi qismlarida ashula aytib, bir ovozda asosan, yallalar yoki qo'shiqlardan parchalar aytib, «ovozni maromga solish» katta ahamiyatga egadir.

Notaga qarab ashula aytish malakasi ham shu xilda mashq qilish yo'li bilan hosil etiladi. Bu xildagi mashqlar uchun har darsda 3-6 minut vaqt ajratiladi. Dasturda cholg'u asbobi bilan jo'r bo'lib va jo'rsiz ashula aytilishi nazarda tutilgan.

Jo'rsiz ashula aytish (a'capella) musiqa uquvining o'sishiga ko'p ovozli ashulalarning hamjihatlik bilan aytilishiga, ohangdoshlikka, diqqatni kuchaytirishga yordam beradi. Musiqa asbobi jo'rsiz xor bilan ashula aytganda o'qituvchi ham, o'quvchilar ham ashuladagi barcha noto'g'riliklarni yaxshi sezadilar. Jo'rsiz ashula aytishni o'rganishning ahamiyati ham ana shundadir.

Dasturda ko'rsatilgan qo'shiqlardan tashqari, o'qituvchi matbuot, radio yoki televideniye orqali e'lon qilingan yangi qo'shiqlardan ham tanlab olish mumkin. Shuningdek, ayrim qo'shiqlarni chorakdan chorakka yoki sinfdan sinfga ko'chirish huquqi ham beriladi. Shunga intilish kerakki, bolalar sinfdan o'rganib olgan qo'shiqlarini har yoklama anglab, ta'sirli qilib ijro eta oladigan bo'lsin. Bu esa qo'shiqning qanday o'rganilganligiga, o'qituvchining qo'shiqdagi badiiy obrazni nechog'li ishonarli qilib ochib bera olganligiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchining darsga yaxshi tayyorlanishi qo'shiqni muvaffaqiyatli o'rgatishning muhim shartidir. U bolalar bilan birinchi marta o'rganiladigan ashulani juda yaxshi bilishi, to'g'ri va ta'sirli kuylab berishi kerak. O'qituvchi qo'shiqni chuqur o'rganib chiqqanidan

keyingina uni bolalarga o'rgatish mumkin. Har bir qo'shiqni, xatto eng oddiysini ham, juda sinchiqlab tahlil etish, uning g'oyaviy mazmunini bilib olish va musiqada shu mazmunning qanday ifoda vositalari bilan aks ettirilishini aniqlab olish zarur. Butun qo'shiqni ijro etish rejasi oldindan belgilab olinadi va o'qituvchining darsda o'tkazadigan suhbatlarining mazmuni, ya'ni qo'shiqning asosiy sur'ati va undan chetlanishlar, rang-barangliklar, tovush xususiyatlari uylab chiqiladi. Agar ogizni yumgan xolda kuylash, xor va yakkaxon - peshxonlarning almashib turishi kabi ijro usullari bilan qo'shiq jarangdorligiga xilma-xillik kiritish mumkin bo'lsa, o'qituvchi bu usullarni qayerlarda qo'llanish va bolalardan qaysi biri yakkaxon bo'lishi keraqligini belgilab qo'yadi. U tekstning ta'sirini kuchaytirish uchun qo'shiqning qaysi so'zlarini ajratib ko'rsatish va uqtirib o'tish zarurligini muljallab qo'yadi. Shuningdek, qo'shiqni ijro etish texnikasini ham puxta bilib olib, qanday joylarda nafas olish qo'llay bilishini, qo'shiqni qaysi tomonlari murakkabligini, nima uchun bolalarning o'zlashtirishlari qiyinligi va qaysi tomonlarini o'zlashtirishlar oson bo'lishini aniqlash kerak. O'qituvchi qo'shiqning murakkab urinlarini aniqlagach, ularni o'rganishni osonlashtiradigan vositalarni topa oladi. Masalan, bu urinlar intonatsiya qiyinchiliklaridan iborat bo'lsa, yordamchi mashqlar tuziladi.

II. Qo'shiq o'rgatish jarayonining bir necha asosiy paytlari bor:

- 1.O'qituvchining qo'shiqni ijro etishi;
- 2.Suxbat o'tkazish;
- 3.Qo'shiq tekstini o'rgatish;
- 4.Qo'shiq qo'yini o'rgatish;
- 5.O'rganilgan qo'shiqni mustahkamlash;
- 6.Qo'shiqning badiiy ijrosi ustida ishlash

Har qanday qo'shiqni o'rgatishda ana shunday paytlarga rioya qilisfi shart. Bularni bajarish izchilligi esa o'rganilayotgan qo'shiqning xususiyatiga bog'liqdir.

O'QITUVCHINING QO'SHIQNI IJRO ETISHI – o'qituvchining qo'shiqni ijro etishi uni o'rgatish jarayonidagi muhim bir payt hisoblanadi. O'qituvchining qo'shiqni nechog'li aniq chiziq ravshan, ta'sirli ijro etsa, bu qo'shiq o'quvchilarga shunchalik tushunarli bo'lib qoladi, qo'shiqni o'rganish ularga oson bo'lib ko'rinadi. Bolalar qo'shiqni kuchli taasurot bilan tinglashar ekan, ularning shu qo'shiqni tezrok o'rganib olgilar keladi. Shunday qilib, bolalarni jim o'tirib zo'r diqqat bilan qo'shiq tinglashga odatlantira borish kerak. O'qituvchi qo'shiqni boshidan oxirigacha ham, qisman ham ijro etishi mumkin. Agar qo'shiq tabiat manzaralarini aks yettirsas, yil fasllari ifodalasa, unda qandaydir umumiy mazmun va kayfiyat bayon qilinadigan bo'lsa, qo'shiqning bir bandini ijro etishning o'zi kifoya qiladi, boshqa bandlarini esa qo'yilmasdan o'qib beriladi xolos. Ammo ayrim qahramonlarga, tarixiy voqealarga oid qo'shiq va ashulalarda bo'lganidek, qo'shiq rivojining umumiy yo'li yakkol ma'lum bo'lsa, bolalarda yaxlit badiiy obraz taasurotini hosil qilish uchun qo'shiqni tulik ijro etish afzalrok bo'ladi.

SUXBAT. – qo'shiq o'rgatish oldidan, odatda, qo'shiqning mazmuni va musiqaviy ta'sirchanligi, uning musiqasini yozgan kompozitor va she'rini yozgan shoir haqida suhbat o'tkaziladi. Bu suhbat o'quvchining qo'shiqni ijro etishdan oldingi kirish

so'zi va undan keyingi xotima - xulosa so'zi tarikasida o'tkazilishi mumkin. Kirish so'zi nixoyatda qisqa va xilma xil mazmunda bo'lishi kerak. Chunonchi, o'qituvchi faqat qo'shiqning nomini, uning kompozitori va shoirining nomini aytadi yoki shu asarni yaratgan kompozitorning hayoti va ijodiy yo'lidan 1-2 ta yorqin vokeani gapirib beradi. Tarixiy vokealarga, qahramonlarga bag'ishlangan qo'shiq va ashulalarni ijro etishdan oldin suhbat o'tkaziladi. Bundan ko'zanadigan maqsad bolalarning shu qo'shiq to'g'risidagi taasurolini kuchaytirishdan iborat. Bunday suhbatda bolalarning o'zlari ham aktiv ishtirok etishlari mumkin. Ular ayrim vokealar va qahramonlar to'g'risida eshitib yoki o'qib bilganlarini gapirib berishadi. Agar qo'shiqda notanish so'zlar uchraydigan bo'lsa, bolalarning idrok jarayonini qiyinlashtirib qo'ymaslik va diqqatini chalgitmaslik uchun uni tinglashdan oldin, notanish so'zlarga izoh beriladi. Qo'shiqni ijro etib ko'rsatgandan keyin ancha batafsil suhbat qilinadi, ammo bu suhbat juda cho'zilib ketmasligi shart. Bolalar o'qituvchi ijro etayotgan qo'shiqni tinglashar ekan, ta'sirlanib, ruxlanib ketishadi. Shu qo'shiq to'g'risida ularda fikr olishuv istagi tug'iladi. Bu istak darsning juda muhim paytidir. Lekin ushbu masalada, o'zi bo'larchilikka va boshboshdoqlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. O'qituvchi suhbatni yo'lga solib, boshqarib turishi kerak. Bunda u bolalarga bir qancha savollar beradi: Qo'shiqda nima haqida so'z boradi; uning musiqasi qanday xususiyatga ega; u og'ir – vazmin aytiladimi yoki tez aytiladimi; u marsh qo'shigga o'xshaydimi yoki raqs qo'shigga; bolalar jo'rnavorlikdan qanday zavq olishdi va h.k. Bundan tashqari, o'qituvchi shu suhbatda bolalarga yangi bilim va tushunchalarni berib, qo'shiqdagi badiiy obrazni - kuchaytirishga yordam qiluvchi musiqali ifoda vositalarini ularga tushunarli shaklda ochib berishi kerak.

Ayrim xollarda qo'shiqning kuyni bolalarning esiga solish uchun suhbatdan so'ng uni ikkinchi marta ijro etish ma'qul. Qo'shiq ijro etilib, uning haqida suhbat o'tkazilgandan keyin, o'qituvchi qo'shiqni bevosita o'rgatishga kirishadi.

Qo'shiq tekstini o'rgatish – qo'shiqda kishi ongiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi vosita bo'lgan musiqa bilan so'z chambarchas bog'lanadi. Qo'shiqni o'rgatish jarayonida ana shu ikki komponentning muhim o'rnini egallashi alohida ahamiyatga ega. Bolalarni qo'shiqning tekstini tez va osongina esda qoldirishga o'rgatish lozim. Quyi sinflarda qo'shiq teksti bevosita darsda o'rgatiladi. Buning sababi shuki, bolalar xali tez va bexato yoza olmaydilar, she'rni yozib olish esa juda ko'p vaqtni oladi. Darsda o'qituvchi odatda adabiy asarning murakkab turiga qarab to'rtlikni (bir band she'rni) yoki uning qismini to'rt marta o'qib eshittiradi; so'ngra o'qib eshittirilgan tekstni o'zi bilan birgalashib takrorlashni bolalarga taqlif qiladi. O'qituvchi tekstdagi so'zlarni to'g'ri, to'a'sirli, aniq, talaffuz etishi kerak. O'quvchilarning ham xuddi shunday talaffuz etishlarini talab qilish zarur. Ular tekstni shivirlab, ammo ohangdor qilib o'qib berishlari foydali bo'ladi; bunday o'qish artikulatsiya apparatini aktivlashtiradi.

Qo'shiqning tekstini butun sinf 2-3 marta takrorlagandan keyin ayrim o'quvchilardan uni diklomsiya qilib berish suraladi. Ayni maxalda boshqa o'quvchilar o'rtoqlarining xatolarini tuzatishlari uchun she'rni diqqat bilan tinglab, uni dilda takrorlashlari kerak. Tekstni «zanjirband» qaytarish ma'qul: bir bola birinchi satrni, boshqa bola ikkinchisini, uchinchi bola uchinchi satrni ukiydi va h. k.

Bunday o'qish bolalarning diqqatini aktivlashtiradi. 2-sinfdan boshlab o'quvchilar alohida daftar tutib, o'rganilayotgan qo'shiqlarning tekstini yozib borishlari kerak. 3-7 sinflarda o'qituvchi qo'shiqning tekstini aytib yozdiradi. Quyi sinflarda qo'shiq tekstini maxsus jadval - plakatlariga qarab yoki doskadagi yozuvlarga qarab o'rganish lozim. Yuqori sinflarda o'qituvchi sinfga yangi tekstning 2-3 nusxasini olib kelib, bolalardan uni kuchirib ko'paytirishni iltimos qiladi. Bundan tashqari, yuqori sinflarda qo'shiq tekstini bevosita darsda o'rganib, yodlab olish usuli kuylanilmokda. Qisqa va oddiy tekstlarni bir darsning o'zidayoq batamom o'rganib olish mumkin. Lekin shunday she'rlar ham borki, ularda bir bandning o'zi ikki-uch qismidan iborat bo'ladi. Bunday she'rlar bir necha dars davomida o'zlashtiriladi. Bordi-yu bu ishni bir yo'la bajarishga urinib bevosita ashula uchun ajfatilgan vaqt faqat sne'ni o'rganishga sarflanadigan bo'lsa, metod jihatdan noto'g'ri ish qilingan bo'ladi. Birinchi band so'zlarini sinchiqlab o'rganib olish shart emas, chunki kuyni o'rgatishda bu so'zlar ko'p marta takrorlanib, yodda qoladigan bo'ladi. Ammo keyingi bandlarni bu xilda o'rgatish maqsadga muvofiq emas, chunki bolalar endi kuyni ancha yaxshi bilishadi va ularni kuyni ko'p marta takrorlash paytida tekstni qayta-qayta puxtalayverishlariga zarurat kolmaydi. Shu sababli yangi bandlarini tekstini ancha sinchiqlab o'rganish kerak.

Qo'shiqni kuyini o'rgatish — birinchi bandning teksti o'zlashtirilgandan keyin, qo'shiqning qo'yini o'rgatishga kirishish mumkin. Bu ish bolalarning ham o'qituvchining ham diqqat-e'tiborini talab etadi. Kuyni o'rgatish oldida uni biron musiqa asbobida chalib yoki qo'shiqning birinchi bandini aytib bolalarga yaxshi eslatib o'tish kerak. Natijada ular o'rganilayotgan qo'shiq to'grisida ancha to'la taasurol olishadi. Bolalar o'zlariga notanish yangi kuy bilan tanishayotganlarida uning ayrim qismlarini o'rgatishni boshlash mumkin; keyinchalik bolalarda usha qismlardan mukammal musiqaviy obraz tarkib topadi. Qo'shiqning kuyni o'rganib olishda muayyan izchillik mavjuddir. Odatda kuy musiqa tarkiblari bo'yicha o'rganib boriladi. Dastlab birinchi tarkib, so'ngra ikkinchi, uchinchi va h. k. Tarkiblar tahlil qilinadi va o'rgatiladi. O'qituvchi ularning har birini ohangi bilan aytadi va 2-3 marta chalib beradi, undan keyin o'zi bilan birgalikda ma'lum tarkibni ohangi bilan aytishni bolalardan talab qiladi. Odatda, bolalar dastlab qo'shiqni dadil aytisha olmaydi, ammo bir necha bor takrorlash toufayli tobora dadil aytadigan bo'lishadi. Bordi-yu o'rganilayotgan tarkib bolalarga yetarli darajada tushunarli bo'lmasa, uni yana 1 marta chalib va aytib beradi. Bu urinda me'yorni bilish va xatto ma'lum bir tarkib yetarli o'zlashtirilmagan takdirda ham, uni o'rganish ustida uzoq tuxtalib qolmaslik lozim. Shuni unutmaslik kerakki, bunday xolda bolalarning diqqati zaiflashadi, shu sababdan ular charchab, passivlashib qolishadi, bu esa ta'lim natijasiga salbiy ta'sir qiladi. Shuni uchun qo'shiqning qiyin joyiga keyinroq yana qaytish ma'qul.

Qo'shiqning murakkab joylarini ayniqsa sinchiqlab o'rganish kerak. Bu paytdagi qiyinchiliklar odatlanilmagan intonatsiya (davra) lar bilan, qo'shiq quyidagi sakrashlar bilan, alteratsiya kabilarning noqo'layligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday qiyinchiliklarni qunt va gayrat bilan bartaraf qilish zarur, chunki agar kuy tamomila to'g'ri o'rganib olinmasa, xatolarni tuzatish nixoyatda qiyin bo'ladi, ba'zan

esa ularni tuzatish mumkin bo'lmaydi. Bu xolda o'qituvchi xatolarga yo'l qo'ymasligi uchun shu qo'shiqni uyda takrorlamaslikni bolalarga uqtirib qo'yadi. Shuningdek, kuyni ritmik tomondan murakkabligi tufayli uni o'rganish qiyinchiliklari yuz berishi mumkin. Kuyning bolalar idroki uchun murakkab bo'lgan ritmik shaklini o'zlashtirishni chapak chalib ko'rsatish yo'li bilan osonlashtirish mumkin. Qo'shiqning ma'lum bir bug'ini bir necha nota kuylanayotgan joylari bolalarni dam-badam kiynab turadi. Bunday joylarni she'r bilan kuylamay, balki «lya» singari neytral bug'inlar bilan kuylash foydali bo'ladi; bunday kuylash idrok etishni osonlashtiradi va tezlashtiradi. Tez tempda (sur'atda) yozilgan qo'shiqlarni faqat sekin tempda o'rganish lozim, aks xolda intonatsiya va ritm aniq o'zlashtirilmay qoladi, demak, qo'shiq pala-partish ijro etiladigan bo'ladi. Shu sababli kuyni yaxshi o'zlashtirgandan keyingina tempni kompozitor tomonidan ko'rsatilgan darajaga asta-sekin yaqinlashtirish mumkin. Bundan tashqari, tez templi qo'shiqlarni o'rgatishda ularning so'zlarini aniq talaffuz etilishiga erishish, qo'shiq tamomila o'rganib bulgunga kadar ana shunga harakat qilish zarur. Shaxdam qo'shiqlar o'rganilganda shoshilish va xovlikish yaramaydi. Sekin aytiladigan qo'shiq ustida chaqqonlik bilan ishlash zarur, aks xolda bolalar sustlashib ketishadi.

Qo'shiq o'rgatish jarayonida har xil usuldan foydalanish zarur. Har bir sinfda xushovoz, ba'zan, esa musiqaga juda qobiliyatli bolalar bo'lishi tabiiydir. Ular qo'shiq ohangini o'rganishda o'qituvchining yordamchilari bo'ladilar. Sinfidagi parta qatorlari o'rtasida musobaka uyushtirgandek bo'lib, bolalarning qo'shiq ohangini qanchalik bilishlarini tekshirib ko'rish foydali bo'ladi shuning bunday metodi bolalarni aktivlashtirishga yordam qiladi va ijodiy ruxlantiradi. 3-sinfidan boshlab eng oddiy qo'shiqlarni notaga qarab o'rganish mumkin. Buning uchun o'qituvchi oldindan katta plakatda yoki dars boshlanishiga kadar sinf doskasida ashula yozuvini tayyorlab qo'yadi. Solfedjio qila boshlash oldida bolalarning hammasi ayni bir vaqtda notalarni 2-3 marta o'qib chiqadi, Shundan keyin ular kuyni bir necha marta solfedjio qilishga so'ngra uni so'zlari bilan aytishga urinib ko'rishlari lozim. Maklabning 3-sinfidan boshlab darsda bir ovozlik qo'shiqlardan tashqari ikki ovozli qo'shiqlar qiyinrok uch ovozlik qo'shiqlar o'rganiladi. Bunday qo'shiqlarni o'rganishda har bir partiya bir ovozlik qo'shiq o'rganilganidek, sinchiqlab va xudda usha metod bilan o'rganib chiqilmogi kerak. Bu yerda o'qituvchi o'zini hamisha nazorat qilib borishi va qandaydir bir xor partiyasining ishiga ortik darajada berilib kelmasligi lozim. Aks holda sinfda tartibsizlik va shovkin paydo bo'ladi. Vaholanki, bunga xech qanday sharoitda aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Gox bir partiya bilan, gox boshqa partiya bilan navbatma-navbat ishlash kerak. O'qituvchi birinchi ovozda o'quvchilarga boshlang'ich tarkibni o'rgatib bulgach, shu tarkibni o'zini ikkinchi ovozda o'quvchilarga o'rgatadi. Shundan keyin ikkala partiyani albatta birlashtirib, asosiy diqqatni ikkinchi ovozlarga qaratish zarur.

Keyingi tarkiblarning hammasi xuddi shu tarzda o'rganiladi. So'ngra ular, bir ovozlik qo'shiqni o'rganilgandagi kabi birlashtiriladi. Bolalarning qo'shiq quyi va tekstini yahshi eslab qolishlari uchun bitta dars yetarli emas. Shu sababdan qoshiq muayyan vaqt davomida ko'p takrorlanadi va asta-sekin o'rganib olinadi.

BADIIY IJRO ETISH USTIDA ISHLASH

Qo'shiq ustida ishlashda unga badiiy saykal berishga anchagina o'rin ajratiladi. Ishning ana shu tomoni qo'shiq ustida olib boriladigan butun ish jarayoni bilan birgalikda sodir bo'ladi, faqat eng dastlabki bosqichdagina bolalarning butun diqqatini shu davrda eng zarur bo'lgan vazifaga: qo'shiqning intonatsiyasini o'zlashtirishga tuplash kerak. Tegishli tarkib ravon yangray boshlagach, diqqatni boshqa detallarga: tovushning xarakteri, frazirovka, tuslar, diktsiya va kabilarga qaratish imkoniyati paydo bo'ladi. Qo'shiq o'zlashtirilgandan keyin, avtor g'oyasini ochib berish ustida jiddiy ish davri boshlanadi. Ammo ishning shu tomoniga berilib ketib, qo'shiq aytish vaqtida dam-badam tuxtalish bilan bolalarni zeriktirib yubormaslik kerak. Bolalar qo'shiqni dadil aytishar ekan, shubxasiz ularda ashulani tulik ijro etish istagi tug'iladi; agar qo'shiq xadeb bo'linaveradigan bo'lsa, bu xol ishga bo'lgan qiziqish-havasning pasayib ketishiga olib keladi. Shuning uchun o'qituvchi bu ishda me'yorni bilishi va har safar ma'lum tarkibni, intonatsiyani, so'zni takrorlash sababini tushuntirib borishi muhimdir. Masalan, bolalar ohangni to'g'ri kuylashadi-yu, so'zlarni noaniq aytishadi. O'qituvchi qo'shiqni so'zlarini anglab bulmayapti, deb bolalarni ogoxlantiradi. Bordi-yu, bolalar noaniq diktsiya bilan aytaverishadigan bo'lsa, qo'shiqni bo'lib, tanbex berish kerak. Keyin diqqatni boshqa detallarga, ya'ni tovushga, tuslar va shu singarilarga jalb etiladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, bolalar oldiga birdaniga bir qancha vazifalarni qo'yish- amalda ulardan birontasini ham bajara olmaslik demakdir.

Ijro etish detallari ustida ishlashdan so'ng qo'shiqni o'rganishga o'z vaqtida uta bilish lozim, yuksa ashula xech kachon yaxshi va qat'iy ovoz bilan yangramaydi. O'qituvchi badiiy obraz ustida ishlar ekan, turli ijrochilik usullarining zarurligini bolalarga yakkol ko'rsatib berishi va ularning ana shu usullarini beixtiyor emas, balki ongli ravishda bajarishlariga intilishi kerak. Qo'shiq bolalarni zeriktira boshlasa, uning ustida olib borilayotgan ishni vaqtincha tuxtatish va repertuarda yangi qo'shqlar paydo bo'lganidan keyin, yana shu qo'shiqqa qaytish ma'qul. O'quv yilining choragi yoki yarim yili oxirida bir darsni ilgari utilgan barcha qo'shiq va ashulalarni takrorlashga bag'ishlash mumkin, buning uchun sinfning kichiq bir kontserti uyushtiriladi, bunda bolalarning hammasi ayni bir vaqtda ham ijrochilar, ham eshituvchilar hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar:

Diqqat - faoliyat (xatti-harakat) va ruxiy aks yettirishni ta'milaydigan, belgilangan ob'ektga faoliyat yoki ongning jamlanish holatidir.

A'kapella (a'capella) - sossiz, cholg'u jo'rsiz odatda xor tomonidan ijro etiladigan musiqa asari.

Ashula - keng tarkalgan vokal musiqa janri va shakli bo'lib, unda she'riy va musiqiy obrazlar bir-biriga uygunlashgan xolda gavdalanadi.

Partiya - xor katnashchilaridan birining yoki unison xolda ijro etuvchilarning notalari

Solfedjio - malakasini yuksaltirish va notaga qarab ularni tez o'qishni o'rganish uchun o'tkaziladigan vokal mashq.

Nazorat savollari:

1. Musiqa darslarida qo'shiq o'rgatish jarayonida musiqa o'qituvchisi oldiga qanday maqsad va vazifalar qo'yilgan?
2. Qo'shiq o'rgatish jarayoni qanday faoliyatlardan iborat?
3. Qo'shiqning qo'yini o'rgatish bo'yicha qanday metodlar mavjud?
4. Ashulani badiiy ijro etish ustida ishlash uchun qanday metodlar qo'llaniladi?

Mavzuni mustahkamlashga doir mustaqil ish namunalari

1. Sizikova S.F. «Хоровое пение в начальных классах»
2. G.S.Rigina. «Уроки музыки в начальных классах» М.1979.
3. L.G.Dmitrieva, N.M. Chernovannenko. «Методика музыкального воспитания в школе» 4,91 – 110 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Akbarov .«Musiqa lug'ati»
2. Apraxina O. «Методика музыкального воспитания в школе»
М. 1983
3. D.Omonullayev. «Umumiy ta'lim maktablarida musiqa dasturlari»Т.,1992
4. Gudkova Ye.A., Vasileva A.B. «Ashula dars metodikasi»

4. MAVZU: Musiqa darslarida musiqa savodi o'rgatish metodikasi **REJA:**

1. Umumiy ta'lim maktablarida musiqa savodini o'rgatish metodlari
2. Musiqa savodini o'rgatishning boshlang'ich davri
 - a) Tovushning baland-pastligi. Registrlar
 - b) Notalarni yozish. Nota yo'li. Kalit
 - c) tovushlar cho'zimi va ularning yozilishi
 - d) Pauzalar
3. Nuqtali pauza notasi
4. O' lchov, takt va takt chizig' i
5. Alterasiya belgilari. Ton va yarim ton
6. Lad. Major va minor

7. Intetrvallar

8. Musiqa asarlarning cho'zilishi haqida tushuncha

Musiqa savodi musiqa darsining bo'limlaridan biri bo'lib, xor bilan qo'shiq aytishga nisbatan ikkinchi darajali o'rin tutadi. Shunga qaramasdan musiqa savodi o'quvchi bolalarning musiqa ta'limida katta rol o'ynaydi: musiqa nazariyasi va tarixidan boshlang'ich bilim beradi, ularning saviyasini oshira borishga yordam qiladi. Musiqa savodi musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabat tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushunib olishga yordam beradi, eng muhimi esa notaga qarab kuylash va ashula aytish malakalarini hosil qilish, garmonik eshitish qobiliyatini o'stirishga ta'sir ko'rsatish, xor ovozlari aniq talaffuz etishga va xor bilan ijro etish sifatini oshirishga qulaylik tug'dirish yo'li bilan sinfda qo'shiqlar o'rgatishni osonlashtiradi. Musiqa darsida musiqa savodiga juda oz vaqt 5-10 minut ajratiladi. Shu sababli har gal qo'shiq o'rganish va musiqa asarlarini tinglash jarayonida qo'llash va eshitish malakalarini hamda musiqa bilimini mustaxkamlab va chuqurlashtirib borishi kerak. Maktabda musiqa savodini o'rganishda qo'yiladigan asosiy metodi talab olingan musiqaviy bilimni bevosita amalda qo'llash hamda savod o'rgatish bilan birgalashib qo'shiq aytishni bir-biriga chambarchas bog'lab olib borishdan iborat. O'quvchilar mustaqil qo'shiq ayta oladigan va notanish kuylarni notaga qarab o'rgana oladigan bo'lgan vaqtlardagina musiqa savodini o'rganishdan ko'zlanadigan maqsadga erishilgan bo'ladi. Musiqa savodini o'rganish bolalarning musiqa tovushlarini eshitish sezgilarining o'sishiga asoslanishi kerak. O'quvchi biror tovushni ovoz bilan esga tushunishdan oldin uning qanday yangrashini aniq- ravshan tasavvur qilishi va eshitib bilishi, ya'ni ko'rayapman-eshtayapman-kuylayapman deb, ko'zga ko'rinadigan narsadan eshtiladigan narsaga qarab borishi lozim. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytishda ham musiqa savodini o'rgatish jarayonida ham eshitish qobiliyati, metr-ritm sezgisi taraqqiy etadi.

Musiqa savodini o'rgatishning boshlang'ich davri

Musiqa savodini o'rgatish 1-sinfda boshlanadi. Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida bog'chaga qatnab, bog'chadagi musiqa mashg'ulotlarida bir qancha musiqaviy malakalar hosil qilgan bo'ladilar. Ko'pgina qoshiqlar va o'yinlar o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar va h.k.

Uyda tarbiyalanadigan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radiyo va televideniye orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari bilan tanishgan bo'ladilar. Garchi ana shu bilimlar tasodifiy va sistemaga solinmagan bo'lsa-da, ammo o'qituvchi bolalarga musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rish mumkin.

1-sinfda o'quvchilarning butun musiqa ta'limiga negiz solinadi, shuning uchun bu sinfda o'qituvchi o'qitish metodikasini ayniqsa yaxshi bilishi, maktab yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqa va vokal qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur.

1-sinfda ta'limni shartli ravishda ikki bosqichga asosiy maqsad -bolalarning musiqa o'quvini o'stirishdir. Bu bosqich odatda o'quv yilining birinchi yarmini to'liq

egallaydi. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zma kabi o'ziga xos xususiyatlarini ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak.

O'quv yilining ikkinchi yarmi - ikkinchi bosqichda nota savodi, ya'ni musiqa tovushlarining chizma (grafik) usulda ifodalanishi - nota yozuvini bevosita o'rganishga kirishiladi.

O'quv yilining birinchi yarmi tovushning baland-pastligi. Registrlar

Tovushlarning baland-pastligi tushunchasini o'rganish bolalardagi mavjud tasavvurlarini aniqlashdan boshlanadi. Bu tasavvurlar ko'pincha noto'g'ri bo'ladi. Dastlab bolalar terminlarni adashtirib, baland tovushlarni past tovushlar deb va aksincha, balandlik haqidagi tasavvurini qandaydir katta bir narsa bilan bogliq bo'ladi (baland bo'yli erkak baland tovush va h.k.) Shuningdek, ular ko'pincha baland tovushlarni «ingichka tovushlar» deb, past tovushlarni «yo'g'on tovushlar» deb atashadi. Shuning uchun bolalarni bir yo'la to'g'ri terminlardan foydalanishga o'rgatish, baland va past tovushlarni eshitib farqlay bilish va to'g'ri atashga odatlantira borish kerak.

Balandligi jihatidan turlicha bo'lgan tovushlarni emas, balki registr tushunchasi bilan birlashgan tovushlar gruppasini o'rganishdek ana shu uzoq davom etadigan, serdiqqat ish boshlanadi. Bu termin haqida bolalarga ma'lumot bermaslik mumkin, ammo registr tushunchasining mohiyati haqida ularning aniq tasavvur hosil qilishlari, kuyi, o'rta yuqori registrlardagi tovushlarni ajrata bilishga o'rganishlari muhimdir.

Bolalarga tanish bo'lgan qo'shiqni ijro etishning ta'siri kuchlidir: shuning uchun ham dastlab ularga agar ayiq yoki fil aytishni bilganida edi, uni qanday ovoz bilan aytishi yoki qushlarning qanday sayrashini tasavvur qilishi taklif etiladi.

«Baland» yoki «past» tovushlar haqidagi tushunchani izohlab berishda tegishli assotsiatsiyalar hosil qilish uchun bolalarning hayotga, maishiy turmushga xos bo'lgan qushchaning osmonda chirillab sayrashini, yoqimli, jarangdor ovozi go'yo yuqoriga-osmonga intilayotgandek yengil va ravshan-sofligi - bu tovushlarning baland-pastligini, aksincha, ayiq, fil, arslondan eshitiladigan tovushlar, xayvonlarning o'zlari singari, xuddi yerdan ko'tarila olmagandek qo'pol, og'ir-past tovushlar ekanligini gapirib berish mumkin. Obrazlilik bolalarning yorqin va aniq musiqaviy taasurotlar hosil qilishlariga yordam beradi.

Registrlar haqidagi tushunchani mustaxkamlash va o'zlashtirishni tekshirib ko'rish uchun quyidagi o'yin-mashqni o'tkazish foydali bo'ladi. O'qituvchi qo'shiqni turli registrlarda chaladi, bolalar esa ularni qo'l harakatlari bilan ko'rsatib borishlari kerak. Agar qo'shiq yuqori registrda chalinayotgan bo'lsa, ular qo'llarini yuqoriga ko'tarishadi, pastki registrda chalinayotganda-pastga tushirishadi, o'rta registrda-qollarini oldinga uzatishadi. Bu o'yinni tikka turib bajarib yaxshiroq bo'ladi. U holda, ko'zlanadigan asosiy maqsaddan tashqari, bir yo'la go'yo jismoniy

yengillikka ham erishilib darsda baland ruh paydo bo'ladi. Tovushlarning baland-pastligini aniqlash birinchi oktava bilan cheklangach, shu tovushlarni eshitishnigina emas, balki, ularni kuylashni ham talab etish kerak. O'shanda bolalarning eshitib tasavvur hosil qilishlari bilan bir vaqtda ularda qo'shiqchilik sezgilari hosil bo'la boradi, chunki eng baland tovushlar qo'shiq aytishda o'rtacha va past tovushlarga qaraganda ko'proq zo'r berishni talab etadi. Shu ish bilan bir qatorda qo'shiq o'rganish jarayonida o'quvchilarga avval qochiriq shaklidagi bir tovush, keyinroq esa o'ziga xos melodik misolga (davraga) mo'ljallangan ikki mashqni kuylash taklif etiladi. Bunda bolalarning diqqatini shunga ko'proq tortish kerakki, birinchi holatda ular ayni bir tovushni takrorlashadi, ikkinchi holatda esa ikki turli tovushni kuylashadi.

O'quvchilarda notaga qarab kuylash misollari etarli ravishda to'plangandan keyin, quyidagi topishmoq – o'yinni o'tkazish mumkin: tanish qo'shiq grafik shaklda tasvirlanadi va buning qanday qo'shiq ekanligini topish, keyin esa uni aytish taklif etiladi. So'ngra qo'shiq nota yozuvidan topiladi va aytiladi. Agar o'quvchilarning ko'pchilik qismi bu topshiriqni muvaffaqiyatli bajara olsa, ancha murakkab topshiriqni ham beraverish mumkin. O'qituvchi mashqlar uchun qo'shiqlar tanlar ekan, ularni aytishga qulay diapazondagi namunalardan bo'lishiga intilmog'i kerak, chunki bunday tanlash aniq talaffuz etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni yaratadi.

Tovushlar cho'zimi va ularning yozilishi

Tovushlarning baland-pastligi tushunchasini egallash ustida olib boriladigan ish jarayonida ularning cho'zimi tushunchasi asta-sekih kiritiladi. musiqa asarlaridagi tovushlar faqat muayyan balandlikkagina emas, balki muayyan cho'zimga ham ega ekanligiga, qisqa va uzun-cho'ziq tovushlar borligiga diqqatni jalb etiladi. Uzun tovushlarni cho'zib aytish kerak. Bunda qo'shiqning grafik rasmdan foydalaniladi; tovushlar bu grafik rasmda cho'zimiga qarab qisqa yoki uzun chiziqchalar bilan ko'rsatiladi.

Ushbu mashqlarni bajarishda o'qituvchi avvalo qo'shiqni qanday yozish kerakligini tushuntirib va ko'rsatib beradi, so'n'shiqni yoki melodik parchani aytadilar, keyin uning ritmini qalam bilan parta qopqogga chertmak chalib ko'rsatadilar, shundan keyin o'qituvchi kuyning ritmik tuzilishini daftarga yozishni taklif qiladi, tekshirib ko'rish uchun bolalardan biri uni doskaga yozib qo'yadi.

Notalarni yozish. Nota yo'li. Kalit

O'quv yilining ikkinchi yarmida (ikkinchi bosqich) nota yozuvini egallash mashg'ulotlariga kirishi mumkin. O'qituvchi nutqomizni, har bir so'zimizni harflar bilan yozish mumkin bo'lgani kabi, musiqani ham yozish mumkinligini, ammo buning uchun musiqaga xos harflarni - notalar deb ataladigan belgilarni bilish kerakligini tushuntirib beradi, notani yaxshi bilgan kishining har qanday qo'shiqni ayta olishini uqtirib o'tadi.

Notalar nota yo'lga yoziladi. Bunda o'qituvchi nota yo'lining ahamiyatini izohlab beradi; nota yo'li - nota yoziladigan o'rindir. U doskaga nota yo'lini chizib ko'rsatar ekan, bolalarning chiziqlar sanbg'i boshlanadigan joy - eng pastki chiziq -

birinchi chiziq ekanligini bemalol esda qoldirishlari uchun pastki chiziqni chizishdan boshlashi lozim. So'ngra u notalarning chiziqlarga, chiziqlar orasiga, chiziqlarning ustiga va ostiga yozilishini, asosiy chiziqlar etishmay qolganda esa notalar qo'shimcha, qisqa chiziqlarga yozilishini uqtiradi. Shundan keyin o'qituvchi, nota chizig'i boshida maxsus belgi - **skripka kaliti** bo'lmaguncha yozilgan notalardan birontasini ham atay olmaymiz, bu kalit notalar nomini ochib beradi, deydi. U ushbu kalitning nima uchun skripka kaliti deb atalishini aytar ekan, kalitning ikkinchi nomi bo'lgan Col kaliti bilan ham o'quvchilarni tanishtiradi. Col notasining qayerda turganligini bilib olgan o'quvchi boshqa notalarni ham topishi mumkin. Bolalar notaning o'rnini qanday topish kerakligini juda tez tushunib oladilar; bu narsa maroqli o'yinga aylanib ketadi; o'yin paytida bolalar qayerda qanday nota yozilishini esda qoldiradilar.

Bolalarning nota yozuvini bemalol tushunib, birinchi oktava doirasidagi har bir notaning o'rnini yaxshi bilib olishlari uchun quyidagi mashqlarni tavsiya qilish mumkin.

a) O'qituvchi notalarning nomlarini aytib turib yozdiradi yoki doskaga yozib beradi. O'quvchilar esa ularni nota yo'lga yozishlari kerak;

b) O'qituvchi qo'shiq kuyni doskaga yozadi hamda o'quvchilardan uni daftarga ko'chirib yozishni va shundan keyin notalarning nomlarini yozib qo'yishni taklif etadi.

Bu mashqlardan barcha o'quvchilar mustaqil ravishda bajarishadi, so'ngra ulardan biri shu mashqlarni doskaga yozadi, boshqalari esa o'z ishlari bilan solishtirib chiqadilar. Shunga o'xshash mashqlarni uyga vazifa qilib topshirish mumkin.

Tovushlarning cho'zimini yozish

Tovushlarning o'rnini tushuntirar ekanmiz, ularni butun notalar bilan yozamiz, lekin qo'shiqlarning melodik parchalari va ohanglarini kuylab borganimiz sayin uzun va qisqa tovushlarning, ya'ni choraklar va yarimtaliklarning shaklini bolalarga ko'rsatib berish zarur bo'lib qoladi. 1-sinfda cho'zimlar nisbatini: yarimtaliklar deb, qisqa tovushlar esa choraklar deb atalishini izohlab berish kerak emas. Bu ish kattaroq yoshdagi o'quvchilar bilan olib boriladi. Hozircha chorak va yarimtalik notalar haqidagi ko'z tasavvurlari bilan eshitish tasavvurlarini bog'lash, shu tasavvurlarni qo'shiqlarda ajrata bilish, nota yo'lga yozish, nomini esda qoldirish kifoyadir.

Bu materialni yaxshiroq o'zlashtirish uchun bolalar ilgari chizma usulda chizib ko'rsatishgan qo'shiqni nota shaklida yozishni ularga taklif etish tavsiya qilinadi.

Shundan so'ng o'quvchilarga dastlab tovushlar nomini aniqlab, bu qo'shiqni nota yo'lga yozishni taklif etish mumkin. Bu 2-3 tovushga mo'ljallab tuzilgan juda oddiy qo'shiq bo'lishi kerak.

Shunday qilib, 1-sinfda musiqa savodini o'rganish yuzasidan olib boriladigan ishning mazmunini yakunlab, quyidagilarni ta'kidlab o'tish kerak:

- 1) O'quv yilining oxiriga kelib bolalar birinchi oktavadagi notalarni yaxshi bilishlari lozim;
- 2) Chorak va yarimtalik notalarni eshitib farq qila bilishlari va yoza olishlari kerak;
- 3) Bolalar tanish kuylar va mashqlarni eshitib olib va notalarning nomlarini aytish bilan bir vaqtda, ularni nota yozuvidan kuzatib borganlari holda, birinchi oktava doirasida qo'llay olishlari kerak;
- 4) Eshitib o'rganilgan qo'shiqni nota yozuvi yordamida so'zi bilan aytib bera olishlari kerak;
- 5) 2-3 tovushga mo'ljallab tuzilgan jo'nroq melodik parchalarni solfedjio qila olishlari lozim.


1-sinfda bolalarning ritm tuyg'usini o'stirish yuzasidan katta ish boshlangan edi. O'qituvchi keyingi barcha sinflarda shu ishni davom ettiradi. U qisqa va uzun-cho'ziq tovushlar haqidagi tushunchani oydinlashtirar ekan, bolalar diqqatini musiqada chorakdan ham qisqaroq tovushlar uchrashiga jalb etadi. O'qituvchi nimchorak notalar uchraydigan tanish qo'shiqni doskaga yozib qo'yadi, bolalarga uni ohanggi bilan aytib beradi-da, bundagi eng qisqa notalarni ko'rsatishni taklif qiladi.

II-sinfda nimchorak notalar bilan tanishib boriladi, III-sinfda esa bolalar butun nota va o'n oltitalik nota haqida tasavvur hosil qilishadi. Bu sinfda endi noia chozimlari to'grisidagi lasavvurni yaqqol misollar asosida sistemaga solish mumkin.

Cho'zimlar nisbati sxema tarzida ko'rsatilgan plakatni sinfga olib kirish mumkin. O'quvchilar yangi cho'zim bilan tanishishlari bilanoq shu cho'zim darhol mashqlarga, diktant va melodik misollarga olib kiritiladi.

PAUZALAR

O'quvchilar 1-sinf dan boshlab notalar cho'zimini o'rganish bilan birga tegishli pauzalar bilan ham tanisha boradilar. Ular pauza tushunchasini qo'shiq aytishda biroz to'xtab o'tish (dam olish) sifatida osonlik bilan idrok etishadi. Uning ahamiyatini bolalarga tanishi bo'lgan, pauzalar uchraydigan (ammo ilgari bunga ularning diqqati jalb etilmagan) qo'shiq asosida tushuntirib berish ma'qul. O'qituvchi bu qo'shiqni doskaga yozib qo'yadi va yangi, notanish belgilarni-suqib alomatlarini ko'rsatib o'tadi. So'ngra, u qo'shiqni notaga qarab aytishni taklif qiladi va bolalar diqqatini qo'shiqdagi shu belgilarning o'rni qo'shiq aytishda salgina suqib qilishga, bir oz to'xtab dam olishga to'g'ri kelishini uqtiradi. O'qituvchi turli musiqa va qo'shiqlar misolida pauzalarning muhim ahamiyati va asarning o'ziga xos xususiyatini ifodalashdagi rolini ko'rsatadi. U, pauza asarni qismlarga bo'ladi, qo'shiq aytishda uchraydigan pauzalar vaqtida nafas olish oson bo'ladi va hokazo, deb tushuntirib beradi. O'qituvchi kuylash uchun mo'ljallanadigan mashqlardagi turlicha cho'zimda uchraydigan kuylarni tanlaydi. Ikki satrli mashqni bolalar bilan kuylash maroqli bo'ladi; bunda, yuqorigi satrni sinfning birinchi yarim, pastki satrni esa - ikkinchi yarmi qo'yiladi, deb uqtirib o'tiladi. Ular galma-gal kuylashadi. Bir guruh sukut qilganida (jim turganida) nota satriga pauzalar qo'yib chiqiladi:



Pauzalarning cho'zimlarini yaxshirok esda qoldirish uchun quyidagi jadvalni yozish foydali bo'ladi:




O'quvchilarga tubandagi mashqlarni bajarishni taklif qilish mumkin:

a) quyidagi ko'rsatilgan notalarga to'g'ri keladigan pauzalarni yozing:



b) cho'zimi jihatidan quyida ko'rsatilgan pauzalarga mos keladigan notalarni yozing:



NUQTALI PAUZA , NOTASI


3-sinfda o'quvchilar cho'zimlarning yana bir turi bo'lgan nuqtali nota - pauza bilan tanishadilar. O'qituvchi tushuntirib aytadiki, nuqta notaning tovush cho'zimini yarim marta oshiradi. Ma'lumki, shorak ikki nimchorakdan iborat, demak, agar chorak notaning o'ng tomonida nuqta bo'lsa, uning cho'zimi bir nimchorak oshadi.

Б)




Demak, oshqa nuqtali notalar quyidagicha cho'zimga ega bo'ladi:

v)



Deyarli ayni paytda tovushlarni bir butun qilib bog'laydigan belgi - **liga** haqida ham tushuncha beriladi. Masalan, liga orqali birlashgan bir xil balandlikdagi ikki tovush takrorlanmaydi, balki go'yo shakllanadi va jamlanadi hamda ikki tovush qancha davom etishi kerak bo'lsa, bir tovush ham shuncha vaqt davom etadi:



Bundan tashqari, agar liga balandlik jihatidan turlicha bo'lgan ikki (yoki undan ortiq) tovushni birlashtirsa, u boshqa ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bu holda liga tovushlarini bir-biriga bog'lab ijro etish (legato), qo'shiqda esa bu tovushlarni bir bo'g'in singari aytish kerakligini ko'rsatadi:



Liga tufayli nuqtali notaning boshqa bo'lishi mumkin. O'qituvchi nuqtali notaning aniq ma'nosini qo'shiq misollarida ko'rsatib beradi.

Shunday qilib, biz notalar yozuvi bilan bog'liq bo'lgan asosiy ish metodlarini ko'rib chiqdik. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bolalar nota yozuvi bilan tanisha boshlagan paytdayoq ulardan har xil nota belgilarini to'g'ri aniq va chiroyli ifodalab borishni talab etish zarur. Nota yozuvini mashq qildirish maqsadida uyda bajarish uchun bolalarga turli vazifalarni topshirish ma'qul. O'qituvchining nota yozuvi o'quvchilarga namuna bo'lishi, ya'ni nota yo'llarini to'g'ri chizishi, notalarni aniq-ravshan va chiroyli qilib yozishi kerak. Sinfda ishlash uchun oldindan tayyorlab qo'yilgan mashqlar chiroyli, ravshan va yaqqol ko'rsatilgan jadvallarni olib kirish yaxshiroqdir.

O'LCHOV, TAKT VA TAKT CHIZIQI

Bolalarda ritm tuyg'usini o'stirish ustida olib boriladigan ish, ularni nola cho'zimi bilan tanishtirish tufayli bolalar musiqadagi o'lchovni, shuningdek, takt va takt chizig'ini idrok etishga tayyorlana borishadi. O'qituvchi, musiqada kuchli va kuchsiz hissalarining

almashinib turishi o'lchovni belgilaydi, deb tushuntirib beradi. Masalan, agar bitta kuchli hissa bilan bitta kuchsiz hissa almashinayotgan bo'lsa, bu ikki hissali o'lchov hisoblanadi, bitta kuchli hissa bilan ikkita kuchsiz hissaning almashinib turishi uch hissali o'lchovni tashkil qiladi.

II sinfda o'lchov bilan tanishuv eng oddiy va ko'pincha quyi sinflarga bor qo'shiqlarda uchraydigan 24 ikki hissali o'lchovdan boshlanadi.

Bolalarni o'lchov va takt tushunchalari bilan tanishtirishning turli metodlari bor. Eng oddiy metod – she'r so'zlaridagi urg'ular bilan musiqa notasidagi urg'ularni qiyos qilib ko'rsatishdir. Avvalo o'qituvchi bolalarga qo'shiq so'zlarini o'qib, urg'uli bog'inlarning tagini chizib chiqishni taklif etadi. Qo'shiq so'zlari doskaga yozib qo'yiladi, urg'uli bo'g'inlar alohida belgi bilan ko'rsatiladi.

So'ngra o'qituvchi qo'shiqning notasi va so'zlarini doskaga yozadi, musiqada urg'uli bo'g'in oldiga maxsus belgi qo'yilishini, ya'ni nota yo'li ustida yuqoridan pastga qarab chiziq tortilishini tushuntirib beradi:



Urg'u tushadigan barcha bo'g'inlar oldiga shunday chiziqchalarni qo'yib chiqar ekanmiz, qo'shiq kuyni qismlarga bo'lamiz, bu qismlar taktlar deb, chiziq esa - takt chizigi deb ataladi.

O'quvchilarning ana shu tushunchalarni yaxshiroq o'zlashtirishlari uchun bir necha xilma-xil mashqlarni bajarish mumkin:

- ilgari o'rganilgan qo'shiqlardagi urg'u tushadigan bo'g'inlarni (kuchli hissalarini) aniqlash va takt chiziqlarini qo'yib chiqish;
- O'qituvchi musiqa asbobida ikki o'lchovdagi p'esani chaladi, o'quvchilarga esa sekin ovoz bilan bir-ikki, bir-ikki, ... deb sanashni taklif etadi.

O'qituvchi oxirgi mashqni bajarar ekan, ovoz chiqarib sanash musiqa tinglashga xalaqit berishini, qo'shiqlarni ijro etishda esa o'quvchilarning ayni paytda kuylash va ovoz chiqarib sanash qiyinligini uqtirib o'tadi. Shu sababdan, deydi u, musiqada sanoq uchun qo'llarning alohida harakatlaridan foydalanilmadi, ya'ni dirijyorlik qilinadi yoki, to'g'rirog'i taktlarni qo'l haracatlari bilan ifodalash usuli qo'llaniladi. O'qituvchi qo'l bilan pastga ishora qilib, taktning kuchli hissasini va yuqoriga ishora qilib, taktning kuchsiz hissasini oddiy harakatlar bilan ko'rsaladi, so'ngra o'quvchilarga shu harakatlarni takrorlashni taklif etadi. Dastlab ular ovoz chiqarib, bir-ikki deb sanab, musiqasiz dirijyorlik qilishga o'rganishadi, keyin o'qituvchi fortepiyanoda tanish kuylarni cinaladi, o'quvchilar esa taktlarni ifodalashadi. Natijada ular ilgari o'rganib olingan qo'shiq va mashqlarga ayni paytda dirijyorlik qila bilishlari va ularni kuylay olishlari kerak.

Materialni mustahkamlash uchun o'qituvchi bolalarga tegishli

mashqlarni bajarishni taklif qiladi va dirijyorlik ishora-sxemalarini ko'rsatadi:



Tegishli o'lchovni o'rganish paytida uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab, shu o'lchovni asrlarning badiiy obrazi bilan bog'lash kerak.

O'quvchilarni yangi o'lchov bilan tanishtirilar ekan, endi uni ma'lum bo'lgan o'lchov bilan taqqoslab ko'rish tavsiya etiladi. Bu usul ularning turli o'lchovlarni yaxshiroq anglab olishlariga yordam beradi. Oqituvchi ikkita musiqa misolini chalib beradi va uni eshitib olib, shu misollarning o'lchovini aniqlashni taklif etadi. U birinchi misolning o'lchovini aytib berishi mumkin, ikkinchi misolning o'lchovini esa bolalarning o'zlar aniqlashlari zarur. Boshqa paytda o'quvchilarning o'lchovni mustaqil ravishda aniqlashlari uchun o'qituvchining chalib beradigan misollaridagi o'lchovni aytib bermasligi mumkin. Buning uchun ular o'qituvchi chalayotgan vaqtda qalam bilan partaga chertmak chalishlari mumkin, so'ngra o'quvchilardan biri birinchi misolning o'lchovini, yana biri ikkinchi misolning o'lchovini aytib beradi.


Boshqa bir mashq quyidagidan iborat: turli o'lchovdagi ikkita misol doskaga (yoki jadvalga) yozib qo'yilgan bo'ladi; o'qituvchi shu misollardan birini chaladi, o'quvchilar esa qaysi misol chalinganligini topishib, uning o'lchovini aytib berishadi.

O'qituvchilar o'lchov tushunchasini o'zlashtirib olishgach, ularga takt oldi (to'liqsiz takt) ni tushuntirib berish mumkin. Qo'shiqni ijro etishda takt oldi (taktning kuchli hissasiga nisbatan ancha yengil va kuchsizroq bo'lishi uchun to'liqsiz takti bilib olish zarur. O'qituvchi takt oldi bilan boshlanadigan tanish qo'shiqdan misol tariqasida foydalanib, diqqatni takt oldining bir tovushdan yoki bir necha tovushdan iborat bo'lishi mumkinligiga jalb etadi.

TONIKA TUSHUNCHASI

Musiqa savodining muhim bo'limlaridan biri - asosiy lad (parda) bog'lanishlarni o'rganish hamda parda turlari va ularning tuzilishi (major va minor) bilan, tonlik (ohangdoshlik) lar va intervallar haqidagi tushuncha bilan tanishishdir. Aniq-sof talaffuzga erishish uchun bolalarda ladni bilish tuyg'usini o'stira borish zarur boshlanmog'i kerak.

II -sinfdagi o'quvchilarga melodik parchani kuylayotgan yoki chalayotgan o'qituvchi to'xtalib o'tadigan boshlama tonning keskin tortilishini ifodalaydigan bir qancha misollardagi tonikani oxirigacha aytish taklif qilinadi:



1.

2.



Ammo bolalarga hali tonika haqida tushuncha berilmay, ularning diqqati o'rnashgan va o'rnashmagan tovushlarga, bu tovushlarning bir-biri bilan bog'lanishiga, o'zaro bir-biriga tortilishiga jalb etiladi, xolos. Birinchi navbatda bolalarda tonikani, ya'ni ladning baland-pastligini (tonligini) belgilaydigan asosiy, markaziy tovushni eshitish sezgisini hosil qilish zarur; bu tovush kuyda xotima tovushi bo'lib, ladning qolgan tovushlari, aniqsa boshlama ton shu tovushga tortiladi.

Buning uchun bolalar melodiya tizimning tugalligi va notugalligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari kerak. O'qituvchi shunday musiqa misolini tanlaydiki, bunda bir tarkib tonikada o'rnashmagan bo'lishi, boshqa bir tarkib esa – o'rnashgan bo'lishi lozim. U bolalarga har ikkala musiqaviv tarkibini kuylashni taklif qilishi bilan birga, bulardan qaysi biri tugalloq, qaysi biri notugal eshitilishini so'raydi.


So'ngra o'qituvchi bolalarga notugal misolni takrorlashni va shu misol ham tugal eshitilmog'i uchun oxirgi tovushni topish haqida topshiriq beradi. Bunday mashqlarni butun o'quv yili davomida o'tkazish va topshiriqni asta-sekin murakkablashtira borish tavsiya etiladi. Avval boshda o'quvchilar keskin tortiluvchi boshlama tondan keyingi tonikani, undan keyin ladning boshqa bosqichlaridan sakramali bilib olishadi.

III- sinfda bu ish davom yettiriladi, natijada o'quvchilar musiqa asarini tugallaydigan tovushning t o n i k a deb atalishini bilib olishadi. O'qituvchi ikki misolni taqqoslar ekan. I- bosqichda - gammaning asosiy bosqichida tugaydigan misol tugal eshitilishini tushuntirib beradi. Bolalar endi Do major gammasini bilganliklari va kuylay olganliklari sababli, o'qituvchi ularning diqqatini, bu gamma tonika bilan - do notasida boshlanib, shu tonikada tugayotganligi uchun Do major deb atalishiga jalb etadi.

ALTERATSIYA BELGILARI. TON VA YARIM TON

Lad va tonikani o'rganishda endigi davr - alteratsiya (o'zgartma) belgilari bilan tanishishdir. Buning uchun sinfda ko'rsatma qurol -fortepiano klaviaturasi (klavishalari)ning katta qilib ishlangan jadvali bo'lishi zarur. O'qituvchi har bir oktavada 7 oq va 5 qora klavisha borligini ko'rsatadi. Bir oq klavishadan ikkinchisigacha bo'lgan oraliq har xil: agar shu klavishalar o'rtasida qora klavisha bo'lmasa - bu oraliq, oq

klavishadan qora klavishagacha bo'lgan oraliq kabi, yarim ton deb ataladi; agarda oq klavishalar o'rtasida qora klavisha bo'lsa, bu oraliq butun tonga teng bo'ladi:



So'ngra o'qituvchi oq klavishalarning o'z nomlari borligini, qora klavishalarning nomi yo'qligini, bularning oq klavishalar nomlariga bog'liq ekanligini tushuntirib beradi. Agar tovushni yarim ton ko'tarish yoki pasaytirish kerak bo'lsa, qora klavishalar ishlatiladi va qora klavisha qaysi tovushning ko'tarilayotganiga yoki pasaytirilayotganiga qarab nomlanadi. Buning uchun alohida belgilar bor: yarim ton ko'tarish belgisi **diyez** deb, yarim ton pasaytirish belgshisi **bemol** deb ataladi. Bu belgilar ko'tarish yoki pasaytirish kerak bo'lgan tovush (nota) oldiga qo'yiladi. Masalan:



Alteratsiya belgilari bilan bir necha dars davomida tanishib boriladi. Bunda bolalarning qandaydir ifoda yoki qoidalarni yod olishlari shart emas. Lekin ular qo'shiqdagi alteratsiya belgilarini amaliy ravishda topa bilishlari yoki maxsus mashqlardagi shu belgilarni qo'yib chiqq bilishlari va shu belgilarga muvofiq tovushlarni ovoz bilan o'zgartira olishlari lozim.

Alteratsiya belgilarini tushuntirishda agar biror belgi nota oldida tursa, uning ta'siri shu taktgagina yoyilishini, belgi kalit oldida tursa, uning ta'siri butun asarga yoyilishini ko'rsatib o'tish zarur.

Alteratsiya belgilarni yaxshiroq o'zlashtirish uchun o'quvchilarga birqancha mashqlarni bajarishni taklif qilish mumkin:

- a) quyidagi musiqa misolida pasaytirish belgisi bo'lgan notalarni topish, ularni klaviaturada (rasmda va fortepianoda) ko'rsatib berish kerak;
- b) birinchi oktavada: fa-diyez, lya-bemol, si-bemol, mi-diyez va hokazolarni notalar bilan yozish;
- v) unison tovushlar bilan alteratsiyalangan tovushlar taqqoslanadigan misollarni kuylash.

LAD. MAJOR VA MINOR

Tonika va alteratsiya tushunchalarini bilib olgandan keyin, Yevropa musiqasida keng yoyilgan asosiy ladlar - major va minor bilan bevosita tanishishga o'tish mumkin. Dastlab lad tuzilishini o'rib chiqish va esda qoldirish shart emas; bolalarni eshitib olib, major va minor ladlarini ajrata bilishga urgatish muhimdir. Buni ayni bir kuyni turli

ladlarda taqqoslab ko'rish yo'li bilan o'rganish osonroq bo'ladi. Har ikkala kuyni doskaga yozib qo'yiladi, o'qituvchi avval major ohangini, keyin minor ohangini kuylashni taklif qiladi:



U bolalarning diqqatini tovush yangrashining farqiga jalb etadi, ikkinchi hoida kuyning birinchi holdagiga nisbatan mayinroq eshitilishini uqtirib o'tadi. Kuylasli pardaning o'zgarishi tufayli shunday eshitiladi.

O'qituvchi ogohlantirib qo'yish niyatida shuni aytish kerakki, odatda, majorni shodiyona, xushchaqchaq lad sifatida, minorni esa hazin, mungli lad sifatida birmuncha soddalashtirib izohlanadi. Bunday tushuntirish uncha aniq emas, chunki jahon musiqa adabiyotida majorda namunalari ozmuncha emas (F.Shopenning b-moll sonatasidagi motam marshining o'rta qismi majorda «Во садули во огороде» degan quvnoq rus xalq qo'shig'i esa minorda yozilganligini eslaylik.) Shu sababli majorni va minorni ta'riflashda bularning latin tilidagi ma'nosiga asoslanish ma'qul: dur (major) qattiq, moll (minor) esa mayin degan ma'noni bildiradi, shu tufayli major ladi tovushini qattiq, minor ladi tovushini esa mayin tovush deb ta'riflash tavsiya etiladi.

O'qituvchi major va minor haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash uchun bolalarga juda xilma-xil mashqlarni berishi mumkin:

- a) o'qituvchining ijro etadigan kuyini eshitib olib, uning qanday ladda yozilganini aniqlaydilar;
- b) doskaga ikki kuyni(majorda va minorda yaratilgan kuylarni) yozib qo'yiladi, o'qituvchi bularning birini ijro etadi, o'quvchilar esa qaysi kuy va qanday ladda yozilganini aniqlaydilar;
- v) majorda yoki minorda yozilgan hamda major bilan minorni taqqoslab ko'riladigan melodiyalarni kuylash;

O'qituvchi o'quvchilarning tabiiy minorni o'zlashtirishlariga qarab ularni garmonik va melodik minor bilan asta-sekin tanishtira boradi. U har qanday yangi materialni ko'p sonli, asosan qo'shiqqa doir mashqlar, shuningdek, sinfda va uyda bajariladigan bir qancha yozma topshiriqlar asosida mustahkamlab boradi.

Bir oz keyinroq (V sinfda) o'quvchilarga major va minor tonliklarining yondoshligi va nomdoshligi to'g'risida tushuncha beriladi.

INTERVALLAR

1-sinfdanoq bolalar mashqni yoki qo'hiqni boshlash oldidan qo'shiq jo'rsiz ijro etiladigan paytda o'qituvchining ovozi bilan uning

sozini - uchtovushlikni ifodalashiga o'rganib qolishadi; o'quvchilar shu uchtovushlikni birgalashib takrorlashadi, undan keyin mashqni kuylashadi.

Yuqori sinflarda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan bir tovush-tonikadan boshlab mustaqil suratda sozni kuylashadi. Shu bilan birga, avval boshda ular major uchtovushligini, keyin minor uchtovushligini ovoz sozi bilan ifodalashga o'rganadilar. Shunday qilib, ularda intervallarni-katta va kichik sekundalar hamda tertsiyalarni talaffuz qilishga oid muayyan musiqa tajribasi yig'ila boradi. Bundan tashqari, qo'shiqlarda boshqa intervallar ham urchaydi. Shu sababdan V sinfdan intervallarni, ularning tuzilish xususiyatlarini o'rganishga kirishish mumkin.

O'qituvchi **interval** so'zi balandlik jihatidan tovushlar o'rtasidagi oraliqni bildirishini tushintirib beradi va o'quvchilarning hosil qilgan eshitish assotsiatsiyalarini anglab olishlariga oid ishga kirishiladi.

O'quvchilar 1 sinfdan boshlab tertsiyani sozlash tariqasida bilishadigan va eshitib olib uchtovushlik turlicha eshtiladigan ikki tertsiyadan iborat ekanligini izohlab beradi. U uchtovushlikni doskaga, yozib qo'ygach, o'quvchilar bilan birgalikda major uchtovushligida tertsiyaning nechta butun ton va nechta yarim tondan tashkil topganligini aniqlaydi. Birinchi tertsiya ikki tomondan, ikkinchi tertsiya bir yarim tondan iborat ekanligiga ishonch hosil qilingach, o'qituvchi, tertsiyalar sekundalar kabi katta va kichik bo'lishlari mumkin, deb xulosa chiqaradi.

Tanish qo'shiqlar intervallar ustida olib boriladigan ishda yordam qiladi. Pedagog bolalarga biror qo'shiqni esga olishni taklif etadi, uni doskaga yozib qo'yadi va qo'shiqning qaysi intervaldan boshlanishi sifatida kuylashni talab etadi.

Intervallarni izohlab berishda interval nomlarining matematik ma'nosini bolalarga tushuntirish va raqamli yozuvini ko'rsatish kerak. Masalan latince sekunda so'zi ikkinchi degan mamoni bildiradi, ya'ni u ikki yonma-yon tovush o'rtasidagi oraliqni belgilaydi va 2 raqami bilan ko'rsatiladi; **tertsiya**- uchnichi demakdir; u uch yonma-yon tovush (do, re, mi) o'rtasidagi oraliqni qamrab oladi va 3 raqami bilan ko'rsatiladi. Shu intervalning katta yoki kichik interval ekanligini ko'rsatadigan so'zning birinchi bo'g'ini ma'lum raqamdan keyin yoziladi: masalan, 2 kat-katta sekunda, 3 kich - kichik tertsiya. Raqamli yozuvni bilish diktantlar yozish paytida intervallar yozuvini osonlashtirishga yordam beradi.

Intervallarni o'rganish davomida o'qituvchi bolalardan nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, shu bilimlarni amalda qo'llana bilish ko'nikmalarini ham egallashni talab etadi. Ular berilgan notadan boshlab har bir yangi intervalni tuza bilishlari bilangina kifoyalanib qolmasdan, uni pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga qarata kuylashni ham, dastlab eshitib olib melodik bayon qilishni, so'ngra garmonik bayon qilishni ham topa bilishlari kerak.

Intervallar solfedjio (zam-zama) qilish malakalarini egallashga yordam beradi, shu sababli o'qituvchi o'quvchilarga turli topshiriq va mashqlarni berib borishi lozim intervallarni aniqlashga mo'ljallanadigan yozma va og'zaki diktantlar ham shular jumlasiga kiradi. O'qituvchi cholg'u asbobida bir necha intervalni chaladi, bolalar esa bularni raqamlar bilan yozishadi. Shu intervallarning hammasi tekshirib ko'rilgandan keyin, o'quvchilar ularni kuylashadi. Intervallarni melodik holatda tinglash osonroq bo'lgani uchun o'qituvchi avval ularni dastlabki shaklida chalib beradi. O'quvchilar buni yaxshi o'zlashtirgach, intervallarni garmonik holatda aytib turib yozdirish mumkin.

Materialni sinfda va uyda mustahkamlab borish uchun o'qituvchi yozma yoki og'zaki topshiriqlar bermog'i mumkin:

- a) birinchi oktavaning lya, re, fa, mi tovushlaridan intervallar tuzish;
- b) musiqa misolida uchraydigan intervallarni aniqlash;
- g) tanish qo'shiqlardagi, shuningdek notaga qarab o'rganib olinayotgan yangi qo'shiq yoki mashqlardagi kuyning interval tuzilishini aniqlash.

MUSIQA ASARLARINING TUZILISHI HAQIDA TUSHUNCHA

O'quvchilar qo'shiq o'rganib, turli musiqa asarlarini eshitar ekanlar, musiqa shakllari tuzilishining ba'zi printsiplari bilan tanisha borishadi. Bolalar qo'shiqlarida band shakli keng yoyilgan. Bolalar o'qituvchining: «birinchi bandni aytamiz» yoki «ikkinchi bandni takrorlaymiz» degan so'zlarini eshitar ekan, asarning bandlardan tuzilishi haqida tushuncha hosil qilishadi.

Bir qancha qo'shiqlarda **naqarot** ham bo'ladi. Ular bu terminni ham osonlik bilan esda qoldirishadi. Ular bu terminni ham osonlik bilan esda qoldirishadi. Dastlab o'qituvchi shunday terminlardan qo'llanadi, o'quvchilar esa hali bularning ma'nosiga tushunmasdan takrorlashadi. Lekin II sinfda o'qituvchi bolalarning diqqatini qo'shiqlarning tuzilishi har xil bo'lishiga jalb etadi. Ba'zi qo'shiqlarda ayni bir melodik material takrorlanadi-yu, faqat she'r so'zlari o'zgaradi. Boshqa xil qo'shiqlarda band ikki qismdan-musiqa jihatidan turlicha bo'lgan peshtalqin (qo'shiqning boshi) va qaytarma naqaratdan iborat, shu bilan birga, peshtalqin (qo'shiqning boshida) she'r so'zlari o'zgaradi, naqarotda esa, odatda, bir xil so'zlar takrorlanaveradi. Shunday qilib, ikki qismli shakl bilan ham tanishiladi.

Bir oz keyinroq bolalar uch qismli shakl haqida tasavvur hosil qilishadi; bu shakl o'rta va chetki qismlar o'rtasidagi musiqa materialining kontrastli (qarama-qarshi) taqqoslanishiga asoslanadi. Uch qismli shakldagi qo'shiqlar uncha ko'p uchramaydi, shu sababli bu shakl bilan, asosan, ko'pgina misollar topiladigan musiqa tinglash bo'limida tanishib chiqiladi.

Yuqori sinflarda o'quvchilar murakkab va katta asarlarni tinglab, rondo, variatsiya (xilma-xil tarona) lar, sonata allegrosi kabi musiqa shakllari to'grisida ma'lumot oladilar.

O'qituvchi faqat tegishli musiqa shakllarining tuzilish xususiyatlarini tushuntirish bilangina cheklanib qolmaydi, balki o'quvchilardan musiqa shaklini aniqlay bilish ko'nikmalarini egallashni ham talab etadi. Avval ular bu ishni o'qituvchining yordamida bajaradilar, undan keyin tegishli musiqa shakllarini mustaqil ravishda aniqlaydilar.

Quyi sinflarda bolalarning materialni qanchalik o'zlashtirganliklarini aniq bilib olish uchun o'qituvchi ularga p'esa ijro etilayotgan paytda yangi qism boshlanayotganligini ko'rsatib qo'l ko'tarishni taklif qiladi. Bu ishni shakli aniqlangan tanish asar misolida bajarish ma'qul. Keyinroq buni yangi asar asosida sinab ko'rish mumkin, ammo dastlab bu asarni bolalarga bir marta chalib yoki kuylab eshittirish kerak.

Musiqa savodini o'rganishda dinamika, temp, rang-barang tus berish, tovush yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari kabilarga taaluqli alohida belgilar va maxsus terminologiya bilan tanishishga katta o'rin beriladi. O'qituvchi 1 sinfdan boshlab crescendo, diminuendo, piano (p), forie (f), mezzo forte (mf) kabi belgilarning nomi va ahamiyatini bolalarga asta-sekin bayon qila boradi.

O'quvchilar tempga oid belgilardan qo'shiqlarda dam-badam uchraydigan Allegro, Moderato, Andante, Maestoso va boshqalarni bilishlari kerak.

Musiqqa savodini o'rganishning oxiriga kelib o'quvchilar qo'shiqni mustaqil tahlil qilib, uning ladi-pardasini, tonligini, o'lchovini, shaklini, tempini, dinamik tuslarini, ijro xarakterini aniqlay bilishlari, nota tekstida qanday qo'shimcha belgilar uchrashini va bularning nimani bildirishini oydinlashtira olishlari lozim. Notaga qarab qo'shiq aytish tobora tushunarli va jo'nroq bo'la boradi, demak, qo'shiq osonroq yodda qoladigan bo'ladi.

Tayanch tushunchalar:

Altrasiya – o'zgartirish ma'nosini bildiradi

Nota - latincha so'z bo'lib, belgi ma'nosini bildiradi

Pauza-tovush yangrashining vaqtincha to'xtalishi

Metr- kuchli va kuchsiz hissalarining tekis almashinib turishi

O'lchov - metr hissasining ma'lum bir cho'zimda ifodalanishi

Temp - harakat tezligi

Oktava-bir xil pog'ona (nom) dagi tovushlar oralig'i

Nazorat savollari:

- 1.Musiqqa savodi o'rgatishning maqsad va vazifalari qanday?
- 2.Musiqqa savodini o'rgatishning boshlang'ich davriga tushuncha bering
- 3.O'rta sinflarda musiqqa savodini o'rgatish uslublari haqida gapirib bering.

Mavzuni mustahkamlashga doir mustaqil ish namunalari

1. S.I. Musabekov «Musiqqa tarbiyasi» T.1973
2. K.Rahimov. «Elementar musiqqa nazariyasining asoslari» U-2004
3. V.A. Vaxrameev. «Musiqaning elementar nazariyasi»

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Omonullayev D. «Maktabda musiqqa tarbiyasi metodikasidagi lersiyalar kursi» T., 1990y.
2. Gudkova Ye.A., Vasilyeva A.B. «Ashula dars metodikasi» T.1983y.
3. Apraksina O. «Методика музыкального воспитания в школе» 1983
- 4.1-7 sinalar uchun musiqqa darsligi

5-MAVZU: Imumiy ta'lim maktablarida musiqa darslarini rejalashtirish

REJA:

1. Maktabda musiqa darsining roli
2. Musiqa darslarini o'qitishning ta'lim standarti
3. Musiqa o'qitishning asosiy yo'nalishlari, ilmiy-metodik ta'minoti va tashkiliy jihatlarini hisobga olgan xolda musiqa darslarini rejalashtirish

1. Umumiy ta'lim maktablarida musiqa darsini asosiy maqsadi – o'quvchilarga musiqa san'atini go'zallik qonunlari asosida o'rganish malakasini singdirish va ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdan iborat. Mazkur maqsad o'qituvchi oldiga o'quvchilarda musiqaviy-badiiy did va ahloqiy estetik xis-tuyg'ularni tarkib toptirish; ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; ularda musiqa san'atiga nisbatan qiziqishni va musiqaviy faoliyatida badiiy ehtiyojni kuchaytirish; musiqa savodxonligi madaniyatini shakllantirish; musiqa-davr, hayot, inson xis-tuyg'ulari va orzu-umidlari ifodasi ekanligi haqida tushuncha hosil qilish kabi qator vazifalar qo'yadi. Zero, musiqa kishilar hayotini, ularning xis-tuyg'ularini va orzu-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishi xis-siyotlariga faol ta'sir etadi. Bir so'z bilan aytganda, musiqa san'ati hayotni o'rganadi, tasvirlaydi va ifodalaydi. Shu boisdan musiqa o'quvchilarda estetik xis-siyotlarni tarbiyalash orqali ularning ma'naviy, g'oyaviy va ahloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirishda, ularda olijanob fazilatlarini kamol toptirishda ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur oliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish - musiqa faniga jamiyatni madaniyo ahloqiy rivojlantiruvchi omil sifatida qarash, predmet muammolarini xalq etishda keng o'qituvchilar ijodkorligiga tayanish, musiqa o'qitish uslubi-yatini ilg'or tajribalar va kompleks ilmiy -metodik izlanishlar natijasi asosida takomillashtirish talab etadilar.

2. Istiqloq sharofati bilan o'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda muhim siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar ro'y beradi. Xususan, «Ta'lim to'g'risida» qonun qabul qilinib, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim tizimi joriy etildi. Ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlari, shu jumladan musiqa predmeti bo'yicha ham yangi o'qitish kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Bu holatlar milliy musiqa ustuvorligi nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqilgan mazkur dasturda ham o'z aksini topdi. Jumladan, yangi dasturning tayanch nuqtalari quyidagilar bilan belgilanadi: avvalo saboqda musiqaning muayyan mohiyatini tushunishga yordam beruvchi darslarning muayyan mavzulari har bir chorak uchun belgilangan bosh mavzulardan kelib chiqadi. Ikkinchidan, musiqa tinglash, qo'shiq kuylash va musiqa savodi mashg'ulotlari darsning mustaqil qismi bo'lib emas balki dars mavzusini ochib beruvchi musiqa faoliyati sifatida qabul etiladi. Uchinchidan, dars mavzusining qiziqarli bo'lishi va ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida raqs va musiqali-ritmik harakatlar, chapakda va bolalar cholg'u asboblari-shiqildoq, doiracha, qo'shiq va boshqalarda musiqaga jo'r bo'lish hamda musiqa ijodkorligi kabi yangi musiqa faoliyatlari qo'llaniladi. Ushbu faoliyatlar zahirida o'yin xususiyatlari mavjudligi tufayli ular o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Binobarin, mashg'ulotlarda qo'llaniladigan barcha musiqa faoliyatlari dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan uzviy bulagi sifatida xizmat qiladi. Bu jihatdan «Musiqa madaniyati» predmeti kompleks (integral

chiziq aralash) dars tipi mavzuiga bo'y sunuvchi, o'zaro mantiqan bog'lanuvchi quyidagi musiqa faoliyatlariga amal qilinadi: musiqa idroki (tinglash), kuylash musiqa savodi raqs va ritmik harakallar, chapakda va cholg'ularda chalish, musiqa ijodkorligi va boshqalar. Musiqa idroki dars mashg'ulotlarida chalish, musiqa ijodkorligi va boshqalar. Musiqa idroki dars mashg'ulotlarida yetakchi faoliyat sifatida muhim o'rin tutadi. U ikki holatda amalga oshadi. Birinchi holatda – ma'lim asar tinglanib, idrok etiladi va uning badiiy jihatlari dars mavzuiga doir oddiy musiqiy pedagogik yusinda tavsif etiladi. Tinglash orqali asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi) hamda badiiy mazmuni haqida ma'lum bilimlarga ega bo'linadi. Ikkinchi holatda musiqa asarlari avval tinglanib, so'ng u yoki bu holati ko'proq kuylash orqali o'rganiladi, uning badiiy mazmun xususiyatlari amaliy faoliyatlarda ifodalaniladi. Masalan, o'rganiladigan qo'shiq avval o'qituvchi ijrosida yoki magnit tasmasi orqali bir-ikki marta tinglanadi, asar xususiyati haqida suhbat qilinadi, so'ng o'rganishga kirishiladi. Raqs musiqasi avval tinglanadi, kuy tavsiflari anglab olingandan so'ng, raqs harakatlari ifodasi o'rganiladi. Ko'pincha, asar bir necha faoliyat uygunligiga (tinglash, kuylash, raqs harakati va boshq.) o'rganiladi. Bunday mashg'ulot usuli asarni puxta o'rganish va ayni xolda kompleks malakalarning rivojlanishi uchun imkon yaratadi. Musiqa darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu zamirida mantiqan o'zaro bog'lanadi, natijada darsning mantiqan bir butunligi vujudga keladi. Musiqa savodi barcha faoliyatlarni nazariy jihatdan birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, kuylash, raqs va boshq.) qo'llanilmasin uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi va uning xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochiligi va h.k.) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqa savodi faoliyatida o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim tushunchalari majmuini musiqa shakllari, janrlari, cholg'uchilik ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, klassik musiqa, nota savodi va boshqalarni shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Shuni alohida ta'kidlamok zarurki, musiqa idroki va musiqa faoliyati o'zaro uzviy bog'lanishi bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga yetakchilik qiladi. Kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqa-o'quv qobiliyatini hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib, kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqaradi, o'rtoqlarining ijrolarini eshitib ko'zatadi va ular bilan bahamjihat jo'rnavozlik qilishga intiladi. Zotan, tinglash va kuylash, o'quv materiallari ta'lim mazmunini tashkil etadi. Ularni tinglash va kuylash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan birga cholg'uchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatlari bilan ham har tomonlama o'zlashtirish musiqiy tavsiflarni ushbu faoliyatlar vositasida ifodalash imkoniyatlari yaratiladi. Dasturda raqs va musiqali harakatlarga alohida o'rin berilgan. Bu faoliyatlar o'quvchilar musiqiy qobiliyatlari, xususan, ritm - chiziq usul tuyg'usi va asar badiyatini ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham muhimdir. Shu bois, musiqa o'qituvchisi milliy raqs san'atimizning oddiy harakatlarini bilishi va darsda qo'llash usulini puxta egallashi bugungi davr talabidir. Chapakda va cholg'u asboblari chalang faoliyati ham, raqs va musiqali harakatlar singari, o'quvchilarning musiqiy hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. Bu faoliyat boshlang'ich sinflarda milliy cholg'u asboblari bilan tanishish va ularning tovush tembrlarini anglab olish bilan uzviy bog'lanib amalga oshirilishi zarur. Bunda doirachalar, qayrok, kichiq safonlar kabi urma cholg'u

asboblaridan foydalanib, o'qituvchi ijrosiga doira chertib jo'rnavezlik qilish, sinf ijrosiga dirijyorlik qilish, kuy ohangiga mos harakatlarni, xususan, raqs harakatlarini topish, she'r parchasiga kuy bastalash kabi ijodkorlik bilan bajariladi. Bu faoliyat sinfdagi iqtidorli o'quvchilar e'tiborini -kuchaytirish, ularning badiiy extiyojini qondirish va badiiy rivojlantirish uchun ayniqsa muhimdir. Musiqali harakatlar, cholg'chlik va ijodkorlik faoliyatlarni amalga oshirishda o'yin uslublaridan keng foydalanishni tavsiya etadilar. Zotan, ushbu faoliyatlar zamiri ko'proq o'yin xususiyatlari bilan bog'liq. Dasturda tinglash va kuylash uchun asarlar talab darajasida berilgan. Bu o'quvchiga asarlarni sinf imkoniyatlari va o'quv yilining muhim sanalariga muvofiq tarzda tanlab o'qitish imkoniyatini beradi. Ayni bir paytda o'quvchi dasturga kiritilmagan, ammo badiiy yuksak, tarbiyaviy jihatdan muhim va o'quvchilar idrok - amaliyotiga mos bo'lgan yangi asarlardan keng foydalanish huquqiga ham egadir. Nota savodi, cholg'ucnulik raqs va harakatlar, shuningdek, musiqiy ijodkorligi faoliyati mashg'ulotlar mazmunida tavsif etilgan asarlar ham shartli ravishda berilgan. Dars sharoitiga qarab ularni almashtirish mumkin. Bu esa darslarni rejalashtirishga va darslarga tayyorgarlik ko'rishda ijodiy yondashishi takozo etadi. Bunda shu narsaga e'tiborini kuchaytirmok lozimki, garchi dasturda asarlar va mashg'ulotlar mazmuni har bir faoliyat turiga doir alohida-alohida ko'rsatilgan bo'lsa-da, ammo darslarni rejalashtirishda va ularni o'tishda musiqa faoliyatlari dars mazmunidan kelib chiqishi va uning mohiyatini ochib berishi lozim bo'ladi. Shunday qilib, darsda musiqa faoliyatlari mantiqan birlashib, mazmunan bir butunlikni tarkib toptiradi. Dars yakunida yil davomida musiqa ta'limi mazmunidan o'quvchilarning olishi zarur bo'lgan bilim va malakalar me'yori bayon etilgan.

3.Musiqa fanidan bir yilda ikki marta yarim yillik taxminiy-mavzuli ish rejasi va har bir darsga reja-konspekt tuziladi. Yarim yillik ish rejasi boshlang'ich va o'rta sinflar uchun alohida-alohida tuziladi. Bunda o'quvchilarni yoshi (sinf), ovoz diapazoni, musiqa qiziqishi qobiliyati, yil fasllari, bayramlar, yil, chorak dars mavzulari hisobga olinib, yangi dasturdan foydalanib dars strukturasi asosida tuziladi. Ba'zi qo'shiqlarni tinglash uchun asarlarni, o'qituvchi o'quvchilar istagi va yangi zamonaviy qo'shiqlar bilan dars rejasiga mos keladigan asarlarga o'zgartirish mumkin.

UMUMIY ORTA TALIMNING DAVLAT TA'LIM STANDARTI

Asosiy qoidalar:

1-jadval. I - IVsinflar

№	Ta'lim sohalari	O'quv fanlari	Sinflar				Xaftalik umumiy soat	Jami soat
			I	II	III	IV		
6		Musiqa madaniyati	1	1	1	1	4	135

2-jadval. I-IX sinflar

№	Ta'lim sohalari	O'quv fanlari	Sinflar										Xaftalik umumiy soat	Jami soat
			I	II	III	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX		
16	San'at	Musiqqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1	1	-	-	7	237

Musiqqa darslari asosan bir xaftada bir soat o'tiladi. O'quv yili davomida esa quyidagi tartibda:

I -chorak - 9 soat

II-chorak - 7 soat

III-chorak- 10 soat

IV- chorak-8 soat

Jami 1 yilda 35 soat dars utiladi. Shuningdek, har bir o'quv yilida 12-14 ta qo'shiq o'rgatiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosan, bir ovozli qo'shiqlarni (unisonda) kuylash malakalarini puxta o'zlashtiradilar va ayoni paytda ko'p ovozlikka o'tishga tayyorgarlik ko'radilar. 2-sinfning 3-choragidan boshlab dasturga 2-ovozli elementlari bor qo'shiqlar kiritilgan. Shuningdek, o'quvchilarni ko'p ovozlikka o'rgatish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar bu ishni birinchi sinfdan boshlash mumkinligini ko'rsatadi. Buni amalga oshirish uchun dasturdagi qo'shiqlardan o'qituvchining o'zi o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olgan xolda tanlab oladi. O'quv yili davomida yangi qo'shiqlar tupamlaridan turli jo'rnallarda berilgan qo'shiqlardan, radio va televideniye eshittirishlarida ijro etilayotgan yoki mualliflarning o'zlaridan olingan qo'shiqlardan o'quvchilarning yoshi va saviyasiga mos keladigan eng yaxshi bolalar qo'shiqlarini tanlab o'rganish mumkin. Dars samaradorligini oshirishda o'quvchilarni bilim va malakalarini baholash muhim pedagogik ahamiyatga egadir. Qo'shiq kuylash bilan birga, ularni ko'proq fikr bildirishga, baxsga tortishga va amaliy faoliyatga ko'proq jalb etish va odilona baholash lozim bo'ladi. Shunday qilib, musiqqa darslari, yangi dastur asosida rejalashtirilib, o'quvchilarni milliy musiqamizga mehr-muhabbat va qiziqish uyg'otishi lozim.

Tayanch tushunchalar:

Xalq musiqasi - xalqlarning cholg'u va vokal musiqqa ijodiyoti - musiqqa folklori.

Musiqqa asboblari – cholg'u musiqqa asboblari

Bolalar musiqasi - bolalarning ijrosi yoki tinglashi uchun muljallangan musiqqa

Bastakor- monodiya uslubida asarlar yaratuvchi ijodkor

Qo'shiq – she'r va quyi xalq tomonidan ijod qilinib va xalq orasida keng

tarkalgan janr

Bilish, anglash - dunyo haqidagi yangi bilimlar hisoblanadigan sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'sirini, vokelikning ruxiyatda qayta tasvir etilishi hamda aks yettirish jarayonidir.

Pedagogik muloqot - o'quv - tarbiya jarayoni davomida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchilar bilan kasbiy muloqoti hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Maktablarda musiqa fanini o'rganishdan maqsad nima?
2. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini musiqa darsidagi mohiyati nimadan iborat?
3. Musiqa darsni rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berilishi kerak?
4. Boshlang'ich sinfda dars strukturasi necha faoliyat turidan iborat?
5. O'rta sinfda dars strukturasi necha faoliyat turidan iborat?

Mavzuni mustahkamlashga doir mustaqil ish namunalar

1. Rajabov S.R. «Tarbiya va o'qitish haqida klassik ta'limot» «Fan» T., 1971.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X.Nurmatov., Mamirov K. «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi» T., 1999 y.
2. Omonullayev D. «O'zbek maktablarida musiqa ta'limi mazmuniga bo'lgan zamonaviy talablar» nomli ilmiy ishi T., 1990 y.
3. D.Omonullayev «Umumiy ta'lim maktablarida musiqa dasturlari» T., 1992 y.
4. Dastur T., 1997. «Musiqa tarbiyasi metodikasi»

6-Mavzu: «Vokal-xor malakalari va ularning ahamiyati» REJA:

1. Honandaning turish holati
2. Nafas
3. Tovusn hosil qilish
4. Tovush yo'nalish turlari
5. Diktsiya
6. Ansambl

Xor kollektivining ijrochilik madaniyati honandalarning vocal (ashula) va xor ijrochiligi mahoratlariga bog'liq. Vokal mahoratiga honandaning turish holati, nafasi,

tovush hosil qilishi va talaffuzi kiradi. Xor ijrochiligi mahorati ovoz sozlanish va ansambl bo'lib birikishi (qo'shilish)dan iborat.

1. Honandaning ideal turish holati tik turgan xolda ijro etish hisoblanadi. Lekin uzoq davom etuvchi repetitsi yalarda xor utirgan xolda mashg'ulot o'tkazish mumkin. Bunday xollarda xorning har bir honandasi gavdasini to'g'ri va erkin tutishi, yelkalari tik, qo'llari pastga tushirilgan bo'lishi kerak.

Yuz, bo'yin, yelka mushaklari erkin holatda bo'ladi. Ijrochilik vaqtida boshni orqaga tashlamasdan to'g'ri tutish, yuzni burishtirmaslik, pastki jagni siqmaslik zarur. Honandaning to'g'ri turish holati to'g'ri nafas olish va tovush hosil qilishga imkon beradi.

O'tirib kuylash holatida bosh va gavda to'g'ri va erkin tutilishi, oyoqlarni yerga to'g'ri burchak qilib bosish, qo'llarni esa tizzalarga erkin qo'yish lozim. Agar gavda bush, bel egilgan holatida bo'lsa, ovoz. kuchsiz, yokimsiz chiqadi. Shuning uchun bo'yinni, boshni bemalol tutish kerak. Xalqum va pastki jag' tomoqni siqmasligi, bosh (shuningdek, til, ogiz, yuz) erkin tutilishi kerak. Shuningdek, yuzda zo'riqish alomatlari sezilmasligi kerak. Umuman, xorning turib kuylashi eng qulay holat hisoblanadi. Ba'zi raxbarlar ovoz apparatini qizdirish protsessini turib (15-20 minut) qo'shiq o'rganishda o'tirib va o'rgatilgan asarni turib kuylashni afzal ko'radilar.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, mashg'ulotni boshdan-oyoq turib o'tkazish honandalarni jismoniy toliqtiradi. Mashg'ulotni o'tirib o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Faqat yuqoridagi ko'rsatmaga rioya qilish kerak. Honandalarning to'g'ri kuylash, o'tirish holatini xor rahbari doimo nazorat qilib turishi kerak.

II. Nafas. Honanda kuylash vaqtida, tovush hosil qilishda nafasni to'g'ri yo'lga qo'yishi muhim rol o'ynaydi. «Kuylash san'ati nafasni to'g'ri ishga solish san'atidir» - degan ibora klassik ibora bo'lib qoldi. Kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas orasida ma'lum darajada farq bor. Fiziologik nafasda nafas olish aniq bir ritmda ma'lum bir vaqt oraligida sodir bo'ladi.

Kuylash vaqtidagi- xavo olish tez, qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'lib nafas chiqazish esa bir qancha vaqtga cho'ziladi. Nafas ritmi ijro etilayotgan asar xarakteriga qarab o'zgarib turadi. Kuylashda fiziologik nafasga qaraganda chuqur nafas olinadi. Kuylashdagi nafas olishning bir necha turlari bor:

1. pastki qovurg'alar kengayuvchi nafas olish;
2. elka kengayuvchi nafas olish;
3. qorin bilan nafas olish (diafragma pastga tushadi)
4. ko'krak bilan nafas olish (ko'krak qafasining yuqori qismi ko'tariladi)

Kuylash vaqtida nafas olishning pastki qovurg'alar kengayuvchi nafas olish va qorin bilan nafas olish turlarini ishlatish ma'quldir. Diafragma odam organizmida ko'krak va qorin bo'shlig'ini ajratib turadi. Pastki qovurg'alar va diafragma vositasida nafas olishda nafas olish va chiqarish diafragma orqali tartibga solinadi. Bu shunday sodir bo'ladi:

Honanda xuddi «gul xidlaganday» nafas oladi. Bunda o'pkalar kengayib, pastki qovurg'alarni tashqi tomonga suradi va diafragma pasayadi, natijada qorinning devori oldinga shishib chiqadi. Yelka va ko'krakning yuqori qismi bu xolda o'zgarmaydi. Nafas olish chuqur, to'liq va eng asosiysi, shovqinsiz bo'lishi kerak. Nafas chiqarish qorin tarang qobig'ining harakati bilan boshqarilib, xavo yuqoriga yo'naladi va ovoz pardalarini tebranishga undaydi. Pastki qovurg'alar va diafragma asta-sekin o'z holatiga qaytadi.

Honandalarini to'g'ri nafas olishga o'rgatish xorda vokal ustida ishlashning eng zarur qismidir. Nafas olish xorda bir vaqtda sodir bo'lishi mumkin. Bu xolda xor ishtirokchilari baravariga nafas olishlari kerak. Agar musiqa asarlarida uzoq davom etuvchi kuy jumalari bo'lsa, xor yoki xor partiyalarini uzluksiz sadolanishini ta'minlab beruvchi ulama nafas qo'llaniladi.

Bu xolda honandalar navbatma-navbat nafas oladilar va bu o'z navbatida o'z partilariga juda extiyotkorlik bilan sezilmas darajada qo'shilishlarini talab qiladi. Aks xolda ansamblbirligi buzilishi mumkin. Ba'zi asarlar boshdan oxirigacha «ulama nafasda» (цепное дыхание) ijro etishni talab qiladi.

III. Yuqorida aytilganidek, tovush nafas va ovoz apparatlarining harakati natijasida hosil bo'ladi. Tovush xavoning yopiq holatdagi ovoz teshigi orqali o'tganda ovoz pardalari tebranishi vaqtida yuzaga keladi.

Tovushning paydo bo'lish vaqti «tovush xujumi» (атака звука) deyiladi. Ovoz pardalarining jipsligiga, nafas chiqarishning kuchi va xarakteriga qarab tovush xujumi qattiq, mayin va nafas olishdan keyingi xujum bo'lishi mumkin. Tovushning yumshoq xujumida ovoz pardalari nafas chiqarish boshlanishi bilan ochiladi.

Chiqayotgan xavoning ovoz pardalariga yengil tegib o'tishi natijasida juda yumshoq «Egiluvchan tovush» hosil bo'ladi. Tovushning qattiq xujumi nafas chiqarish oldidan ovoz pardalarining zich yopilishi natijasida hosil bo'ladi.

Nafas olishdan keyingi xujumda esa ovoz pardalari nafas chiqarish boshlagandan keyin birikadi va natijada tovushdan oldin nafas chiqarishda unsiz «x» eshitiladi.

Qo'shimcha tovushlar hisobiga tovush o'zining sofligini yo'qotadi, ovoz pardalari esa bo'shashib qoladi. Honandalar amalda tovush xujumining hamma tiplarini bilishi kerak. Lekin eng ma'quli «yumshoq tovush xujumi» hisoblanadi. Bu tipdagi tovush xujumi honandani erkin, o'zini zo'rlamasdan kuylashga va ovoz apparatini uzoq muddatga sog'lom tutishiga imkon beradi. O'zni kelgan vaqtda har bir tipdagi tovush xujumini ishlatish mumkin. Misol uchun, kuy orqali nafrat, qo'rquv, jaxl, iztirob kabi tuyg'ularni ifodalashda katta xujumli tovushdan, kuchsizlik, darmonsizlik, qo'rqqoqlik va boshqa shunga o'xshash tuyg'ularni ifodalashda esa nafas olishdan keyingi xujumli tovushdan foydalaniladi. Honanda ovozi yuzaga kelishidan boshlab (xujum tipidan qat'iy nazar) o'zining aniq balandligiga, kuchiga, tembriga, aniq unli formasiga (shakliga) ega bo'lishi kerak. Bu shartlar tovush hosil qilishning asosiy qoidasi bo'lib, xor ijrochiligida alohida ahamiyatga ega. Xalq honandalari odatda «ochiq» (ko'krakdan) tovush hosil qilish usulini qo'llaydilar.

Bunda tovush aniq chegaraga ega bo'lmasa-da ijrochiligi uchun bir xil uslub tanlanishi kerak. Agar akademik ijrodagi xorning bir qismi «ochiq» tovush bilan kuylasa ansambl buzilishi mumkin.

IV. Xor ijrochiligida tovush yo'nalishining legato, non legato, staccato turlari ishlatiladi. Legato tovushlarining bir-biri bilan uzluksiz bog'langan harakati bo'lib, har bir tovush keyingisiga osoyishta va aniq harakatda o'tishi kerak. Legato qilib ijro etishga misol tariqasida rus xalq lirik qo'shiqlarini eslatish mumkin. Portamento (portamento) turdagi tovush yo'nalishida tovushlar bir-biriga sirgalib o'tadi. Bu kamchilik, tajribasiz ijrochilarga xos bo'lib xorda ishlatish mumkin emas. Chunki u tovush intonatsiyasida noaniqliklarga olib keladi. Stakkato (stakkato) - tovushlarni vaqt oralab alohida-alohida ijro etish. Stakkato tovushlari oralig'ida nafas olinmaydi. Stakkato

tovushlari yo'nalishida honanda ovozi yengil, erkin, buqiluvchan va qisqa eshitiladi.

Non legato - tovushlarni aniq va bir-biridan ajralgan xolda ijro etish turi bo'lib tovushlar orasida nafasni ushlash orqali hosil qilinadi. Tovush yo'nalishining bu turi slakkato va legato turlarining oralig'idagi o'rinni egallagan, ularning har biriga o'xshash tomonlari bor.

V. Xor ijrochiligida honandalarni to'g'ri diktsiya (latincea diction - nutq talaffuzi) ya'ni adabiy tekstni aniq va ravshan talaffuz qilish talab qilinadi. Tovush o'rning to'g'riligi va nafas aktivligi diktsiyaga bog'liq. Tantanavor, qahramonlik, dramatik xarakter dagilari esa mayin talaffuzga mos keladi. Yomon diktsiya xor quyi ifodaviyligi va mazmunini susaytiradi. Xor diktsiyasi nutq organlarining ishlash qobiliyatiga, ya'ni til, lablar, yumshoq tanglay, pastki jagdan iborat artiqulyatsiya apparatining ishlash qobiliyatiga bog'liq. Aktiv harakatchan artiqulyatsiya vokal texnikasining asosiy elementlari hisoblanadi. Artiqulyatsiya apparati sog'lom to'g'ri joylashgan va o'z vazifasini to'g'ri bajara oladigan bo'lishi kerak. Artiqulyatsiya apparatining kamchiliklari maxsus mashqlar orqali bartaraf qilinishi mumkin. Bunday kamchiliklarga ayrim harflarni almashtirib noto'g'ri talaffuz qilish kiradi. Bu kamchiliklar artiqulyatsiya apparatining (ayniqsa bolalarda) sust harakat qilishi natijasida sodir bo'ladi. Vokal nutqi ifodali va «jonli» bo'lishi kerak. Ayrim inli tovushlar honanda ovozi sadosi cho'ziqligi, kuchi va rang-barangligini ta'minlasa, undosh tovushlar esa asarning badiiy teksti mazmunini tushunarli va emotsional qilib ifodalashga imkon beradi.

Asarni xor bilan tayyorlash jarayonida musiqa bilan bir vaqtda adabiy tekst ustida ham ish yuritish kerak. Asar mazmunini chuqur anglash, asosiy g'oyasini yuzaga chiqarish va ularni aniq va ravshan diktsiya orqali tinglovchilarga ifodali qilib yetkazish bilan bog'liq bo'lib, asarni xor bo'lib badiiy ijro etishning zaruriy shartlaridan biridir.

IV. Ansambl so'zi frantsuzcha so'z bo'lib, u «birgalikda» degan ma'noni bildiradi. Ansambl musiqada, baletda arxitekturada qo'lianiladi. Xor san'atida ansambl ayrim honandalarning, xor partiyalarini, butun xorning birgalikdagi muvozanatli sadolanishidir. Bu demak, har bir honanda faqat o'z partiyasinigina emas, balki butun xorni eshita bilish va o'z ovozini umumiy sadoga qusha bilishi kerak.

Xor ijrochiligida badiiy ansambl turli ayrim ansamblardan tashkil topadi:

1. ritmik ansambl - ijroning ritmik birligi;
2. dinamik ansambl - sadolanish kuchiga ko'ra ovozlarning qo'shilishi;
3. tembr ansambl - ovozlarning tembriga ko'ra qo'shilishi;
4. sur' at ansambli - ijroning sur'at birligi;
5. garmonik ansambl - ovozlarning akkord, hamohanglikdagi muvozanatli sadosi;
6. diktsiyali ansambl - adabiy tekst (matnni) kelishib talaffuz etish;
7. Intonatsiyali ansambl - tovush balandligini aniq sadolantirish;
8. Sun'iy ansambl (Искусственный ансамбль) ovozlari har xil tessitura sharoitida bo'lganda qo'llanadi. U vaqtda, sadolanishni me'yoriga yetkazish uchun ovoz kuchi sun'iy burttiriladi yoki aksincha susaytiriladi.

Tessitura sharoiti taxminan bir xil bo'lsa, ya'ni barcha xor katnashchilari, zo'r bermasdan past yoki yuqori kuylasa, yoxud barcha ovozlari o'rta registrlarda bo'lsa, tabiiy ansambl (естественный ансамбль) ortiqcha harakatsiz hosil bo'ladi. Ko'rsatilgan

ansambllardan birining buzilishi umuman xor sadolanish ansamblining buzilishiga olib keladi. Yagona badiiy-ijrochilik ansambliga erishish, xormeysterning eng qiyin vazifalaridan biridir.

Tayanch tushunchalar:

Ansambl- so'zi frantsuzcha so'z bo'lib, u «birgalikda» degan ma'noni bildiradi

Tessitura – cholg'u asbobi yoki kishi ovozining biror musiqa asarida ishlatilgan eng pastki va yuqorigi tovushlari oralig'i (xajmi)

Divizi- italyancha «**divisi**» - bo'linish, ajralish, qisqartirilgani -div.

Diapazon - yun. Diapazon hamma torlararo ovoz va musiqa asboblaridagi eng pastki va eng yuqorigi tovush oralig'i

Nazorat savollari:

- 1.Musiqa darslarida vokal - xor malakalari qanday ahamiyatga ega.
- 2.Vokal-xor malakalarini qanday turlari mavjud?
- 3.Badiiy ansambl qanday ansambllardan tashkil topadi?
- 4.Kuylash vaqtida nafas olish turlari
- 5.Xor ijrochiligida tovush yo'nalishining turlari
6. «Ansambl» so'zi nimani anglatadi?

Mavzuiti mustaqil mustaxkamiashga cloir mustaqil ish namunalari

- 1.Qo'ldashev L. «Maktabda xor to'garagi» 1975 y.
- 2.D.E.Ogorodnov. Преложение 132 –150.«Музыкально-певческое воспитание детей в общеобразовательной школе»
3. Qodirov R. «Boshlang'ich maktabda ko'p ovozda kuylash» T.,- 1997 y.
4. L.G.Dmitriyeva, N.M.Chernoivanenko. «Методика музыкального воспитание в школе» 94-111 betlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N. Sharafiyeva .«Xorshunoslik»
2. Sh.Ro'ziyev.«Xorshunoslik»
2. Ye.A.Gudkova, A.B.Vasiieva «Ashula darslari metodikasi»
4. S.Sizikova «Хоровое пение в начальных классах»
5. Dmitriyeva G. Chernoivanova « Методика музыкального воспитание в школе ».

7-MAVZIJ: «Ashulachilik apparatining tuzilishi va ahamiyati» REJA:

- 1.O'pka va nafas yo'llari
- 2.Hiqildoq
- 3.Rezonatorlar
- 4.Bolalar ovozi va ularning xarakteristika
- 5.Ovoz gigiyenasi
- 6.Mutatsiya

Akademik I. Pavlovning «Oliy nerv sistemalari va shartli reflekslar» dashu aniqlanadiki odam tanasidagi hamma organlar ovoz hosil qilishda hamda markaziy nerv sistemalari ishtirok etadi. Shunday qilib, ashula kuylash eng murakkab psixologik va fiziologik jarayondir.

Insonning ovoz apparati o'ziga xos murakkab «musiqa asbobi» bo'lib, u o'zining rang-barang tembr boyligi, nixoyatda nozik musiqa ifodalash xususiyatlariga egaligi bilan hamma musiqa asboblardan ustun turadi. Chunki kishi ovozi kuy va so'zni organik payvandlash natijasida musiqiy nutqning asl ma'nosini ochib beradi. Bu borada inson ovozigacha teng keladigan birorta ham musiqa asbobi yuk. Shuning uchun ham inson ovozi ko'pincha «gapiruvchi musiqa asbobi» deb ham yuritiladi. Har bir bo'lg'usi musiqa o'qituvchisi ovoz apparatlarini to'g'ri kuya bilishi va rivojlantirishi shart. Tovush hosil bo'lishi ovoz apparatining harakati natijasida sodir bo'ladi. Bu apparat uch qismdan iborat:

- 1.Nafas organlari
- 2.Hiqildoq (ovoz pardalari joylashgan qism)
- 3.Rezonatorlar (yutkin,ogiz va burun)

I. O'PKA VA NAFAS YO'LLARI

Insonning o'pkasi ko'krak nafasining ko'p qismini egallagan bo'lib, 2 ta surgichsifat va konus shaklidagi million o'pka sharchalaridan tashkil topgan - alveol, odam organizmini keraqli kislorod bilan ta'minlaydi. Bu alveollar mayda kanallar bilan boshlangan bo'lib sekin rivojlanib bronx sistemasini tashkil qiladi. O'pkaning ichki tuzilishi tursimon kon arteriyalardan tashkil topgan. O'pkaning ishlash jarayoni uch qismdan iborat:

- 1.Nafas olish
- 2.Nafas chiqarish
- 3.Nafas olishdan oldin dam olish(pao`za)

II. Hiqildoq - ovoz paydo qilish apparati vazifasini bajaradi. Hiqildoq uzluksimon, qalqonsimon va ikkita shoxsimon (uchburchak) togaylardan iborat bo'ladi. Ular muayyan musqullar yordamida oldinga va orqaga harakat qiladi. Kalkonsimon togayning pastki, uzluksimon togayning xalqa qismi ustidagi pardalar elastik tolalardan tuzilgan. Tomoqning xalqum devorlari tomonidan nafas (burundan keyingi) yo'li boshlanadi, ovoz ravogiga takaladi. Ovoz ravogining har ikkala chetida juda nozik tola to'qimalardan iborat ovoz pardalari joylashgan. Odam ovozi juft va tok hiqildoq togaylari pardalarining musqullari yordamida bir-biri bilan birikishidan hosil bo'ladi. Nafas orqali chiqayotgan

xavo hiqildoqdagi togaylar orasida tortilgan ovoz pardalariga urilib tebratadi va ovoz chiqaradi.

Tovushning baland-pastligi, yo'g'on-ingichkaligi hiqildoq bushligining katta-kichiqqligiga, pardalarning tarangligiga, ularning uzunligi va qalinligiga, til, xalqum-hiqildoq musqullarining qisqarishiga bog'liqdir. Ovoz pardalari latincha «lig vocale» deyiladi. Bu pardalar yuqori va pastda joylashgan bo'lib, yuqoridagisi soxta, pastdagisi esa chin ovoz pardasi deyiladi. Ayollarning xikildogi erkaqlarnikiga qaraganda yuqoriroqda, bolalarniki esa undan ham yuqoriroqda joylashgan bo'ladi.

Keksalarning xiqildogi esa o'rta yoshli kishilarga qaraganda pastroqda joylashgan. Shuning uchun ham ovozlar past-baland bo'ladi. Shuni ham aytish kerakki, kishi erkin nafas olib, nafas chiqarayotganda ovoz chiqmaydi, chunki bunday vaqtda ovoz ravogi erkin xolda bo'lib, ovoz pardalari taranglashmagan, deyarli harakatda bo'lmaydi. Ovoz ravogining toraya boshlashi bilan tovush boshlaydi.

III. REZONATORLAR

Rezonatorlar yuqorigi va pastki qismlardan iborat bo'lib, ular ovoz pardalarining yuqorisi va ostida joylashadi.

Yuqorigi ovoz rezonatorlariga yutqin, ogiz va burun bo'shliqlari, pastki (ko'krak qismi) ovoz rezonatorlariga traxeya va bronx bo'shlig'i kiradi. Ovoz tembrining sifati tovush utuvchi ovoz pardalari tembranishi bilan rezonans bo'shliqlariga bog'liq. Tomoq va ovoz pardalarining harakati mushaklar va togaylar sistemasining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Mushaklarning ayrimlari qisqarib, pardalarni taranglashtiradi, ayrimlari ulami birlashtiradi. Agar ovoz pardalari o'zining butun massasi bilan tebransa, ko'krak registridagi tovush, ovoz pardalari faqat chekkasi bilan tebransa yuqori registrdagi tovush yuzaga keladi. Honandaning ovozi tovush kuchi, tembr va balandligi bilangina emas, balki diapazoni bilan ham xarakterlidir. Ovoz diapazoni eng past tovushdan eng baland tovush oralig'idagi xajmni o'z ichiga oladi. Odam ovozinig butun diapazonini registrlarga bo'lish mumkin. Registr ovoz diapazonining bir qismi bo'lib, tembr va tovush yo'nalishining bir-biri bilan moyilligiga asoslanib aniqlanadi. Odam ovozinig past (ko'krakdan chiquvchi tovushlar), o'rta (aralash) va yuqori (bosh bilan bog'liq tovushlar) registrlarga bo'linishi qabul qilingan.

IV. Bolalar ovozi ko'krak aralash (mikst) va bosh (faltset) registrlardan iborat. Bolalar ovoz apparatining tuzilishi va rivojlanishi xususiyatlariga qarab har bir yosh gruppasi individual registrdagi ovoz tuzilishiga ega.

Kichiq gruppa bolalari (7 dan-10 yoshgacha) ovozinig diapazoni kichiq bo'lib, yengil faltset (bosh registrdagi) sadosi bilan ajralib turadi. O'rta yoshdagi bolalar ovozlari (11-15 yosh), ayniqsa, o'g'il bolalarda ko'krak registrdagi tovush elementlari paydo bo'lib, diapazon kengayadi. Bu yoshdagi bolalar ovozinig diapazonida uchala registr (bosh, aralash ko'krak) ajralib tursada, kuylash vaqtida asosan mikst (aralash) registri tovushlari ishlatiladi. Katta gruppa yoshdagi bolalar ovozi (14-16 yoshlarda) tembr aniqligi, voyaga yetgan ovoz elementlari paydo bo'ladi. Lekin amalda mikst (aralash) registri tovushlari saqlanadi.

Bolalar ovozi diskant (yoki soprano) va alt bo'linadi. Diskant -bolalarning yuqori ovozi bo'lib, unig kamrovi birinchi oktava «do» dan, ikkinchi oktava «fa-sol» gacha

ko'tariladi. Diskant yengil, o'zgaruvchan, yumshok (bosh registrida) yangraydigan ovoz bo'lgani uchun har xil kuy va ohanglarni juda sirchan ijro eta oladi. Alt bolalarning pastki ovozi. U kuchli va birmuncha yo'g'on jarangdor tembrli bo'lish bilan birga, ba'zi xollarda mayin xarakterga ham ega bo'ladi. Alt tovushining diapazoni kichiq oktava «sol-lya» dan ikkinchi oktava «re-mi» (ba'zida-«fa») gacha bo'ladi. Shunga e'tibor qilish kerakki, alt ovozinig juda ham yuqori pardalari qo'llanilsa, bolalar zo'rikib kuylaydi, shuningdek, juda past pardalar ishlatilsa, ovoz kuchsiz bo'lib chiqadi. Shuning uchun juda yuqori tessiturada yozilgan asarlar bolalar xoriga tavsiya etilmaydi. Bunday paytlarda asarni bolalar xorining diapazoniga qarab qayta moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Alt diskantlarga nisbatan sustrok bo'ladi. Ko'p xollarda xorda bu ovozga ikkinchi tovush topshirilishiga qaramay u ba'zida asosiy kuyni ham olib boradi, unda ovozning ijrosi juda ravon va ifodali jaranglaydi.

V. OVOZ GIGIYENASI

Honanda ovozi tabiatning qimmatbaho in'omi bo'lib, undan ijrochi extiyotkorlik va aql bilan foydalanishni talab qiladi. Qatliq nutq, bakirib kuylash, noqo'lay (past va yuqori) tessiturani xaddan tashqari ishlatish, ovoz apparatining kasalligida kuylash - bularning hammasi ovoz pardalarini charchashiga va kasalga chalinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababdan, ashulachilar o'z ovozlarini asrashlari, uni har xil kasalliklardan saqlashlari zarur. Mashg'ulotni dam olish bilan okilona almashtirib turish honandalik rejimining asosiy qoidasidir. Shuningdek, sovuk xavoda kuylash, sovuk ichimlik ichish esa, ovoz apparatiga salbiy ta'sir qilishini esdan chiqarmaslik kerak.

Vaqtivaqti bilan vrach-foniatr ko'rigidan o'tib turish ovoz apparati kasalliklarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Bolalar xor kollektivlarining raxbarlari bolalarning mutatsiya vaqtidagi vokal partiyasi xususiyatlarini bilishlari lozim.

VI. MUTATSIYA

Mutatsiya latinch - «mutati» - o'zgarish (rasta bo'lish) demakdir. Bolalar xori bilan ishlaganda, ularning yoshiga qarab, fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. O'g'il va qiz bolalarning organizmida 12-14 yoshda, ba'zida undan ham kechroq katta o'zgarishlar bula boshlaydi. Yurak kengaya boshlaydi, musqullar mustahkamlasha boradi, ovoz tonida o'zgarishlar bo'ladi va xokazo. Bunday davrda bolalar ovozi ortikcha «kuylashga kuchi yetmaydi va diqqat hamda extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi.» O'g'il bolalarda xalqum tez o'sadi, ovoz pardalari uzunlashadi, ovoz pasayib kichiq oktava tovushlariga uta boshlaydi.

Ba'zi vaqtda mutatsiya davri og'ir va har xil holatda o'tishi sababli machg'ulotlarni vaqtincha tuxtatish zarur bo'lib qoladi. Qiz bolalarda mutatsiya osoyishta, asoratsiz o'tadi. Lekin shunga qaramay, qizlarning ovozini ham extiyot qilish zarur. Honandalik rejimiga rioya qilinsa, mutatsiya davri bir qancha yengil o'tishiga yordam beradi.

Tayanch tushunchalar:

Mutatsiya - mutatsiya lotincha «mutati» - o'zgarish (rasta bo'lish) demakdir.

Soprano - xotin-qizlarning yuqori tovushi

Alt - ko'rpovozli musiqada (xor asarlarida) balandligi bo'yicha sopranodan keyingi ovoz

Diskant - bolalarning baland tovushi

Ovoz apparati – o'ziga xos murakkab «musiqa asbobi» bo'lib, u o'zining rang-barang tembr boyligi, nixoyatda nozik musiqa ifodalash xususiyatlariga egaligi bilan hamma musiqa asboblarida ustun turadi.

Nazorat savollari:

1. Ashulachilik apparati necha qismdan iborat?
2. O'pka va nafas yo'llari haqida ma'lumot bering.
3. Rezonatorlar qanday qismlardan iborat?
4. Bolalar ovozini bo'linishi va bolalarni ovozini qanday extiyot qilish kerak?
5. Ovoz gigiyenasi
6. «Mutatsiya» - so'zi nimani anglatadi
7. Mutatsiya davri haqida ma'lumot bering.

Mavzuni mustaqil mustaxkamlashga doir mustaqil ish namunalari

1. D.E.Ogorodnov. «Музыкально-певческое воспитание детей в общеобразовательной школе».
2. V.Popov, N.Dobrovolskaya. «Методика музыкального воспитания в школе». М. 1990 у.
3. S.Sizikova. «Хоровое пение в начальных классах». 1988 у.
4. D.Qurbonova. «Некоторые вопросы вокальной работы с детьми в Узбекистане». Т. 1991 у.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Ro'ziyev «Xorshunoslik»
2. Sh.Sharafiyeva «Xorshunoslik»
3. I.P.Brizgalov. «Школа пения»
4. S.Sizikova «Хоровое пение в начальных классах»

III - BOB. UMUMIY TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA O'QITISHNING MAZMUNI VA METODIKASI

1-MAVZU: Umumiy ta'lim maktablarining boshlang'ich 1-2 sinflarida musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi

RE J A:

1. Birinchi sinfdagi musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi
2. Birinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari
3. Musiqa darslarida musiqa tinglash va tahlil qilish

4. Ikkinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi

5. Ikkinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari

1-sinfda o'quvchilarning butun musiqa ta'limiga negiz solinadi, shuning uchun bu sinfda o'qituvchi o'qitish metodikasini ayniqsa yaxshi bilishi, maktab yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqa va vokal-qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilish zarur. 1-sinf o'quvchilari psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra ma'lum darajada xotirasi to'liq rivojlanmagan, diqqat-e'tibori, ovoz apparatlari to'la shakillanmaganligi sababli, ovoz pardalari nozik, ovoz diapazonlari cheklangan bo'ladi. Uzoq vaqt surunkasiga qo'shiq kuylash bolalar ovoz apparatlarining shakillanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun dars strukturasini buzib, musiqa savodi va musiqa tinglash faoliyatlari o'rnida ham qo'shiq kuylatish xollariga yo'l qo'yish tavsiya qilinmaydi. O'quvchilarning ovoz apparatlariga putur yetkazmaslik ovozni saqlashning muhim sharti birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarning ovoz diapazonini aniqlash, ishchi diapazonlaridagi notalardan tashqariga chiqmaslik va uni kengaytirib borishga alohida e'tibor berish lozim. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlariga xos juda mayin va yoqimli tembrga ega bo'ladilar. 1-sinfdan boshlab o'quvchilarning vokal va xor malakalari takomillashtirib boriladi. O'tirib va turib kuylaganda gavdani to'g'ri tutish, nafasni rejaga sola bilish, kuylaganda unli va undoshlarni, melodik, garmonik intervallarni to'g'ri talaffuz qilish, dinamik tuslarga rioya qilgan xolda (mayin ovozda, yoqimli) kuylash ustida muntazam ravishda ish olib boriladi. Bolalar ovozini parvarish qilish, vokal va xor malakalarini oshirishda ashula o'rganishdan oldin maxsus vokal mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bundan avval o'quvchilarni ishchi diapazonining prima (o'rta) tovushlaridan boshlab pastga tomon yo'naluvchi tetraxordlardan foydalaniladi. Nafas esa me'yorida, shovqinsiz, yelkani ko'tarmay, o'z vaqtida olish va mayin atakada kuylashga alohida e'tibor beriladi. «Qattiq ataka» boshlang'ich sinflarda juda kam ishlatiladi. Chunki, qattiq atakada kuylash xali juda ham nafis bo'lgan ovoz apparatlarining zo'riqlashiga olib keladi. Buni amalga oshirish uchun dasturdagi qo'shiqlarda o'qituvchining o'zi o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlarni hisobga olgan xolda tanlab oladi.

Repertuarga kiritilgan musiqaviy asarlar ana shu xususiyatlarini nazarga olgan xolda, mazmuni va mavzusi jihatdan xilma-xil bo'lmog'i kerak. Ushbu asarlar ularni xis-tuyg'ularini ifodalash bilan birga kundalik turmushni va tabiatni aks yettirishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarni hayotiy tajribalariga asoslangan xolda har bir musiqa zamirida ma'lum xis-tuyg'u va fikrlar aks yettirilishi haqida tushuntirishi kerak. Birinchi darslardan oq musiqa asarlarini o'zidan paydo bo'lmasligi, uni kimdir katta ijodiy mehnat qilib yaratishi haqida suhbat o'tkazadi. Buning uchun «Musiqani kim yaratadi?», «Kim ijro etadi?», «Kim tinglaydi?», - degan savolni o'rta tashlaydi. O'rganiladigan asarlarning xarakterlarini obrazli qilib ifodalansa, bolalar uni tushunib mazmunini aniq qilib ochib beradilar.

Dasturda o'quvchilarga musiqa savodi bo'yicha ma'lum xajmda bilim berish, nota bilan kuylash malakalarini hosil qilishga ham alohida e'tibor berilgan. Darsning bu turida tovush qator bosqichlarining baland-pastligi, nota chiziqlariga joylashuvi, pauzalarning uzun-qisqaligi, o'lchov, major va minor ladlari, dinamik tuslar kabi musiqaning nazariy elementlari bilan tanishadilar.

1-sinfda musiqa savodini o'rganish yuzasidan o'quv yilining oxiriga kelib bolalar musiqa haqida quyidagi bilim va malakalariga ega bo'ladilar:

- a) birinchi oktavadagi notalarni yaxshi bilish;
- b) chorak va yarimtalik notalarni eshitib farq qila bilish va yoza olish;
- v) bolalar tanish kuylar va mashqlarni eshitib olib va notalarning nomlarini aytish bilan bir vaqtda, ularni nota yozuvidan kuzatib borganlari xolda, birinchi oktava doirasida kuylash;

Musiqa tinglash darsning boshidan oxirigacha amalga oshadi. Agar 1-sinf bolalari sinfga musiqa sadolari ostida kirsalar, demak, ular musiqani idrok etib kiradilar. Ashula aytisalar, uni avval eshitib, idrok etib, so'ng organib kuylaydilar.

Raqsga tushganda ham musiqani tinglab borib uning badiiy ifodasini raqs harakatlari bilan tasvirlaydilar. Faqatgina musiqa tinglashgina o'quvchilarni chin ma'nodagi keng musiqa olamiga olib kirishi mumkin, chunki ashula aytganda ular taqat o'z ovozlari imkoniyatlariga ko'ra bolalar qo'shiqlarini kuylaydilar. 1 -sinf o'quvchilar turli xarakter va janrlardagi musiqa asarlarini eshitish bilan birga, xilma-xil cholg'u asboblari, ularning sadolari va tovush temblari bilan ham tanishadilar. O'quvchilar asarni qayta-qayta eshitganlaridagina uni yaxshi o'zlashtirib, puxta esda saqlashlari va sevishlari mumkin. Asar bilan tanishish jarayonida uning haqida oq'ituvchining qisqa, omma qiziqarli va obrazli kirish so'zlari, asarning janri, tuzilishi, mazmuni, ifoda vositalari va badiiy obrazlari haqidagi qiziqarli suhbatlar muhim ro'l o'ynaydi.

Shunday qilib, 1-sinfda bolalar musiqaning xarakteri va obrazlari haqida, uning oddiy qonuniyatlari haqida umumlashma bilim va nisbiy tushunchalarga ega bo'ladilar, bu shartli ravishda notaga bo'lgan davr deb ataladi. Musiqa elementlari asosan qo'l bilan kuy harakati, tovushlar baland-pastligi, uzun-qisqaligi:

Qo'shiq haqida o'qituvchining qisqacha kirish so'zi (mualliflari, ayrim tarixiy xususiyatlar, hayotiy ahamiyatlar va boshqalarni hikoya, suhbat yo'li bilan qisqacha bayon etish); qo'shiqni ijro etib yoki gram yozuvida eshittirish; suhbat yo'li bilan qo'shiqning musiqa xarakteri, uning ifoda vositalari va mazmunini aniqlash hamda ayrim ijro uslublarini belgilash; qo'shiqni musiqali jumalarga bo'lib o'rgatish, ijrochilik sifatleri ustida ishlash; qo'shiqni ijro etish va qo'shiq haqidagi bolalar taasurotlari yuzasidan qisqacha suhbat o'tkazish, ya'ni umumlashtirish.

Birinchi sinfda yil mavzusi «Biz musiqani sevamiz», chorak mavzulari esa:

I-chorak: «Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar»

II-chorak: «Musiqali o'yinlar, raqs va qo'shiqlar»

III-chorak: «Xushnavo cholg'ularimiz»

IV-chorak: «Xushnavo cholg'ularimiz»

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z diqqat-e'tiborini uzoq vaqt bir narsaga qaratib tura olmaydilar, tezda charchab qoladilar. Shuning uchun bu sinflarda fizqult pauza daqiqalaridan foydalaniladi. Musiqa darslarida fizqult pauza daqiqalari o'rniga ijroga ritm berib borish, chapak chalish, bir joyda turgan xolda qadam tashlash, takt xissalarini sanash, dirijyorlik elementlarini qo'llash kabi xilma-xil harakatlardan foydalanish zarur. Ayniqsa, bolalar musiqa asboblariida chalish va raqs harakatlari bajarish ularni darsga faol jalb qilishga qo'l keladi. Bu harakatlar o'quvchilarning fikrlariini faollashtiradi, dars qiziqarli o'tadi.

Ikkinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi

1-sinfda olingan bilim va hosil qilingan malakalar 2-sinfda chuqurlashtiriladi va takomillashtiriladi. Yangi materialni o'rganishga kirishuvdan oldin avvalgi sinfda o'rganilgan materialni takrorlash va mustahkamlash zarur.

Ikkinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra

1 -sinf o'quvchilariga o'xshash bo'ladi. Ularning diqqat-e'tiborini turg'unligi ham yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Chunki, ular o'yin bilan bog'liq bo'lgan narsalarga ko'proq qiziqadilar. 2-sinfda vokal-xor ishiga e'tibor kuchayadi va

1-sinfda egallagan malakalarni takomillashtiradi. Masalan, kuylaganda o'zini erkin tutish, ovoz apparatlarida va musqullarda zo'rikish bo'lmasligiga erishish, chuqur nafas olish malakalarini o'stirish; tez sur'atli asarlarni qo'yilganda jumlar oralig'ida nafas tez va yetarli ola bilish; uzunroq frazalarni kuylaganda nafasni me'yorida olish va bir maromda sarflay bilish;

unlilarni to'g'ri talaffuz etish; undosh tovushlarni burro va aniq talaffuz qilish; unisonda (bir ovozlikda) dinamik tuslarga to'la rioya qilgan xolda; sof va tiniq intonatsiyada ta'sirli qilib kuylash; 3/4 va 2/4 o'lchovlarida dirijyorlik harakatlarini tushunish; o'qituvchi asarga dirijyorlik qilganda uning qo'liga qarab ko'pchilik bilan birgalikda nafas olish, ijroni boshlash, dirijorlik ishorasiga amal qilgan xolda ijroni to'xtatish. Musiqa tinglash musiqa faoliyatlarining yetakchisi hisoblanadi.

Zero, darsda qo'llanadigan barcha musiqa materiallari asosan eshitib o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

2-sinfda o'quvchilarning tovush temblari haqidagi tasavvurlarning tovush temblari haqidagi fasavvurlari yanada boyib boradi. Ular hayot voqeligining rang-barang musiqiy bo'yoqlar badiiy obrazlar orqali tasvirlanishi haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladilar. 2-sinfda o'quvchilar musiqa savodi faoliyatida quyidagi musiqiy bilimlar va malakalarni egallaydilar.

- a) tonika uchtovushligini eshitish va kuylash;
- b) chorak, nimchorak, yarim o'lchovdagi notalar va pauzalar haqidagi tushunchaga ega bo'lish;
- v) kuchli va kuchsiz xissa, takt va takt chizigi, ikki va uch choraqli o'lchovlar haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- g) ikki va uch qismli asarlar haqida tushunchaga ega bo'lish. Ko'plet shaklidagi qo'shiqlarning boshlanish qismi va naqoratini farq qilish;
- e) mazmuni va xarakteri jihatidan turlicha bo'lgan asarlarni bir-biridan ajrata olish;

Shunday qilib, 2-sinf o'quvchilari musiqani tuzilishi va nota savodiga doir mazkur boshlang'ich bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, xor bo'lib kuylashda o'zini tutish, qo'shiq mazmuniga mos emotsional kechinmalarni xis etish, tinglagan asarlari yuzasidan suhbatlarda katnashish, hikoya tuzish, musiqa ohangiga mos harakatlar bajarish, musiqa ritmiga cholg'u asboblari jo'r kabi ko'nikma va malakalarga ega buladilar. Shunday qilib, ikkinchi sinfda yil mavzusi: «Musiqa nimani ifodalaydi tasvirlaydi»

1-chorak mavzusi: «Yakkanavozlik va jo'rnavoziik»

2-chorak mavzusi: «Yakkanavozlik va yakkaxonlik cholg'u va honandalar dasturlari»

3-chorak mavzusi «Kuy nima? Kuyda nima ifodalanadi»

4- chorak mavzusi: «Musiqani iloda vositalari»

O'qituvchi dars rejasini ushbu mavzular asosida to'zib, ularni bir biri bilan uzviy bog'lab olib borishi kerak.

Tayanch tushunchalar:

Birincli oktava - bir tekis temperatsiyalangan tovushqatorning bir qismi

Bolalar ovozi - alt, diskant

Janr (fr. Genre - tur ,uslub) musiqa asarlarinmg turlari

Marsh-yurish, oldinga harakat qilish, o'quvchilarni ruxlantirish, ularni xissiyotlariga ta'sir etish maqsadida yozilgan musiqiy asar

Raqs - keng ommalashgan nafis harakatlar va ma'lum bir ritmik tuzilishlar bilan badiiy obraz yaratishga asoslangan san'atning bir turi.

O'shiq – she'r va kuy xalq tomonidan ijod qilinib va xalq orasida keng tarqalgan janr

Ko'piet shakli - ikki qismli naqorat va ko'pletdan tuzilgan vokal asari bo'lib,bir necha marta turli she'rlar bilan qaytariladi.

Ko'plet - (fr.cuplet - strafa, band) bir necha bor qaytariladigan qo'shiqning bir band she'rda qaytarilishi

Naqorat - (o'z. qaytarish) ashulaning bir necha bor qaytariladigan qismi **Kompozitor** - (latincha compositor) musiqa asarini yaratuvchi ijodkor

Nyuans - (frl Nuance- ohang, tus) tovush ohangdoshligi

Orkestr- turli cholg'ularda chaluvchi ko'p sozandalardan tuziladi.

Dirijyor - orkestrga raxbarlik qiladi.

Ansambl-turli cholg'ularda chaluvchi sozandalardan tuziladi.

Solist - yakkaxon sozanda yoki yakkaxon honanda bo'lishi mumkin

Nazorat savollari:

- 1.Boshlang'ich sinflarda darslarning maqsadi va vazifalari qanday?
- 2.1-sinf o'quvchilari psixologik-fiziologik tomondan qanday xususiyatlarga ega va o'qituvchining u asarga metodik yordami
- 3.2-sinfda musiqa o'qitishning maqsad va mazmuni
- 4.Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali qurollar, musiqa ostida harakat, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish kabi faoliyatlarning metodik ahamiyati.

Mavzuni mustaxkamlashga doir mustsqil ish namunalari

- 1.Dmitriyeva,Chernoivanenko «Metodika muzыkalnogo vospitaniya v shkole» 111-166 betlar.
- 2.Odilov. «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi»
- 3.Vizgo T. «Музыкальные инструменты Средней Азии» М., 1980. 4.S.I.Musobekova. «Musiqa tarbiyasi»

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- Omonullayev D.,Nurmatov X va boshq.«1-sinflarda musiqa darslari»T., 1987
- Nurmatov X. va Norxujayev N. Birinchi sinf «Musiqa alifbosi» darsligi T., 1998.
- 3.Omonullayev D. Nurmatov X va boshq. «2-sinf uchun musiqa darsligi»T., 1987y.

4. Aprasina O. «Metodika muzыkalnogo vospitaniya v shkole» 1983.
5. Omonullayev D. Nurmatov X, Mamirov K. «Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturi» T.1999

2-MAVZU: Umumiy ta'lim maktablarining 3-4 sinflar uchun musiqa o'qitishining mazmuni va metodikasi

REJAS:

1. Uchinchi sinf o'quvchilarini psixologik-fiziologik xususiyatlari
2. Uchinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va maqsadi
3. Musiqa darslarida ko'rgazmali qurollar tayyorlash va uning metodik ahamiyati
4. To'rtinchi sinf o'quvchilarni psixologik va fiziologik xususiyatlari
5. To'rtinchi sinfda musiqa darslarining maqsadi va mazmuni
6. To'rtinchi sinfda dars mavzularini o'quvchilar yoshiga va qiziqishiga nisbatli
7. Uchinchi sinf dars mavzulari va ularni o'quvchilar yoshi va qiziqishiga mosligi

3-sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik xarakteriga ko'ra 1-2-sinflardan ancha farq qiladi. 2-sinfda olingan bilim va malakalar musiqa qonuniyatiga doir yanada konkret nazariy bilimga aylanadi. Ularning diqqat e'tibori turkum, nutqi ravon bo'ladi, ovoz apparatlari shakllangan ikki ovozlarni kuylash malakasiga ega bo'ladilar. 3-sinf o'quvchilari $do^1 - re^2$ (mi^2) diapazonidagi bir ovozli va ikki ovozli elementlari bo'lgan qo'shiqlarni ijro qiladilar. Kuylash jarayonida o'z partiyasini mustaqil kuylay olish va ayni paytda ikkinchi partiyadagilar ovozini eshitib, kuzatib borishlari lozim. Yakka xolda, guruh yoki butun sinf bilan a'capchalla qo'shiqlarini kuylash, ovozda asarning mazmuni va xarakterini ochib berishga intilish, o'zi va o'rtoqlarining ijrosiga to'g'ri baho bera olish, ijroda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni sezish va tuzatish, 4/4 o'lchovidagi dirijyorlik harakatlarini bilish, ishoralarga mos kuylash bular 3-sinf o'quvchilarini xor malakalarini maqsadi va vazifalari. O'quvchilarni musiqa haqidagi bilim doirasini kengaytirishda va musiqa qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqa tinglash muhim rol o'ynaydi. 3-sinfda o'quvchilar, 1 va 2 -sinfda o'quvchilar musiqa tinglash bo'yicha egallagan malakalarini takomillashtiradilar, yangi bilimlarni egallaydilar:

- a) tinglayotgan asarning kuyini esda aniq saqlab qolish, ayrim parchalarni kuylab bera olish;
- b) musiqaning ifoda vositalari 4/4 o'lchovi, punkti, ritmi, intonatsiya, kalitoldida bitta diyez yoki bitta bemoli bo'lgan tonalliklar;
- v) marsh, raqs, qo'shiq haqida kengroq tushunchaga ega bo'lish. Xajm jihatidan kattaroq bo'lgan asarlarni diqqat bilan oxirigacha tinglash;
- g) o'zbek xalq cholg'u asboblariidan tashkil topgan orkestrning ayrim asboblari bilan yaqindan tanishish;
- d) xor turi va ularning o'ziga xususiyatini (bolalar, erkaqlar, ayollar yoki aralash xor ekanligini) aniqlash;
- e) tinglanayotganda asarning xarakteriga ko'ra uning mazmuni mavzuini

aniqlash;

O'qituvchi ijrosidan tashqari gramplastinka yozuvidan, magnit tasmlaridagi yozuvlardan foydalanib, bolalar xori, professional san'atkorlar, cholg'u asboblariida ijro etgan musiqiy asarlar, xalq qo'shiq va kuylarini tinglab idrok etish bilan o'quvchilarni sexrli musiqa olamiga olib kirish badiiy didini, qiziqishini rivojlantirish mumkin. Dasturda 3-sinf o'quvchilarga musiqa savodi bo'yicha ma'lum xajmda bilim berish, nota bilan kuylash malakalarini hosil qilishga ham alohida e'tibor berilgan. Musiqa savodida 3-sinfda o'quvchilar 1 va 2-sinflarda olgan bilimlarini takomilashtiradilar. Ayni paytda yangi malakalarga ham ega bo'ladilar:

a) nuqtali notalar, butun, un olitalik notalar va pauzalar haqida tushunchaga ega bo'lish;

b) tovush qatorining yarim tonlar bo'yicha bo'linishini bilish. Butun ton haqida tushunchaga ega bo'lish, major va minor ladlarini bilish;

v) altratsiya belgilari bilan batafsil tanishish va kuylaganda unga amal qilish. Musiqa asarlarini tinglab qaysi dinamik tusda ijro etilayotganini aniqlay olish;

g) metr-ritm, takt va o'lchov haqida kengroq ma'lumotga ega bo'lish, ijro etilayotgan kuyning o'lchovini aniqlay olish. Bunda milliy usullardan foydalanish;

d) turli o'lchovdagi notalarni, skripka kalitini yoza olish;

Musiqa savodidan notaga qarab kuylash qobiliyatlari ongli ravishda rivojlanadi. O'qituvchfhi qo'l harakatiga qarab va ularni qo'llarini harakatga keltirib turli mashqlar qoshiqlarni kuylay oladigan bo'lishadi.

3-sinf oquvchilarning musiqa darsiga qiziqishlar yanada ortib borishga qaramasdan, darsning har bir elementini tajribalarga asoslanib tushuntirish lozim. Uchinchi sinf dars rejasini tuzganda ayniqsa, ijodiy yondoshish, uning strukturasini mantiqan bog'lab turish, asarlar tartibini sinf imkoniyatiga muvofiq belgilash, bolalarda aktiv qiziqish uyg'otib, badiiy emotsional kechinmalarni vujudga keltirish, ularni ovozigam oslab tuzish kerak. O'quvchilar o'quv jarayonida musiqaning hayotiyiligini, soddadan murakkabga qarab uzluksiz rivojlanishini musiqaning nazariyasi va janrlarini tuzilishi va mohiyati, boshqa san'at turlari bilan aloqasini o'rganib boradilar.

3-sinfda yil mavzusi: «Musiqada shakl va mazmun»

I-chorak: «Musiqa ifoda vositalari»

II-chorak: «Xor va orkestr»

III-chorak: «Musiqaning tuzilishi»

IV-chorak: «Oddiy musiqa shakllari. Band va naqorat.»

Shuningdek, musiqa darslari yil, chorak mavzulari asosida rejalashtirilib faoliyat asosida o'tiladi.

4-sinfda o'quvchilar psixologik-fiziologik jihatidan hayotiy tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat e'tibori turg'un, jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, xajmiy jihatidan kattaroq bo'lgan musiqani ham eshitishga qodir bo'ladilar. Taqqoslash, izlanish, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu xususiyatlarni barchasini o'qituvchi nixoyatda uylab, oqilona ish tutishi lozim. Nag bir darsdan unumli foydalanishi kerak. Bundan maqsad, bolalarni tezroq dasturdagi musiqa asarlariga, dars uslubiga, musiqa san'atiga, ashula ayttrishga qiziqtirishdan iboratdir. 4-sinfda milliy musiqa merosini o'rganish kuchaytiriladi, unga qiyoslab umumbashariy musiqa boyligidan nodir namunalar o'rganiladi. Musiqa san'ati haqida umumlashma nazariy va amaliy bilim-malakalar hosil qiladi. Qo'shiq kuylash malaka ko'nikmalarini rivojlantiradi. 11 yoshdagi bolalarda ovoz

ko'krak qismi kengayganligi sababli, tovush ancha kuchaygan bo'ladi. Ovozlarni maromiga tushirib kuylash uchun qo'shiq parchalaridan mashqlar tanlab kuylash lozim. Mashqlarni ma'lum tizimga solib kuylash kerak. Mashq va ashulalar doimo sekin tempdan boshlab o'rgatiladi. Qo'shiq o'rgatishda dirijyorlik uslubida fortepiano cholg'u asbobidan unumli foydalanish lozim. Qo'shiq o'rgatish davomida sof unisonga, ikki ovozlilikka, badiiy ijroga erishish lozim.

Musiqaning tinglash jarayonida o'zbek xalq musiqasi va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati, o'zbek xalq musiqasining qardosh xalqlar musiqasi bilan yaqinligi va o'xshashligi haqida tanishtirish lozim. O'quvchilarda musiqaga mehr va xavas uyg'otish, ularning musiqa saviyasini oshirish uchun ashula va musiqa sohasida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni har tomonlama kuchaytirish lozim. Musiqaning savodining eng muhim ahamiyati quyi sinfdan olingan bilim va malakalarga asoslanib, vokal-xor mashqlari va qo'shiqlarni nota bilan kuylash. O'quvchilarning ton va yarim ton haqidagi bilimni mustahkamlash. Lad haqidagi bilim va malakalarni mustahkamlash. Major va minor uchtovushliklari va tovush qatorlarini jo'rli va jo'rsiz kuylash, eshitish va taqqoslab aniqlash. 4/4 o'lchovini vokal-xor mashqlari va asarlar musolida o'rganish. Punktir ritmni musiqaning ifoda vositasi sifatida o'rganish. 3/4 va 4/4 o'lchovlarini kuchli va kuchsiz xissalariga ko'ta taqqoslash yo'li bilan farqlay bilish. Chorak, yarim va butun notalarni hamda shu o'lchovdagi pauzalarni bilish. 2/4, 3/4 va 4/4 o'lchovli mashq va qo'shiqlarni tinglash va kuylab taktilash, tinglash uchun

berilgan asarlarni tahlil qila olishdir. Kalendar mavzuli reja tuzganda yuqorida aytilgan xususiyatlarni hisobga olgan xolda chorak yil mavzulari hisobga olib, reja tuziladi.

IV-sinfda yil mavzusi: «Xalq musiqasi ijodi»

I-chorak: «O'zbek xalq musiqasining ommaviy janri»

II-chorak: «Xalq ashulalari va ashula yo'lidagi kuylar.

O'zbek musiqasida bastakorlik uslubi»

III-chorak: «Kompozitorlik uslubi haqida ma'lumot»

IV-chorak: «Kompozitorlar ijodida xalq musiqasi namunalari»

Shuningdek, ta'lim jarayonida 4-sinf o'quvchilar quyidagilar haqida bilim va malakalarga ega bo'ladilar:

O'rganilgan asarlarning nomlari va muallif chiziq ijodkorlarini bilish: xalq musiqasining badiiy boyligi, tarixiy va madaniy jihatidan rang-barangligi va go'zalligi, uning janrga boyligini ta'riflab berish. O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari (terma, qo'shiq, lapar, yalla va cholg'u kuylari) ni bilish va ularning badiiy xususiyatlariga ko'ra ajrata olish. O'zbek musiqasi amaliyotida ijodning uch uslubi ommaviy, xalq musiqasi ijodi, bastakorlik hamda kompozitorlik ijodlari mavjudligi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish.

Tayanch tushunchalar:

Musiqasi shakli - musiqa asarining kompozitsiyasi, ya'ni tuzilishi. Bunga musiqaning kuy, ritm, garmoniya va boshqa vositalari kiradi.

Major ladi – turg'un tovushlari katta (major) uchtovushligini hosil qilgan ladi.

Minor ladi – turg'un tovushlaridan kichik (minor) uchtovushligi hosil bo'ladigan ladi

Xor- (yun.choros) vokal, xor musiqasini aytuvchi ijrochi jamoa.

jamoa bo'lib qo'shiq kuylash

Orkestr - (yun. Orchestra - qadimgi yunon teatri saxnasi oldidagi

maydoncha) - turli cholg'u asboblarda chaluvchi sozandalardan tuzilgan jamoa bo'lib, shu tarkib uchun yaratilgan musiqa asarini ijro etadi.

Janr - musiqaning turi.

Intonatsiya - (latincha intono- qattiq aytaman) - keng ma'noda badiiy obrazni musiqa tovushlari bilan to'g'ri ifoda etish

Xalq musiqasi - xalqlarning cholg'u va vokal musiqa ijodiyoti - musiqa folklori.

Terma – o'zbek folklorining janr turlaridan bo'lib, aytiladigan ashula so'zining har bir bandi turlicha mazmundan iborat.

Lapar - bir yoki ikki ijrochi tomonidan navbat bilan aytiladigan bandli ashula shakli

Yalla - keng tarkalgan o'zbek xalq ashulalaridan. Odatda yallani uch-to'rt ashulachi ijro etadi.

Nazorat savollari:

- 1.Boshlang'ich sinflarda darslarning maqsadi va vazifalari qanday?
- 2.Birinchi sinflarda musiqa o'qitishning qanday maqsad va metodlari mavjud?
- 3.Birinchi sinf o'quvchilari psixologik-fiziologik tomondan qanday xususiyatlarga ega va o'qituvchining u asarga metodik yordami?
- 4.Ikkinchi sinfda musiqa o'qitishning maqsad va mazmuni
- 5.To'rtinchi sinf o'quvchilarining psixologik- fiziologik xususiyatlari
- 6.To'rtinchi sinfda musiqa o'qitishning maqsadi va mazmuni
- 7.To'rtinchi sinfda musiqa darsining chorak yil mavzusi va ularni musiqa darsdagi ahamiyati
- 8.To'rtinchi sinfda musiqa darslarini o'ziga hosligi

Mavzuni mustahkamlashga doir mustaqil ish namunalari

- 1.Vizgo, Petrosyans A.I. «Uzbekskiy orkestr narodnykh instrumentov » T-1962
- 2.Semyonov A. «Sredneaziatskiy traktat po muzyke Darvisha Alu» T.-1946g.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.R.Qadirov «Boshlang'ich maktabda ko'p ovozda kuylash»
- 2.Gudkova Ye.A., Vasileva A.B. «Ashula darsi metodikasi»
- 3.Apraqsina O. «Metodika muzыkalnogo vospitaniya v shkole» M.1983 yil
- 4.Omonullayev D. «Umumiy ta'lim maktablari uchun musiqa dasturlari»T.1992y.
- 5.Gudkova E.,Qo'ldoshev L. «Musiqa darsligi uchun metodik qo'llanma»(4-sinf)T.1978y.

3-Mavzu: «5-6 sinflarda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi»

REJA:

1. Beshinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari
2. Beshinchi sinfda vokal-xor ishlari va ikki ovozda kuylashning maqsad va vazifalari
3. Beshinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi
4. Oltinchi sinf o'quvchilarini psixologik-fiziologik xususiyatlari
5. Oltinchi sinfda musiqa o'qitishni mazmuni
6. Oltinchi sinfda dars mavzusi va uning o'quvchilarning bilim va malakasiga mosligi

5-sinfda tayanch-ta'lim bosqichi boshlanadi. 5-sinfda o'quvchilar psixologik tomondan ancha o'zgargan bo'ladi. Ularning hayotiy tajribalari boyigan, konkret fanlarni o'rganish jarayonida ilmiy dunyo qarashlari tarkib topayotgan davr bilan farq qiladi. Fikrlash bir muncha rivojlanganligi sababli, ko'rgazmali idrokdan ko'ra so'z orqali mantiqiy idrok qobiliyatlari rivojlana boshlandi. Shunga muvofiq o'rganiladigan asarlar ham janr, hajm va badiiy mazmun jihatidan tobora jiddiylashib boradi. Ovoz diapazoni (Do¹ - Mi²) ma'lum miqdorda rivojlangan bo'ladi. 5-sinf o'quvchilarning quyi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi, bu malakalar ashulaning to'g'ri va ta'sirli aytilishini ta'minlaydi, bolalar ovozining yaxshilanishiga va parvarish qilinishiga yordam beradi. Vokal-xor mashqlari sifatida xalq quyi va qo'shiqlaridan parchalar kuylash va shu vosita bilan milliy musiqa ohanglari xususiyatlarini bolalar xissiyotiga singdirib borish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi o'zi qo'shiqni ifodali qilib kuylab berishi va o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyatlarini o'stirish kerak:

1. Sof unisonga erishishi
2. Musiqiy jumlaning boshidan oxirigacha to'la idrok etishi,
3. Notaga qarab qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

O'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab, nixoyatda oddiy mashqlardan, qo'shiq naqoratlaridan, kuylash uchun qo'lay bo'lgan ladlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Eng oddiy va murakkab mashqlarni ham, asosan solfedjo qilish yo'li bilan o'rganish va kuylash lozim, chunki bu jarayonda notalarni nomlari va balandligi holatini ham anglab boriladi. Ikki ovozlikda kuylashni boshlashdan oldin, sinf taxtasida yoki plakatlarda ko'rsatib notalar nomini va tovushning balandlik holatini aniqlab, ovoz chiqarib bir necha marta takrorlab so'ng, kuylash zarur. Dastlab katta tertsiya, sof kvarta, sof kvinta, katta seksta singari ohangdosh intervallar, mashqlar uchun asos bula oladi. Chunki, bu intervallar kuylash uchun qo'lay yoqimli va o'quvchilar xotirasida saqlanishi oson. Intervallar faqat ikki ovozda kuylanmasdan, balki tinglash uchun ijro etib, ularda yuqori va pastki tovushni aniqlashni topshirish lozim. Bunday savollar o'quvchilarni garmonik o'quvini kuchaytiradi, intervallarni ongli ravishda o'zlashtirish tuyg'usi paydo bo'ladi. Ikki ovozlik qo'shiqlarni kuylash uchun, kichiq kanonlardan boshlab kattaroq xajmdagi jo'rsiz (akapella) asarlarga o'tish, o'quvchilarni bir-birini diqqat bilan eshitib, kuylash qobiliyatlarini o'stiradi. Ikki ovozli qo'shiqlarni tanlaganda, ikki ovozli elementi bor, kichiq xajmdagi asarlar maqsadga muvofiqdir. Har qaysi ovozning ohanggi aniq ravshan, mustaqil bo'lishi kerak. Pastki ovoz quyi shirali, xushohang, yaxshi esda

qoladigan bo'lishi ayniqsa muhimdir. Ovoz partiyalarining diapazoni, seksta septima oktavalar xajmidan oshmaydigan qo'shiqlar aytishga ayniqsa qo'laydir.

Qo'shiqlar o'rtacha tempda yozilgan bo'lishi kuylash uchun foydali va osondir. Ikki ovozli qo'shiqlarni ohanglari imitatsiya jihatidan shakli yengil va oson bo'lishi kerak. O'zbek xalq qo'shiqlarni o'qituvchi ikki ovozlik qilib, qayta ishlab o'rgatishi o'quvchilarni talaffuzi intonatsiyasi va xotirasini rivojlantiradi. Ikki ovozlikni kuylashda, bir ovoz cho'zib, ikkinchi ovoz harakatlashishi ham, bolalarni eshitish qobiliyatlarini ustiradi. Keyinchalik esa, ovozlarni parallel bir tomonga yo'nalishi, ovozlarni qarama-qarshi yo'nalishi va har xil murakkabrok holatida ham kuylash mumkin bo'ladi. Musiqa darsida ikki ovozda kuylash uchun bolalar ovozini diskant va altga bo'lish shart emas, balki taxminiy bo'lishi ham mumkin. Chunki ikkinchi, uchinchi ovozni kuylaganda bolalarni musiqa o'quvi ko'proq o'sadi. Shuning uchun ovozlarni galma-gal almashtirib kuylatish lozim. Buning uchun albalta dastlab, sof unisonga erishiladi. So'ngra, ikki ovozli asarlarga utiladi. Beshinchi sinf bolalarning ovozlari yangroq ovoz apparatlari shakllangan, ko'nikma va malaka ega bo'lganligi sababli ikki ovozli qo'shiqlarni o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayonida 5-sinf o'quvchilar – o'zbek xalq cholg'u orkestri, xor san'ati simfonik orkestr, vokal-simfonik asarlar, saxnaviy musiqa asarlari, raqs san'ati, musiqali drama va komediyalar, opera san'ati, o'zbek musiqasida opera janri haqidagi bilimlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, musiqa savodi darsining ko'proq ta'limiy funktsiyasini bajarmogi lozim. Shuning uchun musiqa savodiga doir beriladigan har bir yangi atama, tushuncha yoki nazariy element musiqa faoliyatining barcha turlari amaliyotida qo'llanib, o'quvchining musiqiy bilim doirasini boyitib borishi lozim. Bu esa o'quvchining musiqiy savodxonligi tarkib topishida asosiy ro'l o'ynaydi.

Beshinchi sinfda musiqa darslarini yil mavzusi: «Kompozitorlik musiqa janri.»

I-chorak: «O'zbek xalq cholg'ulari orkestri. Xor san'ati»

II-chorak: «Simfonik orkestr. Musiqada vokal-simfonik janrlari»

III-chorak: «Saxnaviy musiqa asarlari. Balet va raqs san'ati. Musiqali drama va komediya»

IV-chorak: «Opera san'ati. O'zbek musiqasi opera janri»

Beshinchi sinfda darsning asosiy maqsadi, o'quvchilarni boshlang'ich sinflarda olgan bilimlarini va tayyorgarlik darajasini aniqlab, musiqa mashg'ulotlariga, to'garak ishlariga qiziqtirishdan iborat.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, har bir darsga kompleks yondashish bilangina yangi dastur talablariga muvofiq dars o'tish mumkin bo'ladi. Unda dasturda joriy etilgan har bir musiqa va mazmuni chorak mavzuidan kelib chiqishi va unga buysunishi bilangina erishish mumkin bo'ladi. Demak, darsda amal qilinadigan musiqa faoliyatlaridan birortasi ham sun'iy tarzda darsning mustaqil elementi yoki qismi bo'lib qolishi mumkin emas.

6-sinlarda o'quvchilarda uspirinlik davri boshlanib, ular tabiat va hayot qonunlariga jiddiy qiziqadilar. Psixologik-fiziologik jihatdan organizmda aktiv o'zgarishlar ro'y beradi. Bo'yining usishi, ovozining o'zgara borishi fanlarga qiziqishi, mustaqil fikr yurita olishi, qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada bosh miya yetarli darajada ozuqa ololmay, horg'inlik holatlari ro'y beradi. Bu davrda o'qituvchi ularga jiddiy va mehribon munosabatda bo'lish, do'stona suhbatlashishi talab etiladi.

1. Darsning barcha faoliyatlari vositasida doimiy ravishda o'quvchilarning musiqaviy iqtidorini rivojlantirib borish.

2. Vokal - xor malakalarini rivojlantirib, yakka jamoa bo'lib kuylash, ikki ovozli kuylashga o'rgatish
3. Musiqa idrokini rivojlantirish va asarlarni tuzilishi, shakli, ladi, mualliflari, tempi haqida fikr yuritishga o'rgatish va estetik zavqlanish vositasida xotirasi, nutqi, dunyoqarashini o'stirish.
4. Musiqa savodidan, oddiy musiqa terminlarini va atamalarini mohiyatini musiqa amaliyotida bilish va har bir musiqa asarida kuylab borish.

Quyidagi diapazondagi bir va ikki ovozli ashulalarni aytish:

Birinchi ovoz Do¹ Mi² (Fa²), ikkinchi ovoz Si kich (Lya kich) Do²(Re²) musiqa o'quvini o'stirish, ovozni parvarish qilish va vokal-xor malakalari hosil etishda maxsus vokal mashqlari, ya'ni uch tovushli, past bosqich yoki yuqori bosqichdagi tovushlar orasida va uning kvinta yoki oktava miqyosidagi qismlarida ashula aytib, bir ovozda asosan, yallalar yoki qoshiqlardan parchalar aytib, «Ovozni maromga solish» katta ahamiyatga egadir. Notaga qarab ashula aytish malakasi ham shu xilda mashq qilish yo'li bilan hosil etiladi. Bu xildagi mashqlar uchun har darsda 3-6 minut vaqt ajratiladi. O'quvchilarni musiqadan savodli qilish xorda ashula aytish bilan mustahkam bog'langan. Musiqadan savodli qilish vazifasi bolalarning musiqa o'quvchini o'stirish asosida ularga ashulaning musiqiy ohangni anglash va tushunishni, ashula so'zlarini to'g'ri aytishni o'rgatishdir. Musiqa sohasida berilgan barcha nazariy ma'lumotlar notaga qarab ashula aytish va mashq qilish jarayonida mustahkamlanadi.

Qo'shiq o'rgatish va musiqa tinglash jarayonida asarlardan parchalar kuylab ovozlarni sozlashi bolalarda qiziqish uyg'otadi. Bunda ijro uslublarni batafsil tushuntirish lozim. Asarlarni tahlil etishda bolalarni aktiv qatnashtirish maqsadga muvofiqdir. Har bir xalqning o'z milliy san'ati mavjudligi, musiqa har bir tarixiy davrning badiiy aksi ekanligi haqida bolalarga aniq tushuncha hosil qilishi lozim. Shu asosda o'zbek musiqasining qisqa tarixi cholg'u asboblari va o'zbek xalq musiqa janrlari, maqomlari mumtoz qo'shiqlari zamonaviy qo'shiqlarini taqqoslab ko'rsatish mumkin.

Masalan: «Shoshmaqom», tojik va o'zbek xalqlarining azaliy birodarlik ramzi ekanligi, ularning ko'p cholg'u asboblari bir xilda ekanligi va boshqa xalqlar foydalanishi mumkinligi haqida, xalq musiqasi asosida yaratilgan kompozitorlik asarlar va zamonaviy musiqa bilan tanishtirib taqqoslash lozim.

Musiqa savoddidan o'lchovlar, ladlar ton va yarim ton, alteratsiya belgilari, dinamik belgilari, intervallar, reprizalar bilan tanishtirib musiqiy asarlarni tahlil qilish yaxshi natija beradi. Yangi dastur asosida mavzusi chorak mavzusi va dars mavzusi bir-biri bilan bog'lanadi.

Oltinchi sinfda yil mavzusi: «Mumtoz musiqa»

I-chorak: «Mumtoz musiqa haqida ma'lumot»

II-chorak: «Zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari»

III-chorak: «Sharq xalqlari mumtoz musiqasi»

IV-chorak: «Evropa mumtoz musiqasi bilan tanishuv»

Tayanch tushunchalar:

O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri - uzoq davrlardan beri xalq o'rtasida qo'llanilib kelgan milliy cholg'u asboblardan(1936y.) tuzilgan o'zbek xalq cholg'u orkestri

Xor san'ati - vokal miizikasining jamoa bo'lib ijro etilish

Simfonik orkestr - turli cholg'u asboblardan tuzilgan va nisbatan boy va murakkab turdagi orkestr

Balet - (fr.balet, lot. ballo raqsga tushaman, o'ynayman) - sintetik san'at turlaridan biri, saxnada ko'rsatiladigan badiiy asar, asosan musiqa va xoreografiya vositalari bilan ifoda qilinadi.

Opera va balet teatri - opera va balet asarlarini ko'rsatuvchi katta ijodiy jamoa

Opera -musiqali dramatik asar, nutqining ma'lum bir qismi yoki deyarli hammasi kuylanadi.

Mumtoz musiqa-etuk, namunaviy degan ma'noni anglatadi.

Zamonaviy musiqa-hozirgi kunda o'z mohiyatini va qadrini yo'qotmagan musiqa namunalariga aytiladi.

Xalq cholg'u asboblari orkestri xalq cholg'u asboblardan tuzilgan orkestrlar.

Nazorat savollari:

- 1.Beshinchi sinfda musiqa o'qitishning ish mazmuni va metodikasi nimadan iborat?
- 2.Beshinchi sinf o'quvchilarining fiziologik-psixologik xususiyatlari?
- 3.Beshinchi sinfda ikki ovozda kuylashning ahamiyati va yo'llari qanday?
- 4.Beshinchi sinf o'quvchilarining o'qish davomida o'zlashtirgan ko'nikma va malakalari nimalardan iborat?
- 5.Oltinchi sinfda musiqa o'qitishni ish mazmuni nimadan iborat?
- 6.Yangi dastur asosida musiqa darslarida olib borishning o'ziga xos qo'layliklari va muammolari nimalardan iborat?
- 7.Oltinchi sinfda musiqa o'qitishning ish mazmuni, qanday printsiplar va metodlarga asoslanadi?
- 8.Oltinchi sinfda vokal-xor ishlarini va musiqa tinglashning ish mazmuni qanday?
- 9.Musiqa o'qitish bo'yicha ta'limning yangi o'quv dasturi va standartlari musiqa darslarida qanday ahamiyatga ega?

Mavzuni mustaqil mustuxkamlashga doir musiaqil ish namunalari

1. Jomiy «Musiqa haqida risola»
2. Abu Nasr Muxammad Farobi) «Musiqa haqida katta kitob» (katob al-musiqa ai-kabir)
- Ibn-Sino «Davolash kilobi» qomusidagi «Musiqa haqida risola»

FOYDALANILCAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mansurov A. va Karimova D. «Umumiy ta'lim maktablarining 5-sinf musiqa darsi uchun metodik tavsiyanomasi» T. 1997 y.
- 2.Omonullayev D.,Nurmatov X., Mamirov K. «Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlari» T.1992y.
- 3.Nurmatov X. va Ibragimov O. «Oltinchi sinfda musiqa darslari uchun qo'llanma». T.,1996
- 4.Kenzer Ye. va Yormatov Sh. Oltinchi sinf uchun «Musiqa» darsligi T.,1978 5.Qodirov R. Boshlang'ich maktabda ko'p ovozda kuylash T.,1997

4-Mavzu: Yettinchi sinfda musiqa o'qitish metodikasi va uning mazmuni

R E J A :

1. Yettinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi
2. Yettinchi sinf o'quvchilarning psixologik-fiziologik xususiyatlari
3. Yettinchi sinfda musiqa o'qitishning yakunlovchi davrida o'quvchilarning olgan bilim va malakalariga dunyoqarashiga qo'yilgan talablar

Yettinchi sinfda musiqa o'qitish jarayoni yakunlanadi. Unda quyi sinflarda olingan bilim va malakalar chuqurlashadi, takomillashib umumilashadi. Ayniqsa, musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab, uni mukammal idrok etib, yangi qo'shiqlarni mustaqil o'rgatish, hayotimizdagi musiqa faoliyatiga aktiv katnashishga o'rgatib borish ishi nixoyasiga yetadi. 7-sinf o'quvchilari fiziologik-psixologik xarakterga ko'ra diqqat e'tiborlari turg'un, dunyoqarashi rivojlangan bo'ladi. Ovoz shakllanishi notekis bo'ladi. Ular mustaqil fikr yuritish hikoya tuzish, musiqaga doir albom, referatlar, sinf burchaqlari va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib, musiqa san'atiga, musiqa savodiga doir ko'rgazmali qurollar tayyorlash vazifasini topshirishi mumkin. Shuningdek, mashxur bastakorlarga doir albomlar tayyorlashni ham topshirishi mumkin. Vokal-xor ishlari: qo'shiq o'rgatish jarayonida ularni ovozlarini asrab tarbiyalash ishi murakkablashadi. Chunki, bu yoshda mutatsiya davri kuchayadi. Ayniqsa, o'g'il bolalarda ovoz boylamlari yo'g'onlashib, ovoz registri bir oktavaga pasayadi. Natijada o'quv va ovoz o'rtasidagi koordinatsiya buzilib, ba'zan bolalar intonatsiyasini aniq kuylay olmaydilar. Bunday paytda o'qituvchi kuylash uchun qo'lay yo'llarini tushuntirishi kerak. Ovozni toliqtirmasdan erkin, ravon kuylashga o'rgatishi kerak. Mutatsiya davrida bolalar ovozida kun sayin o'zgarish ro'y beradi. Buni hisoblab olib ovoz partiyasini ko'paytirish lozim. Yoki ovozlarni transpartirovka qilib pastki tovushlarga tushirish lozim. Ovoz diapazoni birinchi ovozlarda ($D0^1-Mi^2$) - 2-ovozlarda esa - (Si kich- Re^2)gacha bo'ladi. Tajribalar mutatsiya davrida ovozlarni to'g'ri taksimlash, ovozlarni tekis chiqishi va qiyinchiliklarga duch kelmaslikka olib keladi. Tanlangan qo'shiqlar qahramona, lirik, estrada, o'zbek xalq qo'shiqlaridan bo'lsa, o'quvchilarda o'rganishga qiziqish uyg'otishi lozim. Ba'zi bir qo'shiqlarni solist yordamida ham o'rgatish mumkin. Ashula aytganda dinamik belgilari, tempi, badiiy ijrosiga erishish zarur. Yettinchi sinflarda musiqa savodini oldingi bilimlarga tayanib, notaga qarab kuylash, intervallar, o'lchovlar, dinamik belgilar, parallel major va minor ladlari kabi mavzularda alohida to'xtab o'tib, musiqali misollar keltirishimiz mumkin. Musiqali misollarni kuylaydigan qo'shiqlardan tinglangan musiqiy asarlar asosida va o'zbek xalq qo'shiqlari misolida keltirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari ular musiqiy asarning shaklini ham bilishlari kerak. Musiqa tinglash bir muncha murakkablashadi. Chunki, darsning asosiy qismi tinglash jarayonida o'tadi. Xalq qo'shiqlari, maqomlar, mumtoz xalq musiqasining ma'naviy uslubi kabi bilimlarga ega bo'lishlari va mustaqil fikr yurita olishlari kerak. Musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab, uni mukammal idrok etib, musiqani tuzilishi, musiqa adabiyot savodi bilan, yangi qo'shiqlar bilan tanishtirish, ularni hayotimizdagi ahamiyati haqida bilimlarni o'rgatish nixoyasiga yetadi. Chunki, 7-sinf o'quvchilarini dunyoqarashi rivojlangan bo'ladi, ammo ovoz apparatlarini shakllanishi notekis bo'ladi. Ularga mustaqil fikr yuritish, hikoya tuzish, musiqaga doir referatlar, sinf burchaqlar, tadbirlar

o'tkazish va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib musiqa san'atiga doir vazifalar topshirishi lozim. Lekin vokal - xor ishlarida, qo'shiq o'rgatish, ovoz sozlash jarayonida ularni ovozlarini extiyot qilish, metodik to'g'ri yo'llanma berish kerak. Ba'zi paytlarda, bolalar bilan suhbatlashish, ota-onalarni taqlif etib, doktorga farzandining sog'ligi haqida murojaat qilishni taqlif qilish lozim. Chunki, 7-sinfda bolalarda mutatsiya davri boshlanadi. Mutatsiya davrigacha o'g'il va qiz bolalarda ovoz apparatining tuzilishi o'xshash bo'lib, ular bir-biridan uncha farq kilmaydi. Mutatsiya davrida esa ularning ovozlari o'zgarib, o'g'il bolalarda ovoz registri jihatidan bir oktava pasayib, yo'g'onlashadi. Qiz bolalarda esa registr o'z o'rnida qolib, ovoz kuchi, tembrining mayinligi deyarli saqlanib qoladi. Shu boisdan, o'g'il bolalarda mutatsiya aktiv va sezilarli darajada, qiz bolalarda esa osoyishta va tekis o'tadi. Natijada ba'zi o'g'il bolalar, ashula aytganda sozga tusholmay qiynaladilar. Ba'zilari esa kuchanib kuylaydilar. Vu davrda o'g'il bolalar ovozi shartli ravishda erkakcha ovozga, qiz bolalar ovozi esa balogatli xotin-qizlar ovoziga asta-sekin uta boshlaydi. O'g'il bolalar tomogida ovoz boylamlari yo'g'onlashadi, qizaradi, shishlar paydo bo'lishi mumkin. Natijada diapazon qisqarib, yuqori pardalarda kuylash oqirlashadi. Tez charchash holatlari paydo bo'ladi. Mutatsiya davrida o'g'il va qiz bolalarga ashula o'rgatish mas'uliyat talab etadi. Qo'shiqlarni bolalarning ovoz imkoniyatlariga moslashtirib dars davomida, ularning ovozlarni asrab-avaylab o'rgatish lozim. Ovoz partiyalarini aniq ajratib, ikki ovozda ashula aytirish, ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. Bolalarning intizomida ham o'zgarishlar paydo bo'ladi. Emotsional uygonishlar, organizmdagi garmonik o'zgarishlar darsga nisbatan qiziqishni pasayishiga sabab bo'ladi. Bu davrda o'qituvchi mohirlik bilan musiqiy asarlar mazmunini hayotimiz bilan bog'lab o'tishi, uning vositasida ahloqiy go'zallik tarbiyasini berish dars mazmunini boshqa fanlar bilan bog'lab olib borishi lozim.

Vokal-xor ishlari va musiqa tinglash ishlarini amalga oshirishda quyi sinflarda olingan bilim va malakalariga va hayotiy tajribalarga suyanib ish tutish yaxshi natija beradi. Qo'shiq o'rgatish metodlari 7-sinfda ham umumiy metodlaridan ko'p farq qilmaydi. Musiqa tanlashda esa mazmun jihatdan ancha murakkab bo'lgan asarlar utiladi. O'quvchilar, o'zbek xalq qo'shiqlari, maqomlari, mumtoz ashulalari, yalla va laparlari, xalq musiqasining mahalliy uslublari bilan tanishib, tuzilish mazmunini, tarixini o'rganadilar. Mumtoz ashulalar kuylab, maqomlar kuylab, o'zbek xalq musiqasini durdona asarlaridan zavq oladilar.

Yettinchi sinfda yil mavzusi: «Xalq musiqasining mahalliy uslublari.

Maqomlar haqida umumiy tushuncha»

1-chorak: «Kashkadaryo, Surxondaryo, Samarkand-Buxoro vohalarining musiqiy uslublari bilan tanishuv»

II-chorak: «Farg'ona-Toshkent hamda Xorazm voxalarida musiqiy uslublari bilan tanishuv»

III-chorak: «Maqom. Shoshmaqom»

IV-chorak: «Xorazm maqomlari. Farg'ona Toshkent maqom yo'llari»

O'rganiladigan asarlar badiiy va g'oyaviy yaxlit taassurot qoldirish uchun ularni ma'lum mavzu asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday mavzular bir yoki bir necha dars asosida musiqa qonuniyatlarini ijrochilik turlari va uning ifoda vositasi bo'lgan ma'lum mazmun bilan bog'lanishi mumkin. Masalan: «Lad nima», «Mahalliy musiqa uslublari», «Maqom». «Katta ashula janri». «Shoshmaqom» shular jumlasidandir.

O'qituvchi tanlagan musiqa asarlarini muayyan tartibga solgan xolda, o'quvchilarni mutatsiya davrida ovozigacha ziyon yetmasligi uchun ularni ovoz diapazoni, ishtiyoq va zavqi, musiqa va ashula sohasidagi tayyorligi e'tiborga olinishi lozim. O'quvchilarga musiqiy tarbiya berishning negizi xorda ashula aytishdir. Ashula aytganda ovozni parvarish qilish va maxsus vokal-xor mashqlari, ya'ni uchtovushli, past bosqich yoki yuqori bosqichdagi tovushlar orasida kvinta yoki oktava miqyosidagi qismlarida jo'rsiz mashqlar, qo'shiqlardan parchalar aytib ovozni sozlab bir maromga solish katta ahamiyatga ega. Musiqa tinglaganda va xor bo'lib qo'shiq aytganda, musiqa sohasidan olingan barcha nazariy ma'lumotlarni mashq qilish jarayonida mustahkamlaydi. Qo'shiq o'rgatish jarayonida o'qituvchi asarni ifodali ijro etib asar haqida qisqa qiziqarli obrazli kirish so'zi, asarning janri mazmuni ifoda vositalari haqida suhbatlar o'tkazishi muhim ro'l o'ynaydi. Yetti yillik o'qish davrida, musiqa sohasida ish olib borish natijasida, o'quvchilar musiqa savodxonligiga ega bo'lib, musiqani ongli tahlil qila oladigan, yirik musiqa asarlarini radio va televideniya orqali, musiqa darslarida, kontsertlarda mehr bilan tinglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida ishtirok etadigan va musiqani chin dildan sevadigan insonlar bo'lib yetishadilar.

Tayanch tushunchalar:

Dinamika - tovushlarining qattiq-sekin ijro qilinishi

Musiqa shakli - musiqa asarining tuzilishi

Maqom - musiqa cholg'u asboblari parda va tovushlar o'rnini bildirgan.

Shoshmaqom - o'zbek va tojik xalqlari musiqa merosining yetuk mukammal asari.

Nazorat savollari:

1. Yettinchi sinfda musiqa darslarining yil, chorak, dars mavzularining nomlari nima va ularning ahamiyati?
2. Yettinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik tomonidan organizmlarida qanday o'zgarishlar ro'y beradi va unga musiqa o'qituvchisining ro'li?
3. Yettinchi sinf o'quvchilari musiqa o'qitishni yakunlovchi davrida qanday dunyoqarashga, bilim va malakaga ega bo'lishlari kerak?
4. Yettinchi sinf o'g'il va qiz bolalarda mutatsiya davri qanday o'tadi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Mavzuni mustaqil mustaxkamlashga doir mustaqil ish namunalari

1. Jomiy «Musiqa haqida risola»
2. Abu Nasr Muxammad Farobiy «Musiqa haqida katta kitob» (katob al-musiqa al-kabir)
3. Ibn-Sino «Davolash kitobi» qomusidagi «Musiqa haqida risola»

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibroximov O. Nurmatov X. «Umumiy ta'lim maktablarini 7-sinf musiqa darsi uchun metodik tavsiyanoma.» T. 1994y.
2. Fitrat L. «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» 1. 1993
3. Ibroximov O. «O'zbek xalqi musiqa ijodi» T. 1994y.
4. Fayziyev O. va boshqalar. «O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish yo'llari» T. 1992.

IV-BOB. XORIJIY MAMLAKATLARDA MUSIQA TARBIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mavzu: «Xorijiy mamlakatlarda Musiqa tarbiyasi tizimi»

REJA:

1. Xorijiy mamlakatlarda Musiqa o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari
2. AQSh da musiqa o'qitishning maqsad va shakli
3. Angliyada musiqa tarbiyasi tuzimi
4. Yaponiyada musiqa o'qitishning o'ziga xos bo'lgan o'rni
5. Bolgariyada musiqa o'qitishning maqsad va shakli
6. Vengeryada musiqa o'qitishning maqsad va shakli

Qator mamlakatlarda maktab hamda maktabdan tashqari tashkil topgan o'quv jarayoni, uning shakl va usullari shubhasiz, katta qiziqish uyg'otmoqda. Jahonning ko'pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo'lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Xor ijrochiligi elementlarini o'z ichiga olgan musiqiy tarbiyaning zamonaviy xorijiy uslublari orasida kuyida bayon etilgan yo'nalishlar butun dunyoda ommaviylashib ketgan: Z. Kaday (Vengeriya, solfedjio, musiqa o'quvini rivojlantirish), L.Daniel va F.Lisek (Chexiya, «tayanch» qo'shiqlari, solfedjio, qo'shiqchilik), B.Trichkov (Bolgariya, solfedjio), R.Muynnik (Germaniya, «yalen» tizimi, solfedjio, qo'shiqchilik), K.Orf. (Germaniya-Avstriya, Musiqali ijod, metro-ritmik o'quvchni rivojlantirish), J.Jak Dalkroz (Shveysariya, Musiqali ijod), T. Sudzuki (Yaponiya, skripka ijrochiligiga o'rgalish orqali musiqiy malakalarni rivojlantirish), Dj.Kerven (Angliya, «Tonik-sol-fa» tizimi, solfedjio), P.Van Xauve (Gollandiya, musiqali ijod), D.Kabolevskiy (Rossiya, musiqa asrlarini idrok etish tajribasini rivojlantirish), N.Vetlugina (Rossiya, bolalar rivojlantirishning yaxlit tizimi), V.Bogadurova (Rossiya, ijrochilik malakalarini rivojlantirish).

Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tuzumiga xizmat qiladi. Shuning uchun musiqa tarbiyasi mustaqillik mamlakatlarda e'tiqod uchun xorijiy mamlakatlarida esa burjua demokratiyasi uchun xizmat qiladi. Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyati, tili va madaniy an'alariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.

Xorijiy mamlakatlarda yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Davlat maktablari bilan birga shaxsiy maktablar, kollejlari va oliy ta'lim dargohlari mavjud. Bularda turlicha darajada estetik tarbiyani amalga oshirishda o'qituvchiga keng ijodiy erkinlik berilgan. O'qituvchi o'zining maktab sharoiti, imkoniyatlari va o'quvchilarning bilim darajasiga qarab dasturga o'zlashtirishlar kiritishi mumkin. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda san'at orqali hayotni o'rganish va unga shaxsiy munosabat bildirish, ijodiy munosabatda bo'lish malakalarini rivojlantiradi.

Musiqa darslarida yuksak rivojlangan texnik vositalaridan keng foydalaniladi. O'quvchilar elektrorganlarda chalib kuylaydilar, turli faoliyatlarni (aytishuv, harakatlar,

bir-biriga jo'navozlik qilishlarni) bajaradilar. Bunda asosan o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni ro'yobga chiqarishdan iborat.

2. Amerika Qo'shma Shtatlari maktablarining birinchi-to'rtinchi sinflarida ashula darsi har kuni 20-30 minut hajmida o'tkaziladi. Darslarni umumiy o'quv fanlari bo'yicha dars beradigan o'qituvchilar o'tkazadilar. Darslarda bolalar musiqa sadolari ostida o'ynaydilar, qo'shiq va ibodat qo'shiqlarini ijro etadilar, turli usuldagi mashqlarni bajaradilar. O'rta maktabda musiqa darslari dars jadvaliga har doim kiritilmaydi, aksariyat hollarda ular darsdan tashqari, vaqtda otkaziladi. Darsdan keyingi vaqtda xor, orkestr, ansambllardan keng foydalaniladi.

Maktab o'quvchilari uchun doimiy ravishda, oldindan maktablarga xabar berib, simfonik kontsertlar ham o'tkaziladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida turli musiqa cholg'u asboblari-kichik baraban, uchburchak, musiqali qutichalardan foydalaniladi. Uchunchi sinfdan boshlab turli orkestr cholg'ulari ijrochiligi

o'rgatiladi, keyinchalik orkestr sozandolari birlashtirilib, maktab orkestr jamoasi tashkil qilinadi. Amaldagi musiqa ijrochiligiga alohida e'tibor beriladi. Turli turdagi (kichik cholg'u ansambl va kamer xor jamoasidan tortib to yirik simfonik orkestr va katta xorgacha) jamoalar tuzilib, ularning orasida turli xor jamoalari kontsert, kamer, madrigal, qizlar, o'g'il bolalar xor jamoalari o'z ifodasini topadi. Umumta'lim maktablari musiqa o'qituvchilarini tayyorlash bilan kollej va universitetlar shug'ullanadilar. AQSh dagi Musiqa ta'limi sohasida aniq tizim va uslubiy bir xillik mavjud emas; o'quv muassasalarini davlat ham, shaxslar ham, turli kompaniyalar ham boshqaradiki, natijada beqarorlik va xilma-xillik vujudga keladi. Har bir shtatda o'zining maktab tizimi mavjud.

Musiqa darslarining shakl va mazmuni, o'quv soatlari pedagoglar tomonidan belgilanadi; aksariyat hollarda, ular yetarlik professional ma'lumotga ega emaslar. Musiqa o'qituvchilarining yetishmasligi tufayli, ayniqsa quyi bosqichlarda, mamlakatning turli maktablarida yosh kompozitorlar pedagog sifatida faoliyat ko'rsatadilar; qayerda ularga ehtiyoj sezilsa va qayerda ularning musiqalari ijro etilsa, o'sha yerda ular o'z mahoratini namoyon etadilar. Natijada, maktabda ijro etish uchun o'ziga xos yagona repertuar vujudga kelib, o'quvchilar kompozitorlar bilan muloqot qilish imkoniga ega bo'ldilarki, bu narsa juda muhimdir.

O'quv yurtlaridagi o'quv rejalari tuzilish va mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladilar, shuning uchun bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalari sezilarli darajada turlicha bo'ladi. Maxsus musiqa ta'limi o'qish muddati 4 yil bo'lgan kollejlarda boshlanadi, keyinchalik bir yil davomida musiqa magistri unvonini olish uchun o'qishni davom yettirish va yana 2 yil (jami 7 yil) musiqa doktori unvonini olish uchun o'qish mumkin. Kollejlarning 3 ta ijrochilik, musiqashunoslik va pedagogik turlari mavjud, ularda musiqa o'qituvchilari tayyorlanadi. AQSh da XIX asrdayoq tashkil topgan konservatoriyalar vaqt o'tishi bilan universitetlarga qo'shib ketgan. Bundan kutilgan maqsad, ta'limni yaxshilashga intilish, yoshlarga nafaqat musiqali tayyorgarlikni berish, shuningdek ularning adabiyot, san'atning boshqa turlari bo'yicha bilimlarini kengaytirishdir.

3. Angliya maktablarida, AQSh va boshqa burjua mamlakatlari qatori, yagona dastur va uslubiyatning yo'qligi sababli maktablardagi musiqiy tarbiya ishlarining ahvoli turli saviyadadir. Ijobiy misol tarikasida 1969-1970 yillarda Britaniya radio korporatsiyasining radio orqali 6-7 yoshdagi bolalar uchun tashkil etilgan 10 minutli musiqa eshittirishlarini keltirish mumkin. Bu eshittirishlardan ko'zda tutilgan maqsad-bolalarning musiqa cholg'ulari ijrochiligiga xohishlarini uyg'otish bo'lgan: bolalar radio eshittirish jarayonida

musiqani ijro etishlari lozim bo'lgan keyinchalik, bu dasturlar magnit tasmlariga yozilib, maktablarga, ulardagi «Musika burchaklari» ga jo'natilgan.

Hozirda Angliya maktablarida ko'proq Dj.Kerven (1816-1880) tomonidan ishlab chiqilgan, reletiv tizimiga asoslangan o'qitish usullari qo'llanilmoqda. Angliyada boshlang'ich maktab o'qituvchilarni o'rta maxsus o'quv yurtlari-ikki yoki uch yillik kollejlarda tayyorlaydi. Milliy musika maktabi, Kirollik musika akademiyasini bitirgan musiqachilar uchun 1 yillik maxsus pedagogik kurslar tashkil etilgan. O'rta maktab musika muallimlarini universitetlarning musika pedagogika fakultetlari tayyorlaydi. Ularda o'qish muddati 4 yilni tashkil etadi.

Universitetlar o'rta maktab uchun universal musika o'qituvchini tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganki, o'qituvchi nafaqat xor jamoasiga rahbarlik qilish, shuningdek, orkestrni boshqarish, musika va ashula ansamblida mashg'ulot olib borish, bolalarni musiqiy cholg'uda ijro etishga o'rgata bilishi lozim. Buyuk Britaniyada boshlang'ich sinflarda 5 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qiydilar. Barcha o'quv fanlarini bitta o'qituvchi olib boradi.

Boshlang'ich maktabni bitirgach, bolalar gumanitar yoki texnik yo'nalishga asoslangan o'rta maktablarga o'tadilar. Bularida musika ta'limiga ko'proq e'tibor beriladi. 4. Yaponiyada ham yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Yaponiyada musika tarbiyasining o'ziga xos sistemasi vujudga kelgan. Ularda bolalar bog'chasidan oliy ta'limgacha estetik tarbiya amalga oshiriladi. Estetik tarbiya integratsiya qilingan fan bo'lib unga musika, tasviriy san'at va mehnat uzviy birlashgan. U bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

a) 1-5 yoshgacha bolalar bog'chasida

b) 6-14 yoshgacha toliqsiz o'rta maktab

v) 15-18 yosh o'rta maktabi

g) 18-23 yosh oliy ta'lim maktabi.

Bolalar bog'chasida «Suzduki» tizimi mashhurdir. Uning tizimida ona tilini o'qitilishi, musika tinglab idrok etishi bilan amalga oshiriladi. Bolalar cholg'u asboblarda kuy chalishlari muhira rol o'ynaydi. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning onasi ham ishtirok etadi. Mashg'ulot mazmuni va maqsadidan ogoh bo'ladi va oilada o'z ovozi bilan shug'ullanadi. Suzdukining ta'dbirida onalar musika ma'lumotiga ega bo'lishi shart emas.

Oilada gramzapis, televideniye, kontsertlarda tinglangan asarlarni muhokama etadilar. Bunda bog'cha va oilaning hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Natijada 5-6 yoshli bolalar Betxoven sonatalarini chalishga erishadilar. Yuqori sinflarga ko'chgan sari estetik tarbiya ham bir predmet singari murakkablashib boradi. Yuqori sinflarda rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq san'ati tanqidchilari yetishadi.

O'qituvchi-kadrlar tayyorlash ishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ular oliy pedagogika va san'at oliyogohlarida tayyorlanadi. O'qituvchilar, shuningdek, ona Vatanida olgan bilimlarga qoniqmay, rivojlangan Yevropa mamlakatlarga o'qishga borib o'z bilim va malakalarini oshiradilar.

5. Bolgariyada musika darslari, o'quv rejasiga muvofiq, maktabni birinchi sinfidan to'qqizinchi sinfga qadar o'tkaziladi, 10-11 sinflarda esa, ixtiyoriy mashg'ulotlar tarzida haftada ikki soatdan olib boriladi. Birinchi sinfda, musika darsiga haftada 1 soat, 2-6 sinflarda esa ikki soatdan ajratiladi. Birinchi sinf-tayyorlov sinfidir. Bunda bolalar kuylarni yodlab qo'shiq aytishni o'rganadilar, musika sadolari jo'rligida davrada o'ynab, kuylaydilar.

Ikkinchi sinfdan boshlab o'quvchilar darsda musiqa savodini va qo'shiq aytishni o'rganadilar. Bolgariyadagi ommaviy musiqiy tarbiyaning asosi-bu xalq qo'shiqlaridir. Bolgar xalq musiqasi o'ziga xos usul, ohang va boshqa xususiyatlarga ko'ra hozirgi zamon yoshlarining musiqa ehtiyojlarini qondira olish imkoniyatiga egadir. Bolgariyada asosiy diqqat-e'tibor ommaviy havaskorlik jamoalari-folklor ansambllariga qaratilgan.

Ularning faoliyatida xalq ijodi namunalari milliy ijrochilik uslubiga yaqin ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Xalqchilik ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotgan bolalar va yoshlarning qo'shiq va raqs xalq ansambllari ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi va badiiy-emotsional ta'sirning vositalaridir. Bolgar xalq qo'shig'ining boyligini egallash, uning o'ziga xos ohang ko'lamini o'zlashtirish, bolalarda musiqiy tasavvur hamda ijro malakalarini egallashga ko'maklashadi, milliy hamda jahon mumtoz musiqa asarlarining go'zallik va boyliklarini baholashga imkon beradi. Bolgariya ommaviy musiqa ta'limining milliy uslubiyati, uning bolalarda musiqaviy ijrochilik, ritmik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullari musiqiy tarbiyaning dastlabki bosqichida o'quvchining bajiha va boshqa ijodiy harakatlarini rag'batlantiradi.

Bolgariya musiqa ta'limi tizimida 1923 yilda Boris Trichkov tomonidan ishlab chiqilgan «Stolbitsa» (ustun) metodi keng tarqaldi. Oddiy, ommabop, qiziqarli bo'lgan «stolbitsa» usuli, ayniqsa umumta'lim maktab bolalari bilan ishlashda katta yordam bermoqda. Boshlang'ich sinflarda musiqa darsni barcha o'quv fanlaridan mashg'ulot olib boradigan pedagoglar o'tkazadilar, Ular gimnaziyani bitirgach, muallimlar institutida ta'lim oladilar.

Muallimlar institutida o'qish muddati uch yil. 5-8 sinflarda ashula darsini, ikki o'quv fani (masalan, til va ashula) bo'yicha pedagogika institutining maxsus fakultetida ta'lim olgan o'qituvchi o'tadi. 9-12 sinflarda esa, konservatoriyaning musiqiy nazariya fakulteti qoshida tashkil etilgan maxsus pedagogika bo'limlarining bitiruvchilari olib boradilar. Ularning o'qish muddati to'rt yil. O'quv dasturlarida ko'rsatganidek musiqa darslari asosini guruhli kuylash va musiqa cholg'ularida ijro etish tashkil etadi. Maktabdagi o'quv jarayoni darsliklar va o'qituvchilarga mo'ljallangan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlangan bo'lib, bu narsa, albatta, ommaviy musiqiy tarbiyani amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Bolgariyada xor madaniyatini rivojlanishiga Sofiya o'smirlar saroyining «Bodrasmena» bolalar xor jamoasi katta hissa qo'shdi. Jamoa 1947 yilda tashkil topgan. Uzoq yillar mobaynida bu jamoaga Bolgariya xalq artisti, professor Boncho Bochev rahbarlik qilgan edi. Xor jamoasi tarkibida 380 a'zosi bo'lib, u katta va kichik yoshdagi bolalar guruhlari 100 kishilik kontsert guruhidan iborat. Mazkur jamoasi ijro dasturiga murakkab ko'p ovozli, turli janr va uslubdagi asarlar kirgan. Bolalar va o'smirlar havaskor xor maktab-studiyasi bolalar xor jamoalarining zamonaviy ko'rinishi sifatida yosh ijrochilar uchun ma'lum professional istiqbollari ochib beradi.

Shunday jamoaning muntazam kontsert faoliyati, havaskor xor-jamoaning xor maktabiga aylanishidagi muhim shart-sharoitlaridan biridir. Bolalar va o'smirlar xor maktablari, ushbu maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar professional xor jamoalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xor jamoalari negizida-turli xil repertuarga ega bo'lgan kamer, madrigal, katta kontsert jamoalari shakl topishi mumkin.

B.Bochevning «Bodro smena» xor jamoasining ish tajribasini har bir bolalar xor jamoasiga tadbiq etish mumkin. Bolalar va o'smirlar havaskor xor maktablarini

mustahkamlash zamon tarablariga javob beradigan, mukammal tashkiliy-o'quv shakllarini vujudga keltirish mumkin.

6. Vengeriyada musiqiy tarbiya sohasida erishtilgan asosiy yutuqlar zamonaviy venger musiqasining asoschilaridan biri, kompozitor, xalq og'zaki ijodi bilimdoni, musiqashunos, pedagog Zoltan Koday (1883-1967) nomi bilan bog'liqdir. Bolalarning musiqiy tarbiya sohasidagi o'zining faol va sermahsul faoliyatini Z.Koday 1920-yillardan boshladi. Z.Kodayning bolalar musiqiy tarbiya tizimi ommaviylik tamoyiliga asoslangan.

Buyuk alloma xor jamoasida qo'shiq aytish hammaga ham mumkinligini alohida ta'kidlagan, keng ommani xor ijrochiligiga jalb etib, bu ishga alohida diqqat va e'tiborni talab qildi. Uning butun musiqiy ta'lim jarayoni xalq kuylariga asoslangan. Koday ommaviy venger maktabiga «Tonika-sol-fa» usulini kiritdi. Uning g'oyalari ikkinchi jahon urushidan so'ng ommalashib ketdi. Koday metodi bu yaxlit tizim bo'lib, relyativ (nisbiy) solmizatsiya, kuylayotgan o'quvchilarga qo'l harakati yordamida beradigan ko'rsatmalar, venger xalq qo'shig'i, musiqani chuqur o'rganishga yo naltirilgan umumta'lim maktablari, jo'rsiz guruhli kuylashdan iborat.

Unutmaslik kerakki, Koday metodi haqida gap ketganida, so'z musiqiy tarbiya kontseptsiyasi haqida, kni hayotga tadbiq etish yo'llari to'g'risida bormoqda. Bularni Z.Koday turli manbalardan olib, venger musiqasi xususiyatlariga moslashtirdi. Guruhli kuylash Vengeriyada, haqiqatdan, umumxalq jarayoni bolib, bunga musiqa savodxonligi nota bo'yicha qo'shiq aytaolish yordam beradi.

Z.Kodayning «2000 yilga kelib har bir umumta'lim maktabini bitirgan o'smir notani erkin o'qiy oladi» - degan orzusi amalga oshmoqda. Vengeriyada musiqiy tarbiya yuqori darajadadir. Bu mamlakatdagi umumta'lim maktab tizimining asosi sakkiz-yiilik to'liqsiz o'rta maktab bo'lib, uni bitirgan o'quvchilar to'rt sinflik gimnaziya o'tadilar. Birinchi sinfda bolalar haftada ikki mart 0,5 soatdan, ikkinchi-yettinchi sinflarda esa haftada ikki soat «Musiqa» o'quv fani bilan shug'ullanadilar. Bundan tashqari har hafta ikki soat orkestr mashg'ulotlariga ajratiladi.

Uchinchi-to'rtinchi sinflarda o'quvchilar musiqa adabiyoti bilan tanishish va birorta musiqa cholg'usini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Umumta'lim maktablari orasida musiqa-qo'shiqchilik to'liqsiz o'rta maktablari, ya'ni musiqani chuqur o'rganishga qaratilgan umumta'lim maktablari keng joriy etilgan. Ularda birinchi-to'rtinchi sinf o'quvchilari haftada olti soat, beshinchi-yettinchi sinflarda esa to'rt soat musiqa va ikki soat xor mashg'ulotlari bilan shug'ullanadilar.

Maktablarda shuningdek, fortepiano, skripka, puflama musiqa cholg'ulari sinflari mavjud. Bunday maktablardagi sinflarda o'quvchilar soni umumta'lim maktab sinfidagi bolalar soniga nisbatan kamroq, ya'ni 26 o'quvchidan ortmaydi. Bundan tashqari, ularda umumta'lim yo'nalishdagi o'quv fanlarining soni ham barcha o'quv fanlaridan bilim berayotgan o'qituvchi musiqa darsini ham o'tadi. Beshinchi-sakkizinchi sinflarda bu darslarini musiqa mutaxassisi olib boradi. Bolalarning musiqa savodini chiqarishda ustoz tomonidan qo'l harakatlari, maxsus imo-ishoralar keng qo'llaniladi.

Relyativ solmizatsiyani chuqur o'rganganden so'ng, o'quvchilar muloq tizimga o'tadilar. Musiqa ta'limini berish, shu jumladan musiqa o'quvchini rivojlantirish uslubi, asosan, bolalar ongining o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan va ularga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Umumta'lim maktablarida fortepiano, fleyta, yog'och tsimbala va ayrim urma cholg'ularidan foydalaniladi.

Koday tizimi ayniqsa, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan umumta'lim maktablarida o'zining yorqin ifodasini topmoqda. Har kungi musiqa darslari bolalarda usullarni ajrata bilish tajribasini, xotira, his-tuyg'ularni rivojlantiradi. 14-18 yoshdagi o'quvchilar ta'lim oladigan gimnaziyalarda musiqa tarixi fani o'rganiladi, barcha janr, uslub va davrdagi musiqa asarlari eshitiladi, shuningdek, sinfdan tashqari faoliyat ko'rsatadi. Vengeriyada maxsus musiqa ta'limi beradigan gimnaziyalar ham mavjud. Bunday gimnaziyalar bitiruvchilari, aksariyat hollarda, boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchilari bo'lib ishlaydilar. Shuningdek, Vengeriyada bir nechta musiqa bilim yurtlari ham mavjud. Mazkur o'quv yurtlarida oquvchilar umtimta'lim fanlari bilan birga biror musiqa cholg'usini, solfedjio, garmoniya, guruhli kuylashni o'rganishadi.

Gimnaziya bitiruvchilari o'qishni (t'lim olish muddati uch yildan besh yilgacha bo'lgan) F.List nomidagi Musiqa akademiyasida davom yettirishlari mumkin. Uch yillik kurslarda umumta'lim maktablari uchun solfedjio, qo'shiq, biror musiqa cholg'u ijrochiligi bo'yicha mutaxassis-o'qituvchilar tayyorlanadi. Besh yillik ta'lim esa oliy malakali o'qituvchi va ijrochi-artistlarni tayyorlaydi. Bundan tashqari, Vengeriyada yuqori sinf musiqa o'qituvchilarni tayyorlaydigan to'rt yillik oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, bu yerda talabalar muayyan musiqa ixtisosligi (masalan, musiqa va tarix, musitqa va til va boshqalar) ni ham egallaydilar.

Ta'kidlash lozimki, Z.Koday tizimi Vengeriyadagi musiqa ta'limi va tarbiyasining barcha bosqichlarida joriy etilmoqda; Vengeriya musiqashunos-pedagoglarining tajribasi dunyoning ko'pgina mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda ham musiqashunos va pedagogika mutaxassislari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda.

Z.Koday tizimi turli milliy madaniy an'analarga muhim ravishda moslashib bormoqda va shuning uchun u jahonning aksariyat mamlakatlarida keng miqyosda ommalashib ketdi. Vengeriyada butun xalq musiqiy savodini chiqarish vazifasi muvaffaqiyat bilan hal etilmoqda. Bunda musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan umumta'lim maktablarida har kuni o'tkaziladigan musiqa darslari katta ahamiyat kasb etmoqda. Guruhli kuylash Vengeriyada, chindan ham umumxalq jarayonidir, bunga odamlarning musiqa savodxonligi, notaga qarab kuylash malakasi ta'sir ko'rsatmoqda.

7.Germaniyaning yirik nemis kompozitori va buyuk pedagog Karl Orf (1895-1982) jahonda keng tarqalgan bolalar musiqiy tarbiya uslubiyatining asoschilaridan biri hisoblanadi. Shveytsariyalik pedagog E.Jak-Dolkroz (1865-1950) ning o'quv tizimiga asoslanib K.Orf «Oddiy musiqa» (elementar musiqa) g'oyasini ishlab chiqdi va bu g'oyani Myunxendagi Guntenshule (Gunter maktabi) gimnastika va raqs maktabidagi o'qitish uslubiga aylantiradi. 1953 yilda Avstriyaning Zaltsburg shahrining Motsarteum deb nomlangan musiqa dargohida Karl Orf instituti tashkil topib, u AQSh, Angliya, Germaniya, Xindiston kabi 30 dan ortiq mamlakatlarni birlashtirgan daobro ilmiy muassasaga aylanib ketdi. K.Orf nomidagi institutda 400 dan ortiq o'quvchi, 50 dan ziyod pedagog ta'lim oladi. Orf kashf etgan bolalar va o'smirlar musiqiy tarbiya usuli o'quvchilarning musiqiy folklordan keng miqyosda foydalanish, ularning ijodiy ko'nikma va imkoniyatlarini rivojlantirishga asoslangan. Ushbu o'quv usuli tamoyillari xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan «Shulverk» to'plamida o'zining badiiy-metodik talqinini topdi.

Besh jildlik «Shulverk» uslubiy qo'llanmasi, asosan umumta'lim maktablari va bolalar muassasalaridagi to'rt yoshdan o'n besh yoshgacha bo'lgan bolalarning uzluksiz

musiqiy ta'lim-tarbiyaga mo'ljallangan xalq musiqa ijodiga asoslangan bu qo'llanmadagi p'esalar bolalar ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

«Shulverk» asarlari xalq qo'shiqlari va ko'hna musiqa namunalari asosida bastalangan bo'lib, bu to'plamda xalq she'riyat matnlariga ham keng o'rin berilgan. Barcha namunalarga etnografik yoki tarixiy manbalar asosida izoh berilgan. Bu o'ziga xos hamma bolalarga majburiy musiqa ta'limini beradigan boshlang'ich maktabidir. Orfning fikriga ko'ra, boshlang'ich o'quvi hamda ritm hissiyotini rivojlantirish, kuylashga yoki biror cholg'u asbobida ijro etishga o'rgatish, balki, bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, yakka va jamoaviy ijro jarayonida musiqani ijod etish qobiliyatini rivojlantirish hamdir.

Guruhdagi bolalar soni 10-12 kishidan oshmasligi kerak. Barcha mashg'ulotlar jamoaviy tarzda olib boriladi, bunda bolalar qo'shiq ijro etib raqsga tushadilar, navbat bilan musiqa cholg'ularida chaladilar, turli jismoniy mashqlarni bajaradilar. Asta-sekin bolalar shu darajaga yetib boradiki, ular butun tomosha-sahnachalarni, keyinchalik hatto spektakl, undagi musiqa, she'riy matn, sahna jihozini, barcha xatti-harakatlarni ham o'zlari o'ylab topadilar.

K.Orf cholg'u jurnaovozligiga ham katta ahamiyat beradi. «Shulverk» da nazarda tutilgan jamoaviy cholg'u ijrochiligi bolalardan maxsus tayyorgarlik va bilimni talab qilmaydi, ammo unda ta'limning oddiyligi bilan musiqa yangrashining yuqori sifatleri uyg'unlashadi. «Shulverk» dagi aksariyat namunalar aytim (vokal) mashqlarga asoslangan. Orfning uslubi notaga qarab ijro etish (ya'ni, nota savodi) ga bog'liq bo'lmasa-da, institut pedagoglari relyativ solfedjioga o'zgaya yondoshadilar: bolalarga tovushlarning nisbiy va mutloq nomlari barovar o'rgatadilar.

Hozirda «Shulverk» to'plamidan ko'p mamlakatlarda foydalanilmoqda. K.Orf ta'kidlab o'tganki «Shulverk» kitobini har bir mamlakatda milliy musiqa shu jumladan bolalar folklori bilan boyitish zarur. «Shulverk» ning frantsuz, yapon, ingliz, shved, ispan va boshqa milliy nashrlari mavjud. Mazkur kitob ko'r, saqov, maxsus logopedik bolalar maktablarida joriy etilmoqda.

Orf institutida ertalabki darslar yosh pedagoglar oliygoh talabalari bilan o'tkazilardi. Bolalar mashg'ulotlari esa kunning ikkinchi yarmida o'tadi. K.Orfning didaktik kontseptsiyasi jahon o'quv amaliyotida keng tarqalgan bo'lib, turli uslubiy yechimlarga yo'l ochadi va ijodiy tafakkurni rag'batlantirishga ko'maklashadi. Orf kontseptsiyasi Markaziy Osiyoda Chimkent shahrida shuningdek, Toshkent shahri ba'zi umumta'lim maktablarida tadbir qilinadi.

8. Gollandiyadagi bolalar musiqiy tarbiyaning tizimi, umrining 35 yilini musiqa faoliyatiga bag'ishlangan Per van Xauve (Delft shahri) nomi bilan bog'liqdir. U Parijda va Bryusseldagi konservatoriyalarini dirijyorlik, musiqa nazariyasi hamda kompozitsiya sinflari bo'yicha tugatgan. Delftda musiqa maktabini tashkil etishi hamda uni boshqarish takliflarini qabul qilgandan so'ng u xor va orkestr jamoalarida dirijyorlik faoliyatini to'xtatdi. Hozirgi zamon pedagogik usullar bilan tanishish maqsadida Per van Xauve Yevropa mamlakatlariga, birinchi navbatda, Bavariyaga yo'l oldi. U yerda K.Orf va uning bolalar musiqiy tarbiyasi tizimi bilan tanishib, uning ashaddiy muxlisiga aylandi.

Shuningdek, Frantsiya va Belgiya. Italiya va Ispaniyada bo'lib qaytdi. Vengeriyada u Z.Koday bilan tanishdi. Kodayning musiqiy tarbiya tizimi Per van Xauve katta ta'asurot qoldirdi; u Koday shogirdlari katta yutuqlarga erishishga asos bergan relyativ tizimini qunt bilan o'rganishga kirishdi.

Bolalar bilan olib borgan amaliy faoliyat natijasida Per van Xauve musiqiy tarbiyadagi o'zining yangi tizimini yaratdiki, bu tizim ikki Orf va Koday usullarining o'zaro uyg'unlashgan mahsuli bo'lib, unda psixologiya va bolalar tasavvuriga mos keladigan asosiy tomonlari olingan edi.

Bu usulning mohiyati quyidagidan iborat: bolalarni o'yinga jalb etib (masalan, qarsak chalish, tarelkalar, qo'ng'iroqlar, bubenlarni urib, tovush chiqarish), pedagoglar ularda musiqa bo'yicha malakalarini hosil qiladilar. Shu ravishda, hamma bolalar, musiqali bilim saviyalari turlicha bo'lishiga qaramay, ta'lim jarayoniga kirishib ketadilar. Ta'kidlash lozimki, Gollandiya musiqa maktablari bolalarga kasbiy ma'lumot berilishi o'z oldiga maqsad qilib qoymaydi, gar o'zining musiqaviy vaqti chog'ligi va xursandchiligi xaqida ketadi.

Delft musiqa maktabi tashkil topish davridan bir nechayildankeyin, Fer va Xauve o'z amaliyotida sinovdan o'tgan shaxsiy tarjibalariga asoslanib har bir sinf uchun "Musika bilan o'yinlar" nomli qator darsliklar yaratdi. Darsliklarda ko'plab musiqali p'esalar, mashqlar, o'yinlar, qo'shiqlar, aniq vazifalar mavjud bo'lib, ularni bajara borib, bola asta-sekin notani yozish va o'qishni, nota bo'yicha qo'shiq aytish va o'yin o'ynashni o'rganadi.

Tayanch tushunchalar

Suzduki tizmi – klassik metod musiqa va ona tilini birlashtirgan holda, musiqani tinglab idrok etish bilan amalga oshiriladi.

Estetik tarbiya – badiy- estetik tafakkurini shakllantirishda, real hayotida san'atdagi estetik hodisalar, ko'rinishlar, holatlarini his qila olish, qabul qila olish, baholay olish qobiliyatlarini shakllantirishda shuningdek, ijodiyotda faol ishtirok etish.

Nazorat savollari:

1. Amerika Qo'shma shtatlaridagi ta'lim tizimining tuzilishi haqida gapirib bering?
2. Evropa ta'lim tizimlari tarkibi qanday?
3. Germaniyada maktab va oliy ta'lim xaqida tushunchalar bering?
4. Angliyada musiqa tarbiyasi tizimlari qanday?
5. Bolgariyada musiqa o'qitishining maqsadi va shakli.
6. Vengriyada musiqa tarbiyasi tizimi.

Mavzuni mustaxkamlashga doir mustaqil ish namunalari.

1. R. Van Xauve. Gollandiya "Musiqiy ijod".
2. D.J. Kerven. Angliya "Tonik – sol - fa" tizimi. Solfedjio.
3. J. Jak - Dalkzor. Shveytsariya "musikali ijod".
4. K. Orf. Germaniya-Avstriya "Musikali ijod" metroritmik ukuvini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z. Koday "Избранные статьи" М. 1982.
2. Lashenko "Хоравая культура как предмет изучения" Kiev 1990.
3. R. Myunnik Germaniya "Yalen" tizimi. Solfedjio. kushikchilik.
4. B. Trichkov Bolgariya "Solfedjio"

5.T. Sudzuki Yaponiya “Skripka ijrochiligiga o’rgatish orkali musiqiy malakalarini rivojlantirish”.

Mavzu: « Sinifdan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi va vazifasi »

REJA:

- 1.Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimi
2. Musiqa tarbiyasining ommaviy shakli
3. Musiqa tarbiyasining to’garak shakli

Cinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi, tarbiyaning asosiy maqsadi, o’quvchilarni, iloji boricha, ko’proq ommaviy va to’garak ishlariga jalb etib, ularni Dune-qarashini har tamonlama rivojlantirish, badiiy didini o’stirish, tabiatga, ona Vatanga bo’lgan mehr- muhabbatni oshirishidir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda maktablarda musiqa darslaridan tashqari, ommaviy va to’garak ishlari olib boriladi.sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ikkita shakli mavjud :

1. musiqa tarbiyasining ommaviy shakli;
2. musiqa tarbiyasining to’garak shakli.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy shaklida bolalarni musiqiy o’quvini tekshiruvdan o’tkazmay. Yalpi tarzda jalb etishni taqozo etadi. Bularga, qo’shiq bayramlari, musiqa xaftaligi, O’zbekiston Vatanim manim, Ilxom chashmalari ko’rik tanlovlaridan. Ijodiy uchrashuvlar, teatr va kontsertlariga sayohat, Alifbe bayramlari, shoir va bastakorlar Bilan uchrashuvlar kiradi. Ammo, bularning har biriga bolalarni yoshi qiziqishiga qarab, oldindan tayyorlab borilishi kerak. bu tadbirlarni har birini yuksak badiiy did bilan tashriya etib amalga oshirish, chinakam badiiy- musiqiy bayram ruhini kasb etish lozim. Musiqa o’qituvchisining ommaviy ishlar rejasi, maktab ma’muriyati tomonidan tasdiqlangan bo’lishi lozim. Ommaviy musiqiy ishlar rejasi, musiqa o’qituvchisi va maktab tarbiyaviy va ma’naviy ishlari mudiri, maktab etakchisi bilan hamkorlikda o’quvchilarning yoshiga, qiziqishiga, bayramlar, uchrashuvlar, tadbirlarni hisobga olgan holda tuziladi. Bunda o’quvchilarning musiqiy o’quvi, qobiliyati hisobga olinadi. Ommaviy musiqa mashg’ulotlarining har biri, aniq ishlab chiqilgan reja, asosida amalga oshirilmog’i lozim. Bunda har bir mashg’ulot turiga qarab, uning asosiy maqsadi, xususiyati, repertuar mazmuni, maktab imkoniyatlari, taklif etilgan mehmonlar hisobga olinib, o’quvchilarni jalb etiladi. To’garak ishlarini esa, ish rejasini musiqa o’qituvchisining o’zi, o’z hohishi va imkoniyatlariga qarab, mustaqil tarzda tuzadi. O’qituvchi to’garak ishlariga o’quvchilarni musiqiy qobiliyati hohishi-istagi, qiziqishi, ovozigga qarab tanlab oladi va turli xil to’garaklar to’zadi. Haftasiga 2-3 borto’garakki guruhlargsha bo’lib ishlaydi. To’garak ishlarining asosi musiqa darsidir. To’garak ishlariga qobiliyatli qiziquvchan. Musiqa darslarida aktiv qatnashidigan o’quvchilar tanlab olinadi. Darsda har bir bolaning layoqati qiziqishi hisobga olinib, u yoki bu musiqa to’garagiga jalb etiladi.

Tayanch tushunchalar.

Xor- (yun.choros) vokal, xor musiqasini aytuvchi ijrochi jamoa. lamoa bo'lib qo'shiq kuylash

Orkestr - (yun. Orchestra - qadimgi yunon teatri saxnasi oldidagi maydoncha) - turli cholg'u asboblari bilan chaluvchi sozandalardan tuzilgan jamoa bo'lib, shu tarkib uchun yaratilgan musiqa asarini ijro etadi.

Nazorat savollari:

1. Dars va darsdan tashqari ishlarni rejalashni tashkil qilishda o'qituvchi tayyorgarligi va o'z ustida ishlashi
2. Musiqa tarbiyasining ommaviy shakli
3. Musiqa tarbiyasini to'garak shakli
4. Sinfdan tashkari musiqa tarbiyaviy ishlar rejasini tuzish

Mavzuni mustaxkamlashga doir mustaqil ish namunalari

- 1.Gudkova Ye.A., Vasileva A.B. «Ashula darsi metodikasi»
- 2.Sharipova G. «Musiqa o'qitish metodikasi» ma'ruza matni T., 2000 y.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.R.Qadirov «Boshlang'ich maktabda ko'p ovozda kuylash»
- 2.Apraxsin O. «Metodika muzыkalnogo vospitaniya v shkole» M.1983 yil
- 3.Omonulayev D. «Umumiy ta'lim maktablari uchun musiqa dasturlari»T.1992y.

Мундарижа

1. I. bob. Musiqa tarbiyasi uslubiyoti fanining mohiyati Mavzu: Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa tarbiyasining ahamiyati.....	5-12
2. Mavzu: Musiqa o'qituvchisining ma'naviy va ahloqiy qiyofasi. Unga qo'yilgan zamonaviy talablar.....	12-16
3. Mavzu: Musiqa darslarining xususiyati va strukturasi.....	16-21
4. II-bob. Musiqa darslarining umumdidaktik printsiplari va metodlari. musiqa darslarini rejalashtirish Mavzu: Musiqa darslarida umumdidaktik printsiplari.....	21-25
5. Mavzu: Musiqa o'qitish metodlar.....	25-32
6. Mavzu: Umumiy ta'lim maktablarida qo'shiq o'rgatish metodlar.....	32-39
7. Mavzu: Musiqa darslarida musiqa savodi o'rgatish metodikasi.....	39-54
8. Mavzu: Umumiy ta'lim maktablarida musiqa darslarini rejalashtirish.....	55-59
9. Mavzu: Vokal-xor malakalari va ularning ahamiyati.....	59-63
10. Mavzu: «Ashulachilik apparatining tuzilishi va ahamiyati.....	64-67
11. III - bob. Umumiy ta'lim maktablarida musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi 1-Mavzu: Umumiy ta'lim maktablarining boshlang'ich 1-2 sinflarida musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi.....	67-72
12. Mavzu: Umumiy ta'lim maktablarining 3-4 sinflar uchun musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi.....	72-75
13. Mavzu: «5-6 sinflarda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi.....	76-79
14. Mavzu: Yettinchi sinfda musiqa o'qitish metodikasi va uning mazmuni.....	80-82
15. IV-bob. Xorijiy mamlakatlarda musiqa tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari Mavzu: «Xorijiy mamlakatlarda Musiqa tarbiyasi tizimi.....	83-91
16. Mavzu: Sinifdan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi va vazifasi.....	91-92
17. Мундарижа.....	93